

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA KAFEDRASI

**Tuzuvchi va nashrga tayyorlovchi
G.V.Izbullayeva**

**“MASNAVIYI MA'NAVIY” DAN
HIKOYALAR, MASALLAR, HIKMATLAR**

Toshkent, “Navro`z” nashriyoti, 2015

UO`K: 170.18.5.7
KBK 82.11(5 o`zb)7
И54

Mas'ul muharrir:

G.N.Navro`zova, falsafa fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

B.R.Adizov, pedagogika fanlari doktori, professor

S.S.Avezov, filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Buxoro davlat universiteti Ilmiy-texnik kengashining 1-iyul 2015-yil
6-sonli yig`ilish bayonnomasi bilan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-3814-9-0

*Ma'naviydir ul, ma'oniy qatma-qat,
Yangilikdir ul azaldin to abad.¹*

SO'Z BOSHI

Sharqning buyuk allomasi, mutafakkiri Jaloliddin Rumiyl ijodi ma'naviy tarbiyaning tamal toshi desak mubolag'a bo'lmaydi. Uning ma'naviy merosi Sharq va G'arbga birdek tanish. Ayniqsa "Masnaviyi ma'naviy" asari hanuzgacha ko'p tillarga takror va takror tarjima qilinib olimlar tomonidan sharx berilmoqda.

O'rta Osiyoda XIV asrdan boshlab Rumiyl ijodiga munosabat yuksak darajaga ko'tarilgan. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy, Husayn Voiz Koshifiy, Shayx Odina Muhammad Xorazmiy, keyinchalik esa Mirzo Abdulqodir Bedil, Boborahim Mashrab kabi buyuk so'z ustalari Rumiyni o'zlariga ustoz deb bilib, uning asarlaridan ilhomlanib, ilmiy-tarixiy, badiiy asarlar yaratganlar.

"Masnaviy"ni olimlar: "Tarixda "sharif" deb sifatlangan uchta asar mavjud bo'lib, birinchisi – "Buxoroyi sharif", ikkinchisi – "Shifoyi sharif" va uchinchisi – "Masnaviyi sharif" deyishadi.² "Masnaviy" har bir ziyoli xonadonda mavjud bo'lgan, madrasalarda darslik sifatida o'qitilgan. Hatto bu kitob xonlar saroyidagi eng qimmatbaho mulk sanalgan. Buxoro amiri Said Olimxon bolsheviklarga qarshi urushda Afg'oniston hukmdori amir Habibulloxondan madad so'rar ekan, unga nastaliq xatida yozilgan Bedil "Devon"i qatorida Rumiyning "Masnaviy"sini ham eng qimmatli sovg'a tariqasida yuboradi."³

Umumbashariy va milliy qadriyatlarimizga shunchalik kuchli darajada ta'sir ko'rsatgan bunday bebaho asarni hozirgi zamon yoshlariga etkazish maqsadida asarning o'zbek tilidagi tarjimasining nazmiy bayonidan foydalangan holda ta'lim-tarbiyaga oid hikoya, masallarning nasriy bayoni, tematik tartibdagi hikmatli so'zlar hamda izohli lug'atni keltirdik.

Muallifdan

¹ Rumiyl Jaloliddin. Masnaviyi ma'naviy. – T. 2010. – (695-bet).

² Usmon Nuri To'pbosh. Bir ko'za suv. – T.: "Fan", 2007. – (8-bet).

³ Olimiy Sayyid Mansur. Buxoro – Turkiston beshigi. Ilmiy - ommabop asar. "Buxoro" nashriyoti, 2004. – (76-bet).

MASNAVIYI MA'NAVIY

BIRINCHI KITOB

Shoh, kanizak va tabib

Bir kun shoh saroyga bir kanizakni olib kelibdi, lekin kanizak betob ekan. Barcha tabiblarni chaqirib uni davolashni buyuribdi. Tabiblar kanizakning dardiga shifo topolmay ojizlik qilishibdi. Bir kun shoh tushida bir tabibni ko'ribdi va unga shu tabib kanizakni davolashi ayon bo'libdi. Tabibni topib kelib kanizakni ko'rsatibdi. Tabib kanizakni ko'rib, podshodan ularni yolg'iz qoldirishni so'rabdi. Tabib qizni savolga tutib, uni qo'lini olib tomiridan ushlabdi. Qiz har gal yaqinlari haqida gapirganda tomirlari miq etmas ekan. Tabib takror va takror savollar bera boshlabdi. Gap Samarqand haqida kelganda kanizakning tomirlari tez ura boshlabdi, u yerdagi zargar haqida gap ochganda tomirlari yana ham tez ura boshlabdi. Bu sirdan voqif bo'lgan tabib, shohga tezda etkazibdi va zargarni olib kelishni buyuribdi. Samarqand yurtiga chopar borib zargarga: "Shohim sizning hunaringizga qoyil qolib saroylariga chorlamoqdalar", – deb, zargarni olib kelishibdi. Zargar ham nafi hakalak otib oilasi bola chaqasini tashlab yo'lga tushibdi. Qiz zargarni ko'rib olti oy deganda tuzalibdi. Tabib bu holni kuzatib zargarga zahar ichiribdi. Kundan kunga so'lib borayotgan zargarni ko'rib, qizning ko'ngli zargardan qolibdi.

Gar kishini bo'yla bir shoh tortadir,
So'yi baxtu davlatu joh tortadir.

Baqqol va uning to'tisi

Baqqolning xushchaqchaq to'tisi bo'lgan ekan. Kunlardan bir kuni to'ti ko'p gapirib, baqqolning yog'ini to'kib qo'yibdi. Buni ko'rgan baqqol uni boshidan urib kal qilib qo'yibdi. O'shandan beri to'tisi gapirmas ekan. Baqqol to'tini ovqatlar bilan siylar, erkalatar ekan. To'tidan sado ham chiqmas ekan. Bir darvesh o'tib qolibdi, uning boshida ham bir dona tuki yo'q ekan, buni ko'rib to'ti tilga kirib: "Nima gunoh qilding, boshing kal yo sen ham yog'ni to'kib qo'ydingmi?" – debdi. Buni eshitib xaloyiq kulib Baqqolga: "To'ting darveshni o'ziga o'xshatdi" – deyishibdi.

Ba'zilar o'zini nabiylar deydi, xolos,
Avliyoni o'ziga aylar qiyos.

G'ilay shogird

Bir ustozning g'ilay shogirdi bo'lgan ekan. Bir kun ustoz shogirdiga shishalarni olib kelishni buyuribdi. Shogird: “Qaysisini olib kelay, anig'ini ayting?” – debdi. Ustozi: “U erda o'zi bitta shisha bor, g'ilaylikni bahona qilmay, shishani olib kel”, – debdi. Bundan jahli chiqqan shogird: “Menga ta'na qilmang” – debdi. Ustozi: “Birtasini sindir qolganini olib kel”, – debdi. Shogird bir shishani sindirgan ekan, ikkinchi shisha ham yo'qolibdi.

Xalifa va Layli

Bir kun xalifa Laylini ko'rib hayratlangandan: “Bu senmisan Majnunni yondirgan Layli, Chiroying ta'rifga loyiq emasku?” – debdi. Layli bu gapni eshitib xalifaga: “Sen Majnun emassanki, chiroyimni anglasang”, – debdi.

Kimki bo'yla uyquda bedor emish,
Uyqudin bedorligi battar emish.

O'zidan qochish

Yer yuzidagi butun jonzotlarga hukmron bo'lgan hazrat Sulaymonning Yamandagi saroyida peshindan oldin bir sodda odam xavotir bilan kiribdi. Sulaymon rangi - ro'yi o'chgan, qo'rquvdan titrayotgan odamdan so'rabdi: “Tinchlikmi, nima gap? Bu qo'rquvning boisi nima? Nima darding bor? Ayt menga!” Haligi odam: “Bugun tongda menga azroil uchradi. Menga jahl bilan qaradi va darhol uzoqlashdi. Jonimni olishga ahd qilgan ko'rinadi?” – debdi. “Xo'sh, nima qilishimni xohlaysan?” – debdi Sulaymon. Odam yolvordi: “Ey jonlarning qo'riqchisi, mazlumlar najotkori Sulaymon! Sizning qo'lingizdan keladi. Bo'ri, qush, tog', tosh amringizda, shamolga buyuring, meni uzoq Hindistonga olib borsin. Balki shunda Azroil meni topolmas, shunda jonimni saqlayman. Umidim sizdan”.

Sulaymon odamning holiga rahmi keldi. Shamolni chaqirib buyurdi: “Hoziroq bu odamni Hindistonga olib bor”. Shamol zum o'tkazmay buyruqni bajaribdi. Ertasi kun xazrat Sulaymon devonni to'plab, kelganlar bilan ko'risha boshlabdi. Ne ko'z bilan qarasaki, azroil ham ularning orasida turardi. Darhol yoniga chaqirib so'radi:

“Ey Azroil, kecha u odamga nega jahl bilan qaradingiz? Jonini olsangiz, oling edi. Biroq bechoraning o’takasini yoribsiz-ku”. Azroil javob beribdi: “Ey dunyoning ulug’ sultoni. Men u odamga jahl, g’azab bilan boqmadim, balki hayrat bilan qaradim. U noto’g’ri tushunib vahimaga tushdi. To’g’risi, uni bu yerda ko’rib hayron qoldim. Chunki Alloh taolo menga: “Qani, bor, bu kecha o’sha odamning jonini Hindistonda ol”, – deya amr qilgandi. Bu odamning yuzta qanoti bo’lsa ham Hindistonda bu kecha bo’lolmasligini o’ylab hayratlandim”.

Sen o’zingdan-ku qocholmassen, aniq,
Bas netib Xaqdin qocharsen, ey rafiq!

Nafs vahshiy arslon kabidir¹

Poyonsiz va uzoq bir o’rmonda bitta vahshiy arslon yashar ekan. O’rmonda hamma hayvonlar undan qo’rqib kun ko’rar ekan. Ular bunday hayotdan qutulishga chora qidiribdilar. O’ylab oxiri ichlaridan bir hay’at tanlab arslonga yuboribdilar. “Ey o’rmonlarning shohi arslon. Har kun bittamizni tutib yeysan. Bunga e’tirozimiz yo’q, biroq ovora bo’lishing shartmi? Sen taxtingda bemalol o’tiraver, o’zimiz senga ichimizdan birimizni yo’llaymiz, bemalol yeyaverasan”, – deyishibdi.

Bu taklif arslonga yoqib tushibdi va qabul qilibdi. Endi har kuni ertalab bir hayvon arslonga topshirilar edi. Kunlardan bir kun navbat quyonga kelibdi. Biroq u borishni aslo xohlamabdi. “Eh, nima qilaylik?! Qismat shu! Ko’pchilikning xotirjamligi uchun kimdir o’lishi kerak. Qani vaqtni o’tkazmasdan yo’lga tush. Arslonning jahlini chiqarmaylik”, – deyishibdi o’rmon hayvonlari.

Hayvonlar qancha gapirishmasin, quyon pinagini buzmas, ketishini paysalga solar ekan. Nihoyat, yolvora-yolvora quyonni yo’lga ravona qilibdilar.

Quyon bamaylixotir sakrab-sakrab arslonning huzuriga kelibdi, biroq vaqt allamahol bo’lgan ekan. Ochlikdan g’azablangan arslon o’shqiribdi: “Qayerda qolding? Kechikishingning boisi nima?” Quyon soxta bir xavotir bilan go’yo terlarini artibdi, bo’ynini bukib: “Hazrati oliylari, hurmatingiz bor. Men ertalab vaqtli yo’lga chiqdim,

¹ “Kalila va Dimna”dan

ammo yo'limni boshqa bir arslon to'sdi. Qo'lidan qutilgunga qadar boshimga nimalar kelmadi deysiz", – debdi.

Arslon yanada g'azablanibdi: "Kim ekan bu gustoh?! Bu o'rmonda faqat mening hukmim o'tadi. Kim ekan u? Qani tezroq ayt?"

Quyvon bu ahvoldan mamnun, nuqul narigi "arslon"ni maqtar, bu bilan arslonning jahlini chiqarar ekan. Arslon chiday olmabdi: "Tush oldingga, ko'rsat o'sha olchoqni menga!" Yo'lga chiqishibdi. Quyvon arslonni bir quduq boshiga olib kelib: "Mana, sultonim, u shu quduq ichida qarang, o'rnashib olibdi". Arslon hirs bilan quduqning ichiga qarabdi. Suvda o'z aksini ko'ribdi. Xirillashni boshlagan ekan, quduqdagi aksi ham "bo'sh kelmabdi". Quyvon fursatni qo'ldan boy bermay, luqma tashlabdi: "Ko'ryapsizmi, janobi oliylari, sizni qo'rqitishini?!".

Arslon butunlay qahrga to'lib, ko'zlari o'tdek yonibdi: "Bir dunyoda ikki sulton bo'lmaydi, parchalab tashlayman uni!" – deya o'zini quduqqa otibdi.

Hammasi shunday tugabdi. Quyvon yam-yashil o'tloqlardan quvnoq holda sakrab-sakrab kelib, hayvonlarga arslondan qutulganlari to'g'risidagi xushxabarni etkazibdi.

Hudhud va Sulaymon

Sulaymon shoh shikorda yurganida bir joyga kelib chodir tikibdilar. Jahondagi barcha qushlar uchib kelib, unga bosh egishibdi, xizmatiga shaylanib turishibdi. Hammalari g'oyatda ahil, bilgan hunarlarini namoyish qilibdilar. So'z navbati Hudhudga kelganda, u ko'kdan turib nazar solsa, yerning usti va tagidagi barcha narsalarni, rangini, qayerda qancha suv borligini ko'rish hunariga egaligini izhor qilibdi. Shoh uning so'zlarini ma'qullab, cho'llarda o'ziga hamroh topib olishini bildiribdi. Shu paytda zog'-qarg'a paydo bo'lib, Hudhud so'zlari yolg'on, odobsizlik, deb shohda shubha tug'diribdi. Shoh, uning gaplarida jon bor, deb o'ylab Hudhudni sarxushlikda ayblabdi. Shunda Hudhud o'z so'zlari chin, haq ekanini aytib, zog' qavmi o'ziga azaldan dushmanligini, u o'limga munkirligini uqtiribdi va o'zi ko'zi ko'r bo'lmaguncha yiroqdan odamni behad ko'rajagini aytibdi.

Hamzabonlik dilni-dilga band etar,
Oshno-begonani payvand etar.

To'tiqush

Bir savdogarning to'tisi bor edi. Bir kun savdogar Hindistonga safarga chiqish oldidan hammadan nima olib kelishni so'rabdi, navbat to'tiga yetganda: "Ey to'tiginam, sen nimani xohlaysan, senga nima olib kelay?" – debdi. Shunda to'ti: "U yerda to'tilarni ko'rsang, mening ahvolimdan xabar ber. Falon to'ti mening mahbusim. Uni qafasda boqaman va u sizlarga salom aytib yubordi: "Men begona yurtda qafaslarda sizlarni o'ylab azob chekaymi, siz bemalol, erkin daraxtzorlarda, tog'u toshlarda aylaning. Shuni menga ravo ko'rasizmi? Hech bo'lmasa, bir sahar paytida men g'aribni ham yod olingki, men ham baxtiyor bo'lay, dedi"', – degin.

Savdogar karvonni tayyorlab yo'lga chiqibdi. Kecha-kunduz yurib, nihoyat, Hindistonga etib boribdi. Yo'lda qoyaliklarda qo'nib turgan bir necha to'tilarni ko'ribdi. Otini to'xtatib ularga to'tisining aytgan so'zlarini yetkazibdi. Bu gaplarni eshitgan bir to'ti, yaqin qarindoshi ekanmi, "tap" etip yiqilib jon beribdi.

Oradan ancha vaqt o'tgach savdogar ishini tugatib uyiga qaytibdi. Hammaning aytgan sovg'alarini qo'llariga tutqazibdi, ammo to'tisiga gapirmas ekan. Buni kuzatib turgan to'ti: "Mening istagimni bajarmadingmi?" – debdi. "Suyukli qushim, sen mendan istagingni so'rama, men senga aytmay", – debdi savdogar.

To'ti holi joniga qo'ymagach, savdogar bo'lgan voqeani aytib beribdi. Suhbati tugar-tugamas to'tisi ham yiqilib jon beribdi. Buni ko'rgan savdogar qilgan ishidan pushaymon bo'lib, yig'lab qafasdan o'lgan to'tisini olib tashlabdi. Shu zahotiy oq to'tisi "pir" etib osmoni falakka parvoz qilibdi. "To'tijon, bu ne hiyla, sen o'lganding-ku?" – deb so'rabdi beixtiyor savdogar. "Suyukli xo'jayin, Hindistonga ko'rganing u to'ti mening salomimni olgach, o'zini o'likka solib menga xabar yo'lladi. "Qafasdan qutulmoqchi bo'lsang, o'zingni o'likka sol", – dedi. Ko'rib turganingdek, uning aytganiga rioya qilib asirlikdan qutuldim", – deb javob beribdi to'ti.

Keksa cholg'uchi

Hazrat Umar davrida keksa bir cholg'uchi bo'lib, changni juda yaxshi chalar edi. Xursandchilik va majlislarni uning kuylari bezardi.

Cholg'uchi vaqt o'tib keksaydi, endi avvalgiday soz chalolmas, hech kim uni tinglashni xoxlamas edi. Yolg'iz, chorasiz, umidsiz va och qoldi. "Yo Rabbim", – dedi keksa cholg'uchi. "Menga uzoq umr

va ko'p imkon berding, men kabi bir arzimas bandangga lutf ko'rsatding. Yetmish yildirki isyon etdim, biroq sen bir kun ham marhamatingni uzmadning. Ammo, afsuski, ortiqcha ishlab pul topa olmayman. Endi sening mehmoning bo'lmoqchiman. Bu titroq qo'lim va dirilloq ovozim bilan sozimni yolg'iz sen uchun chalaman, endi men senikiman! Ovozimni eshityapsanmi?"

Sozini qo'lga olib yig'lab-yig'lab Madina qabristoniga boribdi. Evazini Allohdan istab ovozini baland ko'tarib kuylabdi. Nihoyat holdan toyib uxlab qolibdi. Xuddi shu payt xalifa Umarga g'oyibdan sas kelib: "Qabristonga borib bir miqdor pul bilan u yerdagi inson ko'nglini xursand qil", – debdi.

Umar qabristondan izlab topgani qari bir aysh-ishratparas cholg'uchi bo'lgani uchun bir muddat o'ylanib qoldi va uni turg'izibdi: "Senga Olloh salomi bo'lsin. Bilishimcha, juda qiynalibsan, mana buni ishlat, tugasa yana mening yonimga kelarsan".

Bu so'zlarni eshitgan keksa sozanda uyalganidan o'zini qo'yarga joy topolmabdi va qo'lidagi sozini sindirib tashlabdi.

Haq umr bermishki, bir kun himmatin,
Ul bilur bas, o'zga bilmas qiymatin.

Bir ko'za suv

Cho'lda faqir bir sahroyi xotini bilan birga yashar edi. Bir kuni xotini: "Barcha kambag'allik va jafoni biz chekyapmiz, boshqalar umrini rohatda o'tkazmoqda. Faqat biz faqirmiz. Yeyishga nonimiz yo'q. Kunduzi kiyimimiz quyosh, oy nuri esa kechasi ko'rpa to'shagimiz. Oyni non deb o'ylab osmonga intilamiz. Bizning holimiz bundan buyon qanday kechadi?" – deb dardini so'ylabdi.

Sahroyi: "Ey xotin, qachongacha dunyo molini istab yurasan? O'zi qancha molimiz bor. Aqlli inson boylikka ruju qo'ymaydi. Yoshligingda anchayin qanoatli eding, endi esa boylikka hirs qo'yding, oltin istaysan, holbuki, o'zing oltin kabi eding. Senga nima bo'ldi?" – debdi. Xotini bu gaplarga quloq osmas, iddaosi kuchayib borardi. "Ey nomusdan boshqani bilmagan! Sening nasihatimiz so'zlaringdan to'ydim. Undan ko'ra ahvolimizdan uyalgin. Menga qanoatni o'rgatyapsan, qancha paytdan beri shu hol yana davom etadi, axir?! Sen qachongacha qanoat ila jon saqlamoqchisan? O'zinga kel va bu holdan voz kech!" – debdi.

Sahroyi: "Sen xotinmisan, balomisan? Men kambag'alligim bilan faxrlanaman. Boshimni ko'p qotirma. Mol-mulk boshdagi kuloh

singaridir. Kuloh kiygan kaldir...boyning barcha ayblari moli bilan yopiladi. Kambag'allik sen aytganday narsa emas, unga past nazar bilan qaramagin. Mening birovga hasadim yo'q, qalbimda qanoat deb ataluvchi bir bebaho olam bor. Ey xotin! Noshukurlikni, shikoyat va janjalni bas qil, hech bo'lmasa meni o'yla. Men yaxshi bilan ham, yomon bilan ham janjal qilmayman, janjal bilan ishim yo'q. Urush u yoqda tursin, yuragim tinchlikdan ham qo'rqyapti. Jim bo'lsang, jim bo'lding, bo'lmasa hozir uyni tashlab, bu erdan bosh olib ketaman", – debdi.

Xotin erining g'azabini ko'rgach, yig'lay boshlabdi. O'zini go'yo pushaymondek ko'rsatibdi va shunday debdi: "Men sening oyog'ing tuprog'iman. Jismim, jonim senikidir, hukm ham senda, farmon ham...Kambag'allik sabab sabrim tugab nolisam ham, o'zim uchun emas, sen uchun noliyman. Sen yomon kunlarda dardimga davo bo'lding. Muhtoj bo'lishingni xohlamayman. Faqat sen men haqimda yomon fikrlarga borma. Mana, insofga keldim. Qalb va ko'ngil hukmiga bo'yin egaman...".

Sahroyi: "Ne qilay, senga tanbeh berdim xotin, seni sevaman va sendan ajralishni istamayman", – dedi. Xotin fursatni boy bermay: "Rostdan meni sevasanmi? Yoki...". "Xudo haqqi, seni sevaman" – dedi. "U holda senga bir tilagim bor. Bag'dod shahrida bir xalifa yashaydi. Undan yordam so'rashing mumkin. Iqbol sohiblarining do'stligini qozonganlar iqbolga erishadilar. Shuning uchun sen ham Bag'dodga bor, u podshohni top!" –debdi xotin.

Sahroyi: "Yaxshi, lekin men bechora, faqir bir sahroyiman. U buyuk sulton huzuriga qanday boraman. Buning uchun biror sabab kerak, sababsiz ziyorat bo'lmaydi". Xotin eriga shunday nasihat berdi: "Ko'zamizda tiniq yomg'ir suvi bor. Bor molu mulkimiz ham shu. Shu ko'zani ol, borib podshohlar sardorining huzuriga kir, sovg'ani taqdim et. Aytginki: "Bizning bundan boshqa mulkimiz yo'q, cho'ldan bundan ham yaxshisi topilmas... podshohimizning xazinalari bo'lsa ham, bunday suvi yo'q. Bunday suv kam topiladi".

Bechora xotin Bag'dodning o'rtasidan Dajla daryosining oqib o'tishini qayerdan bilsin, bundan bexabar o'z ko'zasidagi suvini maqtardi. "Kimning bundan-da ortiq sovg'asi bo'lishi mumkin?! Chindan ham bizning ko'zamizdagi tiniq yomg'ir suvi faqat podshohlarga loyiq...", – debdi.

Sahroyi ko'zasining og'zini mahkam bog'labdi. Saharlab Bag'dodga yo'l oldi-yu, ko'zani sinmasin, o'g'rilar o'g'irlamasin deb

kecha-kunduz ko'z qarachig'iday asrabdi. Kunlar, xaftalar o'tib, Bag'dodga etib kelibdi. So'rab- surishtirib xalifa saroyini topibdi va eshik oldidagi soqchilarga maqsadini aytibdi: "Ey yuzlaridan ulug' nishonasi porlagan! Ey podsholar sardorining axloqi bilan bezangan kishilari! Men g'arib bir sahroyiman. Podshohga lutf ilinjida sahrodan keldim. Bu sovg'ani sultonga olib boring, podshoxdan lutf tilaganning ehtiyojini qondiring. Bu totli va lazmatli suv...ko'zam ham chiroyli va yap-yangi...".

Xalifaning odamlari bu sof, toza yurakli sahroyi ustidan oldin kulmoqchi bo'lishibdi, keyin pok niyatli kishining sovg'asini jon deb qabul qilishibdi. Sahroyi saroyning ortida shildirab oqqan Dajladan hamon bexabar ekan.

Sahroyining bir ko'za suvi xalifaga olib borilgandan so'ng, xalifa bundan juda mamnun bo'libdi, uni huzuriga chorlabdi. Ko'nglini olibdi, yangi kiyimlar kiydiribdi. So'ng odamlariga: "Ko'zani oltin bilan to'ldirib bering, qaytayotganida uni kema bilan Dajladan olib o'ting. U cho'l yo'lidan kelibdi. Dajla yo'li yurtiga ancha yaqin, bu yerdan mamlakatiga qaytsin...", – deya amr berdi.

Sahroyi kemaga chiqqach, Dajlani ko'rib lol qolibdi. Asl hayrati esa suvi mo'l-ko'l Dajla daryosi bo'la turib, xalifaning cho'l suvidan yig'ilgan bir ko'za suvni qabul qilgani bo'libdi va Allohga shukrlar qilibdi.

Tilshunos va qayiqchi

Bir kuni mag'rur tilshunos sohilda turgan qayiqqa minib qarshi tomonga o'tmoqchi bo'libdi. Qayiqqa mingach qayiqchiga qarab: "Sen hayotingda nahvni o'qidingmi?" – debdi. "Yo'q, men oddiy bir qayiqchiman", – debdi. "Bay-bay, bu gapingga juda xafa bo'ldim. Demak umringning yarmi bekorga ketibdi-ya", – deya qayiqchiga achinib qarabdi tilshunos.

Qayiqchi bu dag'al va tomdan tarasha tushganday gapdan xafa bo'lib qayiqchiga biron so'z demabdi. Ittifoqo, xuddi shu payt to'fon ko'tarilibdi. Qayiq dengiz o'rtasida chayqalar, qayiqchi bor kuchi bilan halokatdan qutulishga harakat qilar ekan. To'fon borgan sayin kuchayar, qayiq cho'kish arafasida ekan. Shunda qayiqchi ro'parasida qo'rquvdan dir-dir titrayotgan olimdan: "Xoy bilimdon do'stim. Aytchi, suzishni bilasanmi?" – deya so'radi. "Yo'q" degan javobni olgan qayiqchi dedi: "Bay-bay, sen butun umringni bekor o'tkazibsən. Hozir umring zoye ketadi. Chunki birozdan so'ng qayig'imiz cho'kadi. Bilib

qo'y, hozir bu yerda nahv ilmi emas, mahv ilmi qo'l keladi. Agar mahv ilmini bilsang, xotirjam o'zingni dengizga ot!" – debdi.

Vujudiga igna bilan rasm soldirgan odam

Qazvinliklardan biri vujudiga arslon suratini soldirmoqchi bo'libdi va igna bilan rasm soluvchiga boribdi: "Usta, menga rasm sol, biroq jonim og'rimasin!" – debdi. Igna bilan rasm soluvchi usta so'rabdi: "Qanaqa rasm solishimni istaysan?" "Muchalim arslon. Shuning uchun arslon rasmini chiz, qara, og'ritmagin, yaxshi chiqsin", – debdi Qazvinlik.

Usta: "Rasmni tanangning qayeriga chizay?" – debdi. "Ikki yelkam orasiga", – debdi mijoz.

Usta ignalarni olib ishga kirishibdi. Mijozining joni og'rib baqira boshlabdi: "Xoy usta, meni o'ldirmoqchimisani?" "Axir, o'zing arslon rasmini sol, deding-ku!" Mijoz: "Qayeridan boshlading?" Usta: "Dumidan", – debdi.

Mijoz: "Xudo xayringni bergur, usta, qo'y, shu arslon dumsiz bo'la qolsin. Og'riqdan jonim bo'g'zimga keldi," – debdi.

Mijozning bu iltimosidan so'ng usta arslonning boshqa bir joyining rasmini chizish uchun igna sancha boshladi. Ittifoqo, qazvinlik yana dod solib: "Endi arslonning qayerini chizyapsan?" – debdi. Usta: "Qulog'ini chizyapman", – debdi.

Mijoz: "Ustajon, shu arslon quloqsiz bo'la qolsin. Jonim yomon og'ridi", – debdi.

Endi usta arslonning boshqa bir a'zosini chizishga kirishibdi. "Bu safar qayerini chizmoqchi bo'lyapsan? – dedi jon og'rig'ida qazvinlik". Usta: "Azizim, hayvonning qornini chizishga harakat qilyapman".

Mijoz: "Igna sanchishni hozirroq bas qil, og'riqqa chidolmayapman. Shu arslonning qorni bo'lmasa, nima ham bo'lardi?" – debdi. Qazvinlik mijozning bu gaplaridan jahli chiqqan usta ignalarni yerga otib: "Xudoyim menga to'zim ber. Bu boshimga tushgan azob hech kimning boshiga tushmagandir. Hech zamonda, dumsiz, boshsiz, quloqsiz va gavdasiz arslon bo'ladimi?! Bunday arslonni kim ko'ribdi?" – deb, dod solibdi.

Menu biz

Bo'ri bilan tulki sher panohida ovga chiqishibdi. Uchovlon ne mashaqqatlar bilan ho'kiz, echki, quyon tutishibdi. Bo'ri bilan tulki bu

ovqatlarni ko'rib sherning himmatidan xomtama bo'lishibdi. Sher buni kuzatib ularni imtihon qilmoqchi bo'lib bo'rini chaqiribdi: "Xo'ja bo'ri, kelib adolat bilan ovlagan o'ljalimizni bo'ling qani", – debdi. "Ey shohim, sizning hissangiz ho'kiz, mening hissam echki, tulkining hissasi quyondir", – debdi bo'ri.

Bu javobni eshitgan sherning jahli chiqib bo'rining boshini uzib tashlabdi. Navbat tulkiga etganda, Tulki: "Shohim ho'kiz nonushtangiz, echki tushligingiz, quyonni shom paytida tanovvul qiling", – debdi.

Sher: "Tulkivoy bunday adolatni kimdan o'rganding", – debdi. Tulki unga javoban: "Bo'rining ahvolidan!" – debdi. Sher javobni eshitib unga hamma o'ljalarni topshirib: "Biz turganda menu, senga ne hojat", – debdi.

Mehmon

Bir kishi do'stining uyiga mehmonlikka kelibdi. Eshikni qoqibdi. Ichkaridan "Kim?" degan ovoz kelibdi. "Men", – debdi mehmon. Mezbon javobni eshitib: "Bor senday xom odamga bu yerda joy yo'q", – debdi.

Mehmon kuyib pishib, yana do'stining eshigini taqillatibdi. "Kim?" – degan ovozni eshitib: "Men o'zingman, ey do'stim", – debdi mehmon. Shunda eshik ochilib: "Agar sen men bo'lsang uyga kir, chunki bu uyda ikkita menga joy yo'q", – debdi mezbon.

Ikki ip bir ignadan o'tmaydi chin,
Bitta ip ersang agar, o't ignadin.

Karning bemor ziyorati

Bir kar odam qo'shnisi kasal bo'lganidan xabar topibdi va o'zicha shunday o'ylabdi: "Qo'shnimni borib ko'rib, undan hol-ahvol so'rashim lozim. Ammo men kar man, qulog'im eshitmaydi, u esa kasal - ovozi chiqmaydi. Darvoqe kasaldan so'raladigan savollar ham, olijanob javoblar ham ma'lum. Men: "Qandaysiz?" deyman, u: "Yaxshiman, rahmat", deydi. "Nimalar yeyapsiz?" deb so'rayman, albatta, biror ovqat nomini aytadi. Men: "Osh bo'lsin", deyman. "Qaysi tabiblar kelyapti?" degan savolimga ham biror ismni aytib javob beradi. Men: "Yaxshi tabib", deyman vassalom". Kar kasalning yoniga borib bosh tomoniga o'tiribdi va: "Qandaysiz, qo'shniyon?" – deya hol-ahvol so'ray boshlabdi. Kasal ingrab: "O'lyapman!" – deya javob bergach, kar: "Oh-oh, juda xursand bo'ldim", – debdi.

“Bu nimasi, men o’laman, desam, bu kulaman, deydi?!” – deya bemorning jahli chiqibdi. Kar yana so’rabdi: “Nima yeyapsiz?” – desa, kasal: “Zahar!” – debdi bemor jahl bilan. Kar biror ovqat nomi deb gumon etibdi: “Osh bo’lsin!.. Kasalning toqati toq bo’libdi. Kar: “Davolashga qaysi tabiblar kelyapti?” – desa, kasal: “Qani, yo’qol bu yerdan! Azroil kelyapti!” – deya tutoqibdi bechora kasal.

Kar: “Juda bilimli, tajribali tabib u...Inshoolloh yaqinda bir chorasini topadi”, – debdi. Kasal: “Yo’qo-o-ol!” –deya baqiribdi.

Kar esa qo’shnicilik haqqini ado etganidan mamnun bo’lib chiqibdi.

Ko’ngil oynasi

Sulton saroyida xitoy rassomlari: “Biz turk rassomlaridan ancha ilg’or va mohirmiz”, – deb iddao qildilar. Bunga javoban turk rassomlari: “Yo’q, biz ulardan ustunroqmiz. Bizning san’atimiz yuksak”, – deb bu da’voga qarshi chiqdilar. Bu bahsdan xabar topgan sulton rassomlarni imtihon qilishga qaror qildi.

“Har ikki mamlakat rassomlari tayyorlansin, bir-biriga qaragan ikki xonaga chiqarilsinlar!”

Xitoy rassomlari o’zlariga berilgan xona devorlarini turli rangli rasmlar bilan bezabdilar. Turk rassomlari esa Xitoy rassomlari qarshisidagi o’z xonalarining devorlarini faqat jilolab, oyna kabi yaltiratibdilar.

Sulton oldin Xitoy rassomlarining xonasiga kirib, ularning san’atiga lol qolibdi. Keyin turk rassomlarining xonasiga tashrif buyuribdi. Ular xonani oyna misoli yaltiratganliklari tufayli xitoyliklar chizgan rasmlar aksi yanada yorqin jilolanib o’z aksini ko’rsatar edi. Bundan hayratlangan Sulton turk rassomlarini taqdirlagan ekan.

Imtihon

Xo’ja hukmidagi qullar bog’dagi mevalarni terib, yeb qo’yishibdi. Xo’jaga meva kerak bo’lib qolibdi. Shunda u qullaridan mevani so’ragan ekan, ular: “Mevani Luqmon ismli qul yeb qo’ydi”, – deb Luqmonga tuhmat qilishibdi. Xo’ja Luqmonga g’azab bilan qaragan ekan, Luqmon: “Shohim, bizni issiq suv ichirtirib, choptirib imtihon qiling, shunda hammasi ayon bo’ladi”, – debdi. Xo’ja shunday qilgan ekan, hamma qullar ko’ngillari aynib qusgan ekanlar ichlaridan mevalar chiqibdi. Luqmonning qusganidan esa yolg’iz suv chiqibdi.

IKKINCHI KITOB

Xayoldagi hilol

Ro'za oyi boshlanishi bilan xaloyiq oqshom cho'kkan mahal tog' boshiga chiqib oyni qidirishibdi. Bir kishi debdi: "Ana qaranglar, hilol chiqibdi". Xaloyiq qidirar ekan-u, ammo yangi chiqqan oyni topisholmabdi va u kishiga: "Qo'lingni ho'llab, qoshlaringga surtib ko'r, qani yana yangi oyni osmondan topa olasanmi?" U shunday qilgan ekan, osmonda hilol chiqmaganligini anglabdi va xaloyiq unga:

Dedikim, qoshing qili bo'lmish kamon,
O'q otib, boshingga keltirmish gumon.

Ilonchi voqeasi

Bir o'g'ri ilonchining ilonini o'g'irlab, qilgan ishidan shodon edi. Ilon esa u nodonni zaharlab o'ldiribdi. Ilonchi o'g'rilatgan ilonini tanib o'zining joni omon qolganidan: "Ming shukur, ilonim topilishi haqida qilgan duolarim samarasiz ketib, jonim omon qoldi", – debdi.

Isoning hamrohi

Isoga yo'lda bir kishi yo'ldosh bo'libdi. Ketayotib ular bir chuqurda ustaxon ko'rishibdi. U kishi Isoga qarab: "Ustaxonga jon ato qiling va bu hunaringizni menga ham o'rgating toki men ham ustaxonlarga jon ato qilay", – debdi.

Iso: "Bu sen o'rganadigan ish emas. Kimning qancha umri bo'lsa o'shani ko'radi", – debdi. Yo'ldoshi qistayvergandan keyin, Iso ustaxonga jon ato etibdi. Ustaxondan bahaybat sher uyg'onib yo'lovchini bosib, yanchib qo'yibdi.

Qismati tirnoqcha, lek hirsu tog',
Tangri oldida yuzi yo'qdir, biroq.

Darvesh va muttaham xizmatchi

Bir darvesh sayohatga chiqibdi. Aylanib borib darveshlar xonaqosida qo'noq bo'libdi.

Uning eshagini xizmatchilar og'ilxonaga bog'lashibdi, darveshni xonaqoning to'riga o'tqazishibdi. Maroqli suhbat qurishib, dasturxon yig'ilibdi. Darveshning esiga birdaniga zahmatkash eshagi kelibdi va xizmatchiga eshagini yaxshi parvarish qilib, unga yem berishini

aytibdi. Xizmatchi: ““La havla”, bu nima deganingiz. Albatta bu mening vazifam, parvarish ham qilaman, arpa ham beraman”, – dedi.

Darvesh, ko’ngli to’lmay qayta: “Aybga buyurma eshaginga yaxshi qara”, – debdi. Xizmatchi: “La havla”¹ eshagingizga yaxshilab qarayman”, – debdi.

Xizmatchi shunday lof urib eshakning yaqiniga ham bormabdi. Eshak och nahor, tashnalikdan sillasi qurib tong orttiribdi. Yo’l yurib juda charchagan darvesh uxlab qolibdi, har safar tushida eshagi goh chohga, goh o’pqonga tushar darvesh esa u mehribon xodim qani deya qidirar ekan. Qo’rqqanidan uyg’onib ketibdi, tushi ekanini ko’rib, badgumonlik, shubha yomon narsa deb yana uyquga ketibdi. Ertalab darvesh yo’lga otlanmoqchi bo’lib, xizmatchidan eshagini olib kelishini buyuribdi. Xizmatchi og’ilxonaga kirib eshakni bir tepib o’rnidan turg’azibdi va egasiga eltib beribdi.

Darvesh eshakka zo’rg’a minib yo’lga tushibdi. Eshak dovdirab zo’rg’a qadam bosardi. Yo’lni yarmiga kelib munkillab qolibdi, bir necha kishi uni turg’azishga yordamlashibdi va hammasi eshakni uyon-buyonini ko’rib uni kasalga chiqaribdi. Darvesh buni ko’rib: “Eshagim “la havla” egan, shuning uchun yo’l yurishga ojizlik qilyapti”, – debdi.

Podsho va uning lochini

Un elab turgan kampirning yoniga lochin qushi kelib qo’nibdi. Buni ko’rgan kampir uni ushlab olib: “Kim senga bunchalar rahmsizlik qildi, patlaring bunchalar pahmoq, tirnoqlaring uzun?” – deb uning patlarini yulibdi, tirnog’ini olib lochinni qafasga tiqib qo’yibdi. Kecha-yu kunduz o’tib, kampir uyiga nogahonda shoh kelib qolibdi. Lochin qushini tutun, chang ichida ko’rib: “Bizga vafo qilmading, endi holing shu”, – debdi.

Qoldi jannat, bo’ldi do’zax ixtiyor,
Bilmading ne ahli gul, ne ahli nor?

Holva

Javonmardlikda mashhur, nomdor bir shayx bo’lgan ekan. Ming-minglab qarz olib, uni faqirlarga sarf etar ekan. Qarz olib, molu, jonini tikib xonaqohlar qurar ekan. Xullas, shu shayx bedavo dardga

¹ Xotirjam bo’ling.

chalinibdi. Qarz berganlar jam bo'lishib shayxning huzuriga kelishib, ma'yus, karaxt, dillari dardga to'la holda shayxga qarab qolishibdi. Shayx: "Yomon xayollarga borib o'zingizni qiynamang. Tangrimga to'rt yuz dinor topilmas ekanmi", – debdi. Shu payt ko'chada bir bola "Holva" deb qichqirib yurgan ekan. Shayx xodimiga ishora etib: "Bor barcha holvalarni xarid qil, toki qarz berganlar holva yeb menga achchiq boqmasin, uyimdan "shirin" deb ketsin", – debdi.

Xizmatkor shu payt tashqariga chiqib boladan holvaning narxini so'rabdi. "Yarim dinor berib hammasini oling", – debdi bola.

Xizmatkor xolvani mehmonlarning oldiga qo'yibdi. To tabaq bo'shaguncha bola turibdi va yarim dinorni olib ketmoqchi bo'libdi.

Shayx unga qarab: "Men o'zim qarzga botganman, senga yarim dinorni qayerdan topib beray", – debdi. Bola bo'sh tabaqni yerga otib yig'labdi: "Nega men shu yerga keldim? Ustozimga nima deyman? U meni o'ldiradi-ku", – debdi. Bola shomgacha yig'labdi, unga hech kim yarim dinor bermabdi. Bir vaqt qo'lida tabaq bilan xizmatchi uyga kirib kelibdi.

Shayxga yuzlanib: "Mol hol sohibi bo'lmish bir kishi, sizning saxiyligingizni eshitiib, sovg'a yuboribdi. Sovg'ada to'rt yuz dinor va qog'ozda yarim dinor ham bor ekan", – debdi.

Buni ko'rgan mehmonlar oh-voh chekib shayxga yuzlandilar: "Bu ne sir-sinoat?" – deb so'radilar. Shayx ularga: "Sizdan olgan dinorlarni halol yo'lda ishlatdim. Holvafurush bola yig'lamaganda edi, xudoning rahmati yog'ilmas edi", – debdi.

So'qir ko'zlar

Bir zohid do'stiga: "Ko'p yig'lama, ko'r bo'lib qolasan", – debdi. Do'sti: "Xaqni ko'rolmaydigan ko'zlarim ko'r bo'lsa mayli", – debdi.

Nodonlik

Bir dehqon ho'kizini oxurga kiritib qo'yibdi. Arslon ho'kizni yeb, uning o'rniga yotibdi. Kechqurun ho'kizidan xabar olishga kelgan dehqon ho'kiz o'rniga arsloni silab-siypalar ekan.

Uncha nodonkim, silab-siypar meni,
Shermanu xo'kiz gumon aylar meni.

Eshak ketdi

Bir kun so'fi tunab o'tmoq uchun bir xonaqoga to'xtadi. Eshagini og'ilga bog'lab, unga yem-xashak berdi, silab-siypaladi uni

xizmatchiga topshirdi. Xonaqodagi bir to'lda so'fi ochliklari ustun kelib, mehmonning eshagini sotdilar. Bazmu jamshid qildilar ularga qo'shilib mehmon ham yedi ichdi, bir vaqt kuy boshlandi: "Eshak yo'qoldi! Voy, eshak!". Ularga qo'shilib mehmon ham jo'r bo'ldi.

Erta tong yo'lga ravona bo'ladigan so'fi xizmatkordan eshagini so'radi: "Eshak qani, senga topshirgan edim-ku?" – dedi. "Bu gapni o'zingizdan so'rang", – debdi xizmatchi.

So'fi: "Bahsni qo'y men eshakni senga omonat qilib topshirgan edim", – debdi. "Men ojiz edim, so'filar ko'p edi eshakni olib eltib sotishdi", – debdi xizmatchi.

So'fi: "Mayli shunday ekan, sen nimaga shu hamono menga yetkazmading", – debdi so'fi. Xizmatchi: "Kelib aytmoqchi bo'ldim, har safar kelganimda, ularga qo'shilib "Eshak yo'qoldi! Voy, eshak!" deb kuylar edingiz. Bu voqealardan xo'jayinning xabari bor ekan, deb o'yladim", – debdi.

Bir muflis kishi

Bir muflis kishi zindonband qilingan ekan. Nafsi ko'p yomon, g'ayrli, noinsof kishi ekan. Qoziga zindon ahli shikoyat qilib chiqishibdi: "Bir muflis bor yonimizda, u bizga ozor yetkazmoqda. Kimning qo'lida non ko'rsa, olmasa qo'ymaydi. Kim nima yesa, albatta u bilan sherik bo'ladi", – deyishibdi.

Qozi muflisni chaqirib: "Sendan hamma qochadi, sendan qutulishni istayapti, butun mahkama sening pastkashu qashshoqligingga guvoh bermoqda", – debdi.

Muflis: "Meni zindondan xalos etmang, men faqirlikda o'lib ketaman", – debdi. Qozi: "Uni shaharda aylantirib, muflisligi haqida hammani ogohlantiring", – debdi. Jarchilar shahar aylantirib, uning muflisligini hammaga jar solib, unga qarz bermasliklarini, unga aldanib qolsalar, muflisni zindonband etmasliklarini, uning bo'htonlariga uchmasliklarini aytib chiqishibdi.

Kechki paytgacha muflisning barchaga kimligini jar solibdilar. Muflis kishi aravadan tushib ketayotganida aravakash: "Ey muflis, manzilimiz uzoq edi, kun bo'yi aravamda aylanding, mayli arpa berma ozgina somon ber", – debdi. "Kimligim osmongacha etib bordi, sen tamagirliking tufaydi bexabar qolibsanda", – debdi muflis.

“Agar...”li uy¹

Bir odam uy izlayotgan edi, do'stlaridan biri uni o'z mahallasidagi vayrona uyga olib bordi. Do'sti: “Agar bu uyning shifti bo'lsa, menga qo'shni bo'lib yashar eding. Agar biror xonasi bo'lsa, bola-chaqang bilan osoyishta yasharding”, – deya uzoq vaqt “agar” deb suhbatlashdi.

“Ha, do'stlarga qo'shni bo'lib yaqin uyda yashamoq yaxshi, Faqat “Agar” deb yashash bilan hech narsaga erishib bo'lmaydi-da”, – dedi uyga talabgor kishi.

Mardum malomati

Bir kishi tuhmat bilan onasini o'ldirib qo'yibdi. Onangni qanday o'ldirishga jazm etding, onalik haqqini esdan chiqaribsan, moldan ham battar ishni qilibsan. Onangni xoru-zor etib o'ldiribsan, u senga nima qildi, – deb so'rashibdi. “Uning aybini tuproqdan boshqa narsa yopolmaydi, u ko'p yomon ishlar qildi”, – debdi o'g'il. “Uning hamrohini o'ldir edi”, – debdi mardum. “Xar kun bittasini o'ldirardim. Men xalq qonini to'kmaslik uchun uning jonini oldim”, – debdi o'g'il. “Sen avval nafsingni o'ldir edi. Endi nafsing uchun bir aziz joniga qasd qilasanmi?” – debdi mardum.

Odamiy pinhon erur til ostida

Podsho ikkita qul sotib olibdi. Biri bilan bir ozgina suhbatlashibdi. U xushsurat, xushmuomala ziyrak ekan. Uni bir joyga yuborib, ikkinchi qul bilan suhbatlashmoqchi bo'libdi. U badaft, badbo'y ekan. Shoh jirkanganidan uzoqroqdan turib, qulni savolga tutibdi: “Sheriging qanaqa odam?” – debdi. “U javonmard, shirin so'z, saxiy, mehribon”, – deb ta'riflabdi. “Buncha maqtading, agar imtihon qilsam-u, u imtihondan o'tolmasa-chi?” – debdi shoh.

Qul so'ziga qat'iy turib, uning yaxshi inson ekanligini ta'kidlabdi. Birinchi qul qaytganidan so'ng, shohga do'sti u haqida nima so'zlaganini so'rabdi. “U sen haqingda xufya dardga chalingan dedi”, – debdi shoh.

Buni eshitgan qul, jahli chiqib, do'stini yomonlab ketibdi. Shoh uni: “Sizlarni imtihon qilgan edim. Uning og'zi badbo'y bo'lsa, sening qalbing badbo'y ekan”, – debdi.

¹ Masal

Chanqagan kishi

Suvning atrofi bir baland devor bilan o'ralgan ekan. Bir tashna kishi kelib, devor ustiga turib, suvga termulibdi. Suvga bir g'isht otgan ekan nogahon, suv ovozi "shalop" etib chiqibdi. Xursandligidan birin-ketin suvga g'ishtlarni ota boshlabdi. Suv dod urib so'rabdi: "Ey birodar menga tosh otyapsan, biror foyda ko'ryapsanmi?!". Chanqagan kishi: "Foydasi bor, sening ovozing meni jonlantiryapti. Har safar bir g'isht qo'porib, suvga otganimda, devor pastlashib, senga yaqinlashyapman", – debdi.

Do'stlik

Avliyo Zununi Misriy jinniligi oshavergandan uni zindonga solibdilar. Muridlar: "Shunday avliyosifat inson jinni emas, o'zini jinnilikka solib o'tiribdi", – deyishibdi. Buni eshitib do'stlari, Zununni ko'rgani borishibdi. Zunun: "Kimsizlar?!" – deb baqiribdi. "Biz do'stlaring, sening holingdan xabar olishga keldik. Siri dilingni bizga och, seni faqat biz tushunamiz", – deyishibdi.

U devonalarcha so'kib turib, ularga qarata tosh otibdi. Buni ko'rgan do'stlari har tarafga qochishibdi. Shunda Zunun: "Bir tosh zarbidan qochsangiz, meni siri dilimni qanday ko'tarib bilazis?" – deb ularni ortidan baqiribdi.

Xo'jasi va Luqmon

Bir Shayxning Luqmon degan quli bo'lgan ekan. U, unga farzandidan ham azizroq ekan. Podsho bir kun shayxdan so'rabdi: "Sen buncha bu qulingni maqtaysan, uni ko'klarga ko'tarasan?" – debdi.

Shayx Luqmonni chaqirib, bir tilim qovun kesib beribdi. Luqmon yegandan keyin: "Shakardan ham shirin", – debdi. Shayx unga qovunlarni yedirar ekan, bir tilim qolganda "Bir yeb ko'ray-chi o'zim, haqiqatan ham shunchalar shirinmikan" – deb qovunni tishlagan ekan uning achchigligidan ko'ngli behuzur bo'libdi. "Sen nimaga bu zaharni yeb bir og'iz ham bildirmading?" – debdi Shayx. "Bu ne'matli qo'lingizdan totli taomlar ko'p yedim, bir marotaba achchiq yebman, ofat emas-ku, uni shirin deb qabul qildim", – debdi Luqmon.

Maqtanchoq faylasuf

Bir kishi Qur'on oyatlarini o'qib, Oyati Ma'kumni takrorlardi. Unda aytilishicha, "Buloqni quritaman, suvni pinhon tutaman.

Chashmalarni qum bilan to'ldiraman", – deb, Alloh tomonidan keltirilgan ekan. Buni faylasuf o'qib, bepisand boqibdi. "Ketmon, belkurak, oybolta bilan, jahdu–jadal bilan suvni ochamiz-da", – debdi.

Uxlagan ekan, uyqusida bir bahaybat sher bir urib ikki ko'zini ojiz qilib qo'yibdi. Ertasiga uyg'onsa, ikki ko'zi ojiz ekan. Tavba qilib, tangridan ko'zining nurlarini qaytarishni so'rabdi.

Cho'pon va hazrat Muso

Hazrat Muso yo'lda bir cho'ponga duch keldilar. Cho'pon mayin, xiyla baland ovozda bunday deb gapirardi: "Ey karam sohibi Robbim! Qayerdasan? Senga qul ham qurbon bo'lay! Chorig'ingni tikay, sochingni taray, kiyimingni yuvay...Ey buyuk Robbim, senga yangi sut tortiq qilay. Hamma echkilarim senga qurbon bo'lsin!" Hazrat Muso so'radilar: "Kim bilan gaplashyapsan?"

"Yeru ko'kni yaratgan Alloh bilan!" – deb javob berdi cho'pon. Muso alayhissalom cho'ponga tanbeh berdilar: "Bu qilganlaring noto'g'ri! Axir Alloh inson emas–ku, u bilan bunday tarzda gaplashsang!..".

Cho'ponning ko'ziga dunyo qorong'u bo'lib ketdi. Nima qilarini bilmay, boshini olib cho'llarga tomon yugurib ketdi. Ittifoqo, bir pasdan so'ng hazrat Musoga Alloh taolodan shunday xitob keldi: "Ey Muso, sening vazifang insonlarni Bizdan uzoqlashtirishmi yoki Bizga yaqinlashtirishmi? Nega u sof bandamizni Bizdan ayrding? Biz so'zga, tilga boqmaymiz, ko'ngilga va holga qaraymiz".

Hazrat Muso cho'lga ravona bo'lib, cho'ponni topdilar va unga xushxabarni etkazdilar. Xohlaganicha rabbiga xitob qilishi mumkinligini ma'lum qildilar.

Og'ziga ilon kirgan kimsa

Bir amir ketayotib daraxt tagida uxlab yotgan bir kishini ko'ribdi. Uning og'ziga ilon o'rmalab kirayotgan ekan. Amir ilonni olishga ulgurmad va u kishini uyg'otib urusha boshlabdi. Achigan olmalarni yeyishga majbur etibdi. Urusha-urusha uni ko'p yugurtiribdi. Bu holdan ko'ngli behuzur bo'lgan kishi bir qusgan ekan og'zidan qora ilon chiqib ketibdi. U hayratlanib qarab qolganda, amir bo'lgan voqeani u kishiga tushuntiribdi. U kishi amirga katta rahmat debdi.

Kongil ko'zi

Bir ko'zi ojiz tilanchi: “Menga ikki ko'rlik bor. Biri ko'zim ko'r bo'lsa, ikkinchi ko'rlik bu ovozim xunukligida. Shuning uchun menga hech kim sadaqa bermaydi”, – deb ko'ngil ovozi aytib yurar ekan.

Tilanchi noxush ko'ngil ovozi tufayli o'zida uch karra ko'rlik borligidan bexabar ekan.

Ahmoqning sevgisi

O'rmonda ayiqni katta bir bo'g'ma ilon bo'g'ar, belidan o'rab olib siqardi. Ayiq esa jon holatda baqirardi. Shu payt o'tib ketayotgan o'tinchi ayiq holini ko'rdi va tezlik bilan qilichini chiqarib, ilonni ikkiga bo'lib tashladi. Shunday qilib, o'tinchi ayiqni o'limdan qutqarib qoldi.

Ayiq endi o'tinchining orqasidan qolmas, o'ziga qilingan yaxshilikka javoban o'tinchi bilan do'st bo'lishni, unga xizmat qilishni istardi. O'tinchi ayiqqa necha marta orqasidan yurmaslikni aytsa ham, ayiq ahddidan voz kechmas, sodiq bir itdek uyining eshigi oldida uni kutardi. Buni ko'rgan qo'ni-qo'shni o'tinchiga: “Ey baraka topgur, ayiqning do'stligiga ishonib bo'lmaydi. Ahmoqning do'stligi dushmanlikdan battardir. Hamjinslaring qolib, ayiqqa ishonma. Uni daf qil, ketsin...”, – dedilar. O'tinchi o'zicha: “Meni ayiqdan qizg'anishyapti, mening baquvvat yordamchim borligiga hasad qilishyapti. Har holda, bir-birlari bilan kelishib olib, ayiqdan meni sovutmoqchi bular”, – deya o'ylab ularning gaplariga quloq solmabdi.

O'tinchi bir kuni ayiq bilan birga o'rmonga o'tin kesishga ketibdi. Biroz ishlagach, o'tinchi dam olish uchun daraxt soyasiga yotibdi. Ayiq uning yonida qo'riqchilik qila boshlabdi. Bir mahal xira pashsha kelib o'tinchining yuziga qo'nibdi. Ayiq do'stiga yaxshilik qilish uchun pashshani quvlabdi, lekin pashsha o'tinchining yuziga qayta qo'nibdi, ayiq uni yana quvlabdi. Pashsha havoda bir doira chizib uchgandan so'ng yana o'tinchining yuziga qo'nibdi. Ayiq qancha urinmasin pashsha o'tinchidan aslo uzoqlashmabdi. Ayiqning jahli chiqibdi. “Pashshani o'ldirishdan boshqa chora yo'q”, deb o'ylabdi va yugurib borib kattakon bir toshni olib, pashshani o'ldirish uchun bor kuchi bilan o'tinchining yuziga otibdi. Tosh o'tinchining yuzini majaqlab tashlabdi...

Jolinusning qo'rquvga tushgani

Jolinus do'stiga falon dorini menga taxlab ber debdi. Do'sti hayratlanib: “Birodar bu jinni, devonalarning dorisi-ku. Sen sog'lom-ku, buni ichish mumkin emas”, – debdi. Shunda Jolinus: “Men jinni bo'lmasam, bir jinni kelib, menga uzoq tikilib, bir musht tushurib, kiyimlarimni yirtib ketarmidi? Demak u meni o'ziga o'xshatgan”, – debdi.

Dono bog'bon

Bog'bon bog'iga uchta o'g'ri kirganini ko'rib qoldi. Bularning biri xalqqa fatvo beradigan faqih, ikkinchisi payg'ambar avlodidan ekanini aytuvchi bir zot, uchinchisi esa shayxga ko'p yillar murid bo'lgan so'fi edi. Bog'bon o'zicha o'yladi: “Hozir bularni tutib eplab bo'lmaydi, kuch birlikda. Yaxshisi, bu uchlikni tarqatib, ularni alohida-alohida jazolash lozim”. Shu niyatda ularga jimgina yaqinlashdi. Bog'iga xush kelganlarini aytdi, so'ngra so'figa: “Mening uyim shu yaqin atrofda. Malol kelmasa, biror bir sholcha olib kel, daraxtning tagiga to'shab o'tiraylik”, – deb iltimos qildi.

So'fi ketgach, faqih bilan sharifga qarab: “Sizlar ulug' insonlarsiz. Biringiz fatvo bilan yo'l ko'rsatasiz, yana biringiz bilan faxrlanamiz. Bu mechkay, xasis so'fi kim bo'libdiki, sizdek buyuk zotlar bilan hamtovoq bo'lsa? Uni kelishi bilan daf qiling, qayerga ketsa ketsin. Sizlar esa bog'imda eng aziz mehmonlarim bo'lib yeb-ichasizlar”, – dedi.

Bu taklif ularga ma'qul keldi. So'fini: “Ket bu yerdan, sen bilan do'st bo'lishni istamaymiz”, deb haydashdi. So'fi uzoqlashgach, bog'bon uni tutib oldi va: “Hoy, sen ko'ppak! Bog'imga kirishga qanday jur'at etding, senga bu yo'lni shayx ko'rsatdimi? “ – deya uni rosa do'pposladi.

Bog'bon qaytib kelib sharif kishiga: “Aziz do'stim. Hoynahoy ochqagandirsan. Senga kichkina bir xizmat, mening uyimga bor. Xizmatkorimga ayt, yupqa non bilan qazi bersin. Olib kelsang, uchchalamiz qorinni to'ydiramiz”, – dedi. Og'zidan so'lagi oqqan sharif bog'bonning uyiga ravona bo'ldi. Bu orada bog'bon faqihga: “Mana bu sharif deganingiz bema'ni odam. O'zini payg'ambar avlodidan deb da'vo qiladi. Onasi qanday ayol bo'lgan, kim biladi? Sen aqlli, bilimli, ko'pni ko'rgan odam bo'lsang, qanday qilib oldingda olib yuribsang?” – deyishi bilan faqihning ichida bir qurt

o'rmaladi. Sharif kelar-kelmas bog'bon so'ka boshladi: "Hoy yolg'onchi, bu boqqa seni kim chaqirdi? O'g'rilik senga kimdan me'ros qolgan? Arslon bolasi, arslonga o'xshar. Qani menga ayt-chi, sen payg'ambarga qaysi tomon bilan o'xshaysan? – dedi va yana bir qancha achchiq gaplarni aytdi. Uni oldiga solib haydadi.

Bog'bonning istagani bo'ldi faqih yolg'iz qoldi. U tayoqni qo'liga oldi va: "Ey noshud faqih! Sening fatvong boqqa ruxsatsiz kirishmi? Buni qaysi huquq kitobida, qaysi qonunda o'qiding? –deb faqixni ura boshladi.

Bog'bon gapirib urar, urib gapirar edi. Bechora faqih boshiga har tayoq tushganda: "Ur, uraver, fursat g'animat...Do'stlaridan voz kechganning kuni shu, haqqi esa tayoqdir. Ur..", – deya ingrardi.

Dalhaqning fikri

Bir kishi Dalhaqdan so'radi: "Nimaga xulqi buzuq xotin olding? Aytganingda oqila, mastura xotin topib berardik". Shunda Dalhaq: "To'qqizta mastura, oqila xotin oldim. Hammasining xulqi buzildi? Bir xulqi buzuq xotin oldim, oqibatini nima bo'lishini bilmoq uchun", – debdi.

Aql o'rgandim, base yechdim tugun,
Endi shul olamda istarmen junun.

O'zini telba ko'rsatgan oqil

Bir kimsaning: "Aqlli odam izlayapman, muammo chiqib qoldi. Undan maslahat olmoqchi edim", – deb so'rayotganini eshitib, odamlar unga: "Bizning shaharda o'zini telbalikka solib yurgan bir kishi bor. Tayoqni ot qilib minadi, bolalar bilan o'ynaydi. Eng oqil odam shu. U telba qiyofasiga kirgan oqil kishidir", – dedi. Bu gapni eshitgan haligi kishi o'sha shaharga ketibdi. So'rab-so'rab telbani topibdi: "Ey "ot" mingan odam. Bir daqiqa "ot"ingni buyoqqa hayda", – deb chaqirdi. Telba yugurib keldi: "Tezroq gapir! "Ot"im juda asov, tepadi!"

Haligi kimsa: "Uylanmoqchi edim. Qanday qizni tanlaganim ma'qul?" – debdi. Telba bunday dedi: "Dunyoda uch xil ayol bor. Biri dard, ikkinchisi mehnat, uchinchisi ziynat! Birinchisi butkul seniki. Ikkinchisining yarmi seniki, yarmi uniki. Uchinchisi senga tamoman begonadir, debdi. Endi qoch yo'limdan, otimni hurkitma", – debdi.

Haligi kimsa: “To’xta, shoshma, xudo xayringni bersin! Aytganlarinni to’g’ri tushuntir, bu turdagi ayollar kimlar”. “Biri bokira qiz, uni olsang u butkul seniki, ikkinchisi beva xotin yarmi uniki, uchinchisi begona ya’ni bolali ayol, xayoli sendamas, faqat farzandida”, – debdi telba.

Telba bularni aytgandan keyin “ot” ini niqtab bolalar orasiga ketayotgan edi. Haligi odam uni yana to’xtatib: “Ey ulug’ inson! Yana bir savolim bor. Javob ber so’ngra ketasan”, – debdi.

Telba: “Nima deysan? Vaqtim ziq. Do’stlarim bilan o’yinga kechikypman”, – debdi. “Bu qadar aql-farosat egasi ekansan. Nega o’zingni telbalikka solib yuribsan?” Qari olim shunday javob berdi: “Hokim meni shaharga qozi qilishga qaror berdi. Rad etdim, qabul qilmadilar. Sendan oqilrog’ini topa olmaymiz, dedilar. Shuning uchun o’zimni telba, devona qilib ko’rsatyapman. Qozilikdan ko’ra menga telba bo’lish afzalroq”.

Mast va muhtasib

Muhtasib kechqurun devor ostida yotgan bir mastni ko’rib unga: “Nima ichding? Bo’za emasmi?” – debdi. Mast esa: “Ko’zada nimaiki bor edi hammasini ichdim?” – debdi. Muhtasib: “Ko’zada nima bor edi?” – debdi. Mast esa: “Ko’zada sirli narsa bor edi”, – debdi. Muhtasib: “Gapni ko’paytirmasdan “Uh” degin qani”, – debdi. Mast: “Huv”? – der ekan. Muhtasibning jahli chiqib: ““Uh” degin “Huv” emas-ku”, – debdi. Mast bo’lsa: “ “Uh” ni dardi borlar aytadi. Men shodman “Huv” deyman-da ovsar”, – debdi. Muhtasib: “Gapni ko’paytirma yur zindonga”, – deb mastni qo’lidan tortibdi. Shunda mast: “Tort qo’lingni, aqling yetmaydi-mi, quvvatim bo’lganida uyimga borar edim”, – debdi.

Qozining shikoyati

Bir kishi qozilikka tayinlangandan keyin ha deb yig’lar ekan. Noib unga: “Xursand bo’lish o’rniga, nega yig’layapsan?” – debdi. Qozi: “Oh! Men qanday inson moliga yo joniga hukm chiqaray? Ikki aybdor bir-birining ishlaridan voqiflar, men o’rtada sho’rlik g’ofil” – deb yana yig’lar ekan. Noib: “Ko’p o’zingni qiynama. Yovlarda bilim bilan g’araz bor. Sen voqif bo’lmasang ham chiroqday sen. Senda g’araz yo’q, illat yo’q. Bular sening ko’z ravshanligingdir. Pora olmasang ko’zing yanada ravshanlashadi. Pora olsang ko’r bo’lib

yurasan. Sen o'sha nafsu havoni haydab bilsang, ta'magirlik qilmasang ko'ngling senga nima rost nima yolg'onligini aytadi", – debdi.

Ehson

Bir kishi namozga kechikib, shoshib kelar ekan, hamma masjid eshigidan chiqayotganini ko'rib: "Nimaga chiqyapsizlar?" – debdi. "Hamma bir-biriga salom berib namoz tugadi", – debdi.

Kechikkan odam ulgurmaganidan oh tortibdi. Bir kishi uning yoniga kelib: "Birodar xafa bo'lmang, namozimni oling, menga ohingizni bering", – debdi. U kishi: "Ohimni berdim, namozingni oldim", – debdi. Namozini bergan kishi kechasi tushida jamoada uning olgan ohi ham namoz o'rnida qabul bo'lganini ko'ribdi.

O'g'rining sherigi

Bir kishining uyiga o'g'ri tushibdi. U o'g'rini tutib olgan ekan, bir kishining ovozi: "Mana o'g'ri, o'g'rini ushlanglar", degan ovozini eshitib qo'lidagi o'g'rini qo'yib yuboribdi. "Qani o'g'ri", – deb so'rasa. "Ana oyoq izlari", – debdi baqirgan kishi. "Men o'g'rini o'zini tutgan edim, sen izini topib uni qutqarib qolding yoki sen u o'g'rining sherigi edingmi?" – deb afsuslanib qolibdi.

Namozda gaplashgan hindlar

To'rt musulmon hinda masjidida namoz o'qiy boshladi. Ittifoqo, ichkariga muazzin kirdi, ibodat mahali gaplashish, o'ngga-chapga qarash namoz qoidalariga to'g'ri kelmasligini aytdi. Ammo ulardan biri yonidagi do'stidan so'radi: "Ajabo muazzin azon aytdimi yoki hali namozga vaqt bormi?" – do'sti namoz o'qib turib o'zini tutolmay javob berdi: "Jim bo'l, namozda gaplashilmaydi! Namozing buziladi". Uchinchi hind ikkinchisiga tanbeh berdi: "Nega gapga aralashasan? Aslida o'zingga qara. Sen ham gapirding, sening ham namozing buzildi".

To'rtinchisi luqma tashladi: "Hammalaringni namozlaring buzildi. Xudoga shukrki, men jim turdim". Aslida to'rttalasining namozi buzilgan edi.

Qariyaning shikoyati

Qari bir odam tabibga kelib, shikoyatlarini ayta boshladi. Tabib bemorning tomir urishini tekshirdi, isitmasini o'lchadi, yurak urishini

eshitdi. Birozdan so'ng bemordan: "Nima bo'ldi?" deb so'radi. "Oh, so'ramang tabib! Xotiram pasaygan", – dedi qariya. "Aslida tashvishlanadigan hech gap yo'q, qarilikdan", – dedi tabib. "Ko'zim oldi qorong'ulashadi, ba'zan esa ko'rmay qolaman", – dedi qariya. "U ham hech narsa emas, qarilikdan", – dedi tabib.

Qariya: "Oh, tabib, yegan taomim hazm bo'lmayapti", – dedi. Tabib: "Oshqozon kuchsizligi ham qarilikdan", – dedi. "Ba'zan nafasim siqiladi. Bu ham qarilikdanmi?" – dedi qariya. "Ha, bu ham qarilikdan! Inson qarigani sari yuz xil dardi, shikoyati bo'ladi". Bemorning jahli chiqibdi: "Qanaqa tabibsan? Boshqa gaping yo'qmi? Senga faqat shuni o'rgatishganmi? Alloh har bir dardga darmon bergan, shuni bilmaysanmi? Hayf senga!"

Tabib ohista bir tarzda javob beribdi: "Ey yoshi o'tgan, ishi bitgan inson, bu jahldorlik bilan qahr-g'azab ham qarilikdandir..."

Juxo va uning otasi

Mahallada bir odam qazo qilibdi, jasaki tobutga solinib, mozorga olib ketilarkan, tobutning orqasidan bir bola ham yig'lab, ham baqirib: "Otajonim! Sizni qayerga olib ketishyapti? Sizni tuproqqa ko'mmoqchilar. Oh otajonim! U yer shunday qorong'u va tor bir joyki, u yerda na nur, na deraza, na sholcha, na bir burda non bor...Hatto, ovqat hidi ham yo'q..."

Bolaning bu xayqirishlarini shu yerda turgan Juxo¹ eshitib otasiga: "Otajon, qarang, marhumni bizning uyga olib kelishyapti", – dedi. Shunda otasi Juxoga: "Ey nodon, nega edi biznikiga olib borishadi?" – deb so'radi. "Otajon, eshiting, bola nima deyapti? Marhumni shunday bir joyga olib ketishyaptiki, u yerda na sholcha, na nur, na taom va na deraza...Hech narsa yo'q. Axir bu bizning uy bo'lmasdan qayer?" – dedi Juxo.

Bir ovchi qissasi

Bir suvoriy o'rmon tomonga ot surib kelardi. Ovchi buni ko'rib, necha taxmin qilib, qo'rqqanidan o'q bilan kamonni shaylabdi. Suvoriy bu holni ko'rib faryod chekib: "O'q otma! Mening gavdam ulug', o'zim zaifman. Jang qilishga ham arzimayman", – debdi.

¹ Arablarning Nasriddin afandisi.

Ovchi: “Yaxshiyamki meni to’xtatding. Balki qo’rqqanimdan otib qo’yarmidim?!” – debdi.

Necha erlar borki, topgaylar fano,
Er emaslar chunki jang, maydon aro.

Tuyakash va faylasuf

Bir badaviy tuyasiga ikki qopni yuklab, o’zi ham ustiga minib olibdi. Yo’lda parishon bir faylasufni uchratibdi. Faylasuf gap orasida badaviydan so’rabdi: “Tuyaning ustidagi qoplarda nima bor?” Badaviy: “Birisida to’la bug’doy, birisida qum”, – deb javob beribdi. Faylasuf: “Nega qum to’ldirding?” – debdi. Badaviy: “U qop bo’sh qolmasin. Tuyaning ustida muvozanatni saqlash uchun”, – deb javob beribdi.

Faylasuf badaviyga: “Aqlingni ishlatib bu bug’doyning yarmini bu qopga, boshqa yarmini esa u tarafdagi qopga qo’ysang, ham tuyaning yuki engillashardi, ham qoplaring”, – dedi. Badaviyga bu fikr ma’qul tushibdi: “To’g’ri o’ylamagan ekanman...”, – deb shunday qilibdi.

Badaviy turib-turib bu darajadagi aqlli odamga qiziqib qolibdi. Qanday qilib bu aqlli odam shunday parishon holda yuribdi ekan, deb o’ylabdi va qiziqishini yashirmay so’rabdi: “Ey aqlli odam, senda shuncha aql, shuncha fikr bor ekan, nega yayov yurib o’zingni charchatyapsan? Bu aqling bilan sen yo sulton, yo vazirsan. To’g’risini ayt, kim san?” Faylasuf javob berdi: “Ikkisi ham emasman, oddiy bir odamman”. Badaviy yana so’radi: “Qancha tuya, qancha ho’kizing bor?” Faylasuf: “Hech qancha”, – debdi. Badaviy: “Yaxshi, do’kondagi mollar-chi? Undan gapir”? – debdi. Faylasuf: “Mening na do’konim, na yerim, na yurtim bor. Men faylasufman” – deb javob beribdi. Badaviy: “U holda qancha puling bor?”

Faylasuf: “Pul u yoqda tursin, hatto non olishga bir chaqam ham yo’q. Yalang oyoq, bosh panasizman. Bu qadar hikmat va ilmdan faqat xayol va bosh og’rig’ini topdim”, – deb javob bergan ekan, Badaviyning bu gaplardan jahli chiqib: “Yo’qol, ket bu yerdan. Sening ilming, nasihating menga ham zarar keltiradi, boshimni og’ritadi. Sen shu yo’ldan ket, men bu yo’ldan. Bir qopimda bug’doy boshqasida qum bo’lishi sening hikmatingdan, foydasiz va keraksiz falsafangdan yaxshiroqdir”, – deb yo’lini davom etibdi.

Bir begunaning shayxga bo'hton aylagani

Bittasi shayx borasida bo'hton qilib: “U yomon, hech ham bizlarni to'g'ri yo'lga boshlamaydi”, – debdi. Buni eshitgan shogirdi u odamni urishib: “Birovga tuhmat qilishdan qo'rqmaysanmi?” - debdi. Begona kimsa: “Ishonmasang shayxingni tunda borib ko'r, u maydan sarmast bo'lib yotadi”, - debdi.

Shogirdi tunda shayxning uyiga borsa haqiqatdan ham shayxning qo'lida may ekan. Bu qanday hol deb hayratlanib shayxdan so'rabdi. Shayx muridga may olib kelishni buyurib, mayxonaga yuboribdi. Murid mayxonada may o'rnida bol, asallar bilan limmo-lim ko'zalarni ko'ribdi va bu yerda maydan asar ham yo'qligini ko'rib hayratlanibdi. Bo'htonchi begona kishi uyalganidan, shayxdan uzur so'rab: “Sening shuhrating mayni asalga aylantirishga qodir, mening yomonligimni ham aritib yaxshilikka qarat”, – deb yig'labdi.

Bir sichqon tuyani arqonidan tortib o'z-o'ziga mag'rur bo'lgani

Bir sichqon tuyaning arqonidan mahkam ushlab, yo'lga ravona bo'libdi. Orqasiga ergashib, tuyaning kelayotganini ko'rgan sichqon o'zini sher kabi tasavvur qilibdi. Buni ko'rgan tuya: “Shoshma bir senga maqtanchoqlik qanday bo'lishini ko'rsatib qo'yay”, – debdi va yo'lini suv tomonga buribdi. Sichqon: “Shoshma men suvga cho'kaman-ku. Suv tizzamcha keladi”, – debdi. “Cho'kmaysan, kel suvdan o'tamiz”, – debdi tuya. “Tizza bilan tizzaning farqi bor. Suv sening tizzangcha kelsa, mening boshimdan yuz quloch balandda bo'ladi”, – debdi sichqon. “Unday bo'lsa, kattalikni o'zingga o'xshaganlarga qil”, – debdi tuya.

Kemada tuhmatga uchragan bir darvesh karomati

Kema ichida bir kishining zar to'la hamyoni yo'qolganda hammani tintib chiqibdilar. Navbat kema chetida uxlab yotgan darveshga kelibdi. Hamyon sohibi darveshni uyg'otib: “Hamyonim yo'qoldi, sendan boshqa hammani ko'rib bo'ldik, endi navbat senga keldi. Dilimdagi andisha gumonni tarqatish uchun narsalaringni yechgin”, – debdi. Shu payt darvesh: “Yo rabbim bu insonning quruq tuhmatiga farmoniningni ber”, – degan ekan. Dengizdagi jamiki baliqlar har birining og'zida duru gavhar bilan suv ustiga qalqib chiqishibdi. Darvesh baliqlarni og'zidan bir necha durni olib, yerga

otibdi va havoda kursiga o'tirgandek o'tirib olibdi. Kema ahli bu holdan hayratlanib: "Bunday maqomga qanday erishding?" - deya savol berishibdi. Darvesh shunday javob bergan ekan:

Bir faqirga, dedi, tuhmat etmadim,
Haqqa bir ozoru minnat etmadim.

So'fiylar shayxga odobsiz so'fiy ustidan shikoyat qilishgani

So'fiylar shayx huzuriga kelib bir so'fiy ustidan arzdod qilishib: "Undan bizni qutqar", - deyishibdi. "Aybi nimada?" - debdi shayx. "Uning uchta nomaqbul qilig'i bor. Bir so'z boshlasa chakagi tinmaydi, bir osh yesa laganlab to'ymaydi, bir uxlasa o'likday qotadi", - deyishibdi. Shayx bularni eshitib, odobsiz so'figa yuzlanib: "Har bir ishda o'rtacha yo'lni, mo'tadillikni tanla. Me'yor buzilsa insoniylik ham qolmaydi", - debdi.

Hayot daraxti

Bir yurtning podshosi Hindistonda bir daraxt bor ekan, uning mevasidan totgan inson yosh bo'lib, hech ham o'lasmish, qarilik nimaligini bilmasmish, degan mish-mishlarni eshitibdi. Podshoh o'z devonidan bir insonni tanlab, Hindistondan hayot daraxtini topib kelishni buyuribdi. U odam Hindistonga borib, hayot daraxtinii qidirishga tushibdi. Uning holini ko'rgan odamlar biri uni devona desa, biri esa maqtar ekan. Yillar mobaynida harakatlari zoe ketibdi, hayot daraxtining daragini topolmabdi va o'z yurtiga ravona bo'libdi. Podsho saroyiga kirishdan oldin yo'lovchi ustozining yoniga kirib, unga ko'rgan kechirganlarini aytib beribdi. Ustozi shogirdini tinglab tabassum qilib: "Ey shogird, sen narsaning suratiga yanglishib, aldanibsan, uning ma'nosiga boqmabsan-da. U daraxtning nomi donish va bilim", - debdi. Donish va bilim:

Goh daraxt derlar uni, goh oftob,
Gohi dengiz bo'ldi nomi, goh sahob.
O'zi bir, mahsuli ming bir marhabo,
Kamtarin osori ham umri baqo.

Uzum

Turli shaharlardan kelib qolgan to'rt kishi - fors, turk, yunon va arab ittifoqo, bozor yonidagi chorrahada uchrashib qoladilar. Bir olijanob kishi ularga bir dirham sadaqa qilib o'tib ketadi. Dirham

o'rtada, chunki unda har birining haqqi bor. Bu pulga biror yegulik sotib olmoqchi bo'ladilar. Shunda fors – angur, turk – uzum, yunon – istofil, arab – inab yemoqchiligini aytadi. Orada janjal ko'tariladi. To'rtalalari ham ayni bir narsa – uzumni xohlayotgan bo'lsalarda, bir-birining tillarini tushunmaganlari uchun yoqa bo'g'ishib ketadilar.

Tovuq ostida tuxum yorgan o'rdakchalar qissasi

Tovuq o'rdakning tuxumlarini parvarishlab, doyalik qilibdi. O'rdakchalar dunyoga kelib, katta bo'lishibdi. Bir kun tovuq suv yonidan o'rdakchalarni olib o'tayotganda ular suvga sho'ng'ib suzib ketishibdi. Sohilda esa bechora ona tovuq bolalarining cho'kib ketishlaridan qo'rqib uyoqdan-buyoqqa borib dod solar ekan.

UCHINCHI KITOB

Fil qissasi

Hindistonda bir donishmand och nahor ovqat qidirib yurgan odamlar to'dasiga duch kelibdi. Ularga rahmi kelib: "Ochlik dardi yomon, qorin to'ydirish uchun maysa, yaproq yeb qanoat qiling, aslo fil bolasiga tegmang. Chunki fil bolasini hididan taniydi," – deb nasihat qilibdi. Och-nahor odamlar nasihatni tinglab, yo'llarini davom etishibdi va yo'lda fil bolasini ko'rib qolishibdi. Ochlik g'olib chiqib, donishmandning nasihatiga ham esdan chiqib, fil bolasiga tashlanishibdi va kabob qilib yeyishibdi. Oralarida bittasi nasihatni eslab ularga qo'shilmabdi, kabobga ham qaramabdi. Qorni to'ygan to'da uxlab qolibdi, qorni och odamning esa uyqusi etmabdi. Tun yarmiga kelganda qarasaki, bir bahaybat fil boshining ustiga turib uni hidlayapti. Fil uni uch-to'rt marta hidlagandan keyin, boshqa uxlagan odamlarni ham hidlabdi, ularning og'zidan bolasinning hidini tanib, hammasini o'ldiribdi.

Bir qishloqlik shaharlikni mehmonga chaqirib aldagani

Bir qishloqlik do'stinikiga shaharga mehmon bo'lib kelar ekan. Har safar uning non tuzini yeb: "Endi bizning ham uyga mehmon bo'lsang, men ham seni mehmon qilay. Mening oilam sening oilangni kutishyapti", – deb do'stini qishlog'iga mehmon bo'lib borishga undar ekan. Har safar do'sti: "Ishlarim ko'p, keyingi mavsumda albatta mehmon bo'laman", – der ekan.

Bir kuni shaharlikning farzandlari: "Ota, do'stingiz har safar mehmonlikka chaqiradi. Keling xafa bo'lmasin, biz ham u kishining uyida mehmon bo'laylik", – deb otalarini ko'ndirishibdi va bola-chaqa, xotin-xalajlarini olib yo'lga ravona bo'lishibdi.

Mehmonlar bir oy tinmay yo'l yurib, oxiri qishloqqa yetib kelishibdi. Mezbbon esa ularni tanimaganga olib, eshigiga kulf solibdi. Mehmonlar mezbbon eshigi yoniga besh kun sarson-sargardon bo'lishibdi va oxiri shaharlik uy sohibini chaqirib: "Ey birodar men sening shaharlik do'stingman. Shuncha suframdan taom yeb endi tanimaganga olyapsanmi", – debdi. Mezbbon esa: "Sen pokmisan, nopokmisan qayerdan bilay?" – debdi.

Mehmonning jahli chiqib: “Meni kechir, yaxshiligimni minnat qilmayman. Oilamga rahming kelsin. Ular yomg’irda qolishdi. Bir kechaga boshpana ber. Ertaga biz yo’lga ravona bo’lamiz”, – debdi.

Mezbon: “Bir kavak bor, u yerda bo’rilarni dastidan tinchlik yo’q, xizmatkorim u yerda bo’rilarni poylab posbonlik qiladi.” – debdi. Mehmon: “Menga o’q-yoy ber o’sha vazifani o’zim bajaraman”, – debdi. Mehmonning oilasi g’orda chivin, burgalarga yem bo’lishibdi. Ular bunga parvo qilmay bo’rini poylashibdi. Tun yarmida bir qora sharpa ko’ringanda mehmon nayzani otibdi va sharpa erga yiqilibdi. Shu payt mezbon chapak chalib: “Voy dod, eshagimni o’ldirding”, – deb dod solibdi. Mehmon: “U sening eshagingmas, bo’ri edi”, – debdi. Mezbon: “Bu bo’ri emas, eshagim. Chunki men uning yelidan taniyman”, – debdi. Shu payt mehmon mezbonning yoqasidan ushlab: “Kuppa-kunduzi qadrdon do’stingni tanimadingu, tunda eshagingni yelidan tanidingmi”, – debdi.

Laylining posboni

Majnun bir irkit itni silab, quchib, o’par edi. Odamlar unga: “Itning irkit betini o’pma, u haromxo’r”, – deyishibdi. Shunda Majnun: “Siz nimani ham tushunasiz, axir bu Layli eshigining posboni-ku” – debdi.

Shoqolning tovuslik da’vo etgani

Bir shoqol bo’yoqchining xumiga tushib, junlari turli ranglarga bo’yanibdi. Bu ranglar oftobda turli xil tovlanar ekan. Shoqollar sheriklariga: “Buncha bezanibsan, buncha kibru havoga minibsan?” – deyishibdi. Shoqol bo’lsa: “Men shoqol emasman, men tovusman”, – debdi. Shoqollar hayratlanib: “Tovus bo’lsang tovusday jilvagar bo’l”, – debdilar. Shoqol bajara olmasligidan: “Yo’q!” – debdi. Shoqollar: “Bo’lmasa tovusdek qichqirib ber”, – deyishibdi. Bu vazifani ham “tovus” bajara olmabdi. Unda shoqollar:

“Xil’ati tovusni bergay osmon,
Rangu da’vo birla olmog’ing gumon”, – deyishibdi.

Lofchining jazosi

Bir lofchi po’st dumba topib olib, har kun mo’yloviga surtib, do’stlariga u narsa yedim, bu narsa yedim deb maqtanar ekan. Bir kun mushuk po’st dumbani olib qochibdi va lofchi tang ahvolda qolibdi.

Muzlagan ajdaho voqeasi

Bir ilonchi sovuq havoda tog'dan bir o'lgan ajdarni olib kelibdi. Odamlardan pul yig'ish maqsadida ajdarni uyining shiftiga bog'lab qo'yibdi va odamlarga uni juda mashaqqat bilan qo'lga kiritganini hikoya qilib beribdi. Bir vaqt quyosh nuri ajdahoning terisiga tegibdi. Sovuqda muzlab yotgan ajdaho, quyosh nurlaridan o'ziga kelibdi va qimirlay boshlabdi. Xalq qichqirib, har yonga chopa boshlabdi. Shunda ajdar arqonlarni uzib ilonchini yutibdi.

Filning shakli shamoyili

Hindlar bir filni yetaklab qorong'u xonaga olib kiribdilar. Uni ko'rish uchun kirgan odamlar xona qorong'uligi tufayli uni ko'ra olmabdilar. Filga har kim qo'l cho'zib, kaftini filning ustiga surardi. Biri fil xartumini ushlab, uni tarnovga o'xshatibdi. Biri fil qulog'ini ushlab, uni bahaybat elpig'ichga o'xshatibdi. Biri esa, yo'q siz aytganday emas fil faqat ustunga o'xshar, debdi. Biri esa fil ustini siypab, u xontaxtaga o'xshaydi, debdi. Kim filning qayerini silagan bo'lsa, filni o'shanday tasavvur etibdi. Shu sababdan so'zlaridan tafovut kelib chiqibdi.

Har birining ilkida bo'lsaydi sham,
Ixtilof bo'lmasdi zohir zarra ham.
His so'zi kaftdirkim, timiskilaydi bas,
Kaft necha siypaydi, lekin qamramas.

Hayratning bahsga monelik qilgani

Bir kishining sochi soqoli o'sib, sartaroshning oldiga kelibdi-da: "Men yangi uylangan kuyovman, qorasiga tegmay, oq tuklarimni yulib ol", – debdi. Shunda sartarosh u kishining soqolini qirib oldiga qo'yibdi va: "Oq tuklaringni ajratib ol", – debdi. Bu orada janjal ko'tarilibdi, sartarosh u kishining kal boshiga bir musht tushirgan ekan, sharaq etib tovush chiqibdi. Shu payt musht yegan odam sartaroshga tashlanaman, deb tursa, sartarosh: "To'xta avval savolingga javob ber, keyin menga musht tushir. Hozirgi musht tushirganimdagi ovoz mening qo'limdan chiqdimi yoki sening boshingdanmi", – debdi. U kishi: "Boshimning og'rig'idan o'ylashga choram yo'q, sening boshingda og'riq yo'q, savolingga javobni o'zing o'yla?" – debdi.

Vahimaga tushgan ustoz

Maktab talabalari ustozlaridan bezor bo'lishibdi, ko'p o'qish, yozish, uy vazifalari ularni juda charchatib qo'yibdi. Ko'chada o'ynashni istashibdi. Bir chorasini o'ylashibdi. Nima qilib bo'lsa ham, ma'lum vaqt ustozni maktabdan uzoqlashtirishga qaror qilishibdi. Oralaridagi eng kichkina, ammo ziyrak o'quvchi shunday debdi: "O'rtoqlar, o'qituvchimizni hech qayeri kasal emas. Qani endi bir necha hafta xastalansa-yu, biz dam olsak. Qanday bo'lmasin ustozni kasal qilish kerak". Do'stlari unga: "Qanday qilib soppa-sog' odam kasal bo'lishi mumkin?" – debdilar. Haligi bola: "Bo'ladi. Men bir hiyla o'yladim. Ertaga dars boshlangandan so'ng sinfga birinchi kirgan bola ustozimizga: "Ustoz, tinchlikmi? Yuzingiz muncha so'lg'in, sarg'ayibdi, beholmisiz? Alloh shifo bersin", deb aytadi. Qolganlar ham uning gapini takrorlaydi. Ustoz bu gapdan vahimaga tusha boshlaydi", – debdi.

Talabalar o'zaro maslahat qilishibdi va ertasi kun ertalabdan sinfga ilk kirgan o'quvchi: "Tinchlikmi ustoz? Alloh shifo bersin. Yuzingiz sap-sariq. Mazangiz yo'qmi?" – debdi. Ustoz: "Valdirama, kasal emasman, bor joyingga o'tir", – deb qo'rslik bilan javob beribdi.

Sinfga kirgan ikki-uch o'quvchi ham ustoziga kasal bo'lib qolganligi haqida hayratlanib so'rashibdi. Ustozni vahima bosibdi. O'z-o'ziga: "Xotininimning aqli joyida emas, yuzimning so'lganligini, vujudimning titraganini qayerdan ham bilsin. Uning dardi men emas. O'ziga oro berishdan boshqa narsani o'ylamaydi", – deb xafa bo'libdi va tuzalgunicha talabalarga bir necha hafta javob beribdi.

Ul haqdakim, tan ruhning libosi, qo'l ruhning yengi, oyoq ruh oyog'ining etagidir

Sen bilarsen, ruhga tan ermish libos,
Bor, libos kiyganni ko'rgil ro'y-rost.
Tavhidi Alloh kelur jonlarga xush,
Zohir ermas qo'l-oyoqlar bor emish.
Ba'zida uyquda zohir bo'lsa ul,
Rost bil, behuda yolg'on bilmagil.
Bas, badankim bebadan ersa, hamon,
Qo'rqmagil, bir kun badandin chiqsa jon.

Darvesh hikoyati

Bir darvesh tog'da xilvat tutibdi. Tog'da mevali daraxtlarning turfa xillaridan bor ekan. Darvesh daraxtlardan meva yemay, biror kishiga oshkor yoki pinhon shu daraxtlarni silkitgin, demay, shamol to'kkan mevalardan yeb qanoat qilaman, deb Xudoga ahd qilibdi. Bir qancha vaqt darvesh ahdiga vafo qilib yashabdi. Kunlardan bir kun shamol esishdan to'xtabdi, darveshning toqati toq bo'libdi. Bir butoqda bir to'da mevalarga havasi ketgan darvesh mevalarga qo'lini cho'zmoqchi bo'libdi, ahdini eslab yana nafsini tiyibdi. Beshinchi kun deganda shamol qo'zg'alibdi, butoqdagi mevalar darvesh tomonga egilibdi, toqati toq bo'lgan darvish mevalarni uzib yeya boshlabdi va o'z ahdini paymol etibdi. Shu payt Haqning jazosi etib, darvesh qazo qilibdi.

Ibtidoda intihoni ko'rgan zargar qissasi

Bir kishi zargarining oldiga kelib: “Zarimni o'lchashga tarozingni berib tur”, – debdi. Shunda zargar: “Mening do'konimda g'alvir yo'q”, – debdi. Haligi kishi: “G'alvirmas, tarozu so'rayapman”, – debdi. Zargar esa: “Menga supurgi ham topilmaydi”, – debdi. Haligi kishining jahli chiqib: “Men sendan tarozi so'radim, nimaga o'zingni ovsarlikka solasan”, – debdi. Zargar: “Kar emasman birodar, so'zingni angladim. Qo'llaring titrashi, jisming nogironligidan, keksa ekansan angladim. Zar degani, u tosh emas, qum zarrasidan iborat. Qo'llaring titragan payt sochilib ketishi mumkin. Shunda sen zar to'kildi, supurging bormi deb kelasan. So'ng xok-u zarni to'plab sen mendan g'alvir so'rab kelasan”, – debdi.

Ko'rdim oxirni men avvalda tamom,
Boshqa joydin so'r tarozu vassalom...

Nafsga bandi bo'lgan kishi

Bir boyvachcha, bor molu mulkini sanamlar deb sarf qilib, ayshu ishratga berilib, xonumonidan judo bo'libdi, do'sti dushmanga xoruzor bo'libdi. Bir kun ko'chada darveshni uchratib: “Meni bir duo qil, men bir safolatga uchradim borimdan ayrildim, yo'limdan adashdim. Meni duo qil bu botqoqlikdan xalos qil, avvalgi martabamga erishay”, – debdi. Shunda darvesh: “Sening qo'l oyog'ing bog'langan emas, sen bandi emassan yoki seni hech kim boshing ustida turmaydi, tergamaydi. Seni qaysi banddan, qaysi botqoqdan qutqaray.

Kishanlarni arralab kesib bo'ladi, zindonni ham buzsa bo'ladi, lekin sening banding oldida ne-ne temirchilar notavon", – debdi.

Qo'li chopilgan shayx voqeasi

Yigirma yoki undan ortiq o'g'rilar to'planib o'ljalarini bo'lishmoqchi bo'lishibdi. Xufiyalar ularni hokimga ogoh etishibdi, shu payt mirshablar ularni tutib, bog'lashibdi va o'g'rilik qilganlari uchun qo'l-oyoqlaridan judo qilinglar, deb farmon berilibdi. Adashib bir darveshning qo'lini ham kesishibdi. Shu payt bir otliq: "Nima qilyapsizlar, shoshmanglar, axir bu falon shayx-ku, nega qo'lini kesdinglar", – debdi. Shunda jallod ham qo'rqqanidan hokim oldiga yuguribdi. Hokim shayxni yoniga kelib: "Bilmay qoldik, bu Ollohning ishi", – deb uzr so'rab, oh uribdi. Shunda shayx: "Qismatimda shu yozilgan ekan, men qismatimga qarshi borolmayman", – debdi.

Bir kun bir kimsa shayxning uyiga boribdi. Qo'li kesilgan shayxning savat to'qib o'tirgannini ko'rib hayratdan qotib qolibdi. Shunda shayx: "Nega beso'roq birovning uyiga kirasan?" – debdi. Shunda haligi kishi: "Sizdan xabar olgani kelgan edim", – debdi. Shayx: "Ko'rganingni hech kimga so'ylama. Bu Ollohning inoyati", – debdi.

Xachir va tuya

Bir xachir tuyaga arz qilib qolibdi: "Nega sen hech qoqilmaysan. Men esa yurgan yo'limda xoh u nam bo'lsin, xoh quruq bo'lsin baribir qoqilaman. Sababini tushuntir, toki men ham yurgan yo'limda qoqilmay", – debdi. Shunda tuya: "Mening ko'zlarim ravshan, men yurgan yo'limga yuqoridan nazar solaman. Agar baland tog'-u toshlarga chiqmoqchi bo'lsam, avval uning pastu baland toshiga boqib keyin qadam tashlayman.

Sen esa, oldingni ko'rgaysen g'alat,
Domni ko'rmay, donni ko'rgaysen faqat", – debdi.

Bir shayx voqeasi

Ko'p yillar ilgari yerning osmondagi shu'lasini kabi, bir dono shayx o'tgan ekan. Kunlardan bir kun uning o'g'illari vafot etibdi. Hamma dod faryod urib yig'lasa, shayxning esa ko'zi hatto namlanmas ekan. Bundan ajablangan xalq: "Hurmatli shayx, biz senga ishonamiz, ergashamiz axir bu nima qilganing, o'g'illaring vafot etganu sen esa

qilt etmaysan. Senga bunchalar berahm, qattiq ko'ngil bo'lish yarashmaydi". Shunda shayx: "Do'stlarim meni ko'nli qattiq deb o'ylamang. Men hatto tosh otilgan itlarga achinaman, ularni duo qilib Xudoga yolvoraman, itlarni yomon fe'llaridan xalos et, ularga andisha ato et, deb. Men qanday yig'lay farzandlarim o'lishgan bo'lishsa ham ko'ngil ko'zimdan yo'qolishmagan, ko'z o'ngimda o'ynab yurishibdi. Yig'lab nima qilaman, ular bilan birga bo'lsam", – debdi.

His asri aqlu hushdir, ey falon,
Aqlu hush ruhingga tutqin begumon.
Jon aql ilkin ochib, darmon qilur,
Necha bir mushkulni ul oson qilur.

Umid

Bir kun bir shayx darveshnikiga mehmon bo'libdi va devolga olib qo'yilgan Mushafga ko'zi tushib: "Mezbonimning ko'zi ojiz bo'lsa, bu kitobni kim o'qir ekan", – deb hayratlanibdi. "Yo so'raymi", – deb o'ylabdi, keyin aqlini yig'ib olib "Sabr qilay qani biron sir ochilar?" – deb o'ylabdi.

Mehmon sabr etarkan, tunning yarmida bir kishining Qur'on tilovat qilayotganini ko'rib, sakrab turib: "Ey ajab, ko'rmaydigan ko'zlaring bilan sen qanday Qur'on tilovat qilyapsan?" – deb darveshga savol beribdi. Shunda darvesh: "Haqqa yolvordim, ey sohibi karam, men Qur'on o'qishni istayman. Ko'zlarimga nur bag'ishla toki men Qur'onni qiynalmay qiroat qilsam, deb yolvorgan edim. Hazratdan nido keldi: "Ey so'zlovchi, g'am-qayg'uga qolsang hamisha umid qilgin", – deb. Har qachon men Mushafni qiroat qilishni boshlaganimda, ko'zlarim nurga to'lib tun yorishadi va men birin-ketin harflarni o'qiy boshlayman", – debdi.

Sabr

Dovudning zanjirlardan halqa yasayotganini ko'rib turgan Luqmon ichida: "Nima qilar eka-na. Nima deb so'ray? Nima qilmoqchisan? – debmi yo'q sabar qilaychi, sabr maqsad yo'lida peshvo chiqib, manzilga eltadi", – debdi. So'ngra Dovud ishini bitirib sovutni qo'lga olibdi va sabr etib turgan Luqmon oldida kiyib ko'ribdi: "Mana jonni qilichdan asraydigan yaxshi libos", – debdi. Shunda Luqmon: "Eng yaxshi libos sabrdir", – debdi.

Haq yaratdi kimyolarning naqshini,
Ko'rmadi Odam sabrdin yaxshini.

Nafsiga qul bo'lgan kimsa voqeasi

Bir tanbal Allohga yolvorib ranj-zahmatsiz, halol rizq so'rar ekan. Nogahonda bir ho'kiz shoxlari bilan eshikni sindirib kirib kelibdi. Buni ko'rgan, nodon tanbal, ho'kizni boylab boshini kesibdi, terisini shilibdi va qassobni chaqirib kelishga boribdi. Uni ho'kizning egasi tutib olib: "Nega ho'kizimni o'marding, nega uni so'yding? Savolinga javob ber!" – debdi. Shunda tanbal: "Haqdan so'radim. Bu mening halol rizqim", – debdi. Haligi odam jahli chiqib, tanbalni Dovud (a.s.)ning oldiga sudrabdi va bo'lgan voqeani aytib beribdi. Uning so'zini olomon ham ma'qullabdi. Shunda Dovud (a.s.): "Nega birovlarning molini o'marasan", – debdi. Tanbal: "Men o'marganim yo'q, bu mening halol molim, Haqdan so'rab olganman", – debdi. Dovud (a.s.): "Behudaga lof urma. Bu musulmonning molini qaytarib ber", – debdi. Dovudning hukmini eshitib bechora Allohga yolvoribdi: "Dildagi borimni uning ko'ngliga ham nasib et", – debdi. Bu nolalarni eshitib Dovudning yuragi buzilibdi va: "Masalaning yechimini topishga menga muhlat beringlar", – debdi.

Dovud xilvatga kirib, namoz o'qib, Quron tilovat qilibdi va Haq unga asrorni ayon qilibdi. Ertasi kuni u raqiblarni chaqirib, ho'kiz egasiga: "Ho'kizdan voz kechib musulmonga ho'kizingni halol qil, haq siringni yopti shukur qil", – debdi. Buni eshitib ho'kiz egasi dod-voylashga tushibdi: "Haqiqat bormi o'zi!? Men uchun yangi shariat hukmimi bu?!" – debdi. Shunda Dovud: "Buncha dod-voylama, bor mol-bisotingni shu odamga bag'ishla", – debdi. Bu hukmni eshitib, ho'kiz egasi ustiga qum sepib, to'nini yirtibdi: "Bir bechoraga buncha zulm qilasan", – debdi. Dovud yana: "Sening nafsing ko'zingni ko'r qilibdi. Baxti qaro odam ekansan, adolat, shariat hukmi shu. Endi xotining, farzandlaring ham unga qul", – debdi. Ho'kiz egasi endi o'zini toshlar bilan uribdi, dodu faryod chekibdi. Buni ko'rib turgan xaloyiq: "Dovud biz senga ishonar edik, nega bir bechoraga zulm qilib, xato hukm chiqarasan", – deyishibdi.

Dovud bu gaplarni eshitib ho'kiz egasining sirini ochmoq uchun xalqni dalaga boshlabdi va dalada o'sib yotgan shoxalari ayqash, uyqash bo'lib o'sayotgan daraxtni ko'rsatibdi: "Bu daraxdan qon isi taraladi. Chunki bu nobakor o'z xo'jasi, bu bechora tanbalning otasini

o'ldirib shu yerga ko'mgan, uning mol-mulkini, xizmatkorlarini o'ziniki qilib olgan. Daraxt tagida esa bu nobakorning ismi bitilgan pichog'i ham bor kovlab olinglar", – deb buyruq beribdi. Xaloyiq daraxt tagidan pichoqni kovlab olishibdi va nobakorning jazosini berishibdi.

Iso (a.s.)ning ahmoqdan qochgani

Iso (a.s.) orqalaridan arslon quvgandek qochib borar ekanlar. Bir kishi bu holatni ko'rib hayron bo'libdi va: "Iso nimadan qochyapsan?" – debdi. Iso savolga javob ham bermabdilar. Haligi kishi Isoga qo'shilib chopar ekan. Charchaganidan: "Iso ortimizda hech qanaqa xavf yo'q-ku nimadan qochyapmiz?" – der ekan. Shunda Iso: "Ahmoqdan qochyapman, gapirib yo'limni to'sma", – debdi. "Nega qochasan axir? Sen emasmi, ko'r va karlarga najot beradigan?" "Men!" – debdi Iso yugura turib. "Sen emasmi jumla hayvonlarni o'zingga bo'ysundirgan?" "Men!" – debdi Iyso. "Sen emasmi, o'likka jon ato etgan?" "Ha men!" – debdi Iso. "Ismu a'zamni o'qib, kar va ko'rlarni tuzatdim, jumla hayvonlarni o'zimga bo'ysundirdim, o'likni tiriltirdim, lekin axmoqqa ming marta o'qisam ham aqli kirmaydi, qanday axmoq edi, shundayligicha qolyapti", – debdi.

Qoch alardin, bo'lma aslo suhbat,
Necha bor qon to'kdi, ahmoq suhbat.

Sabo ahli qissasi

Uzoqni ko'ruvchi ko'r, sezgir kar, uzun to'nli yalang'och o'g'rilardan qanday qochganliklari bayoni. Ko'r: "Qo'rqyapman, qo'shin kelyapti," – debdi. Qaysi qavmdan, son-hisobda qancha ekanligini ham aytibdi. Shunda kar: "Balli, qo'shinning so'zlarini eshiyapman," – debdi. Ular haqida so'ylab beribdi. Yalang'och esa: "Qo'rqyapman, ular uzun to'nim etagini qirqmasinlar yana", – debdi.

Kar – tilak, har dam qazoni tinglagay,
O'ziga kelgan ajalni bilmagay.
Hirs esa, ko'rdir, ko'rar xalq aybini,
Har qadamda bittalab so'ylar uni.
O'zida aybu qusurni ko'rmas ul,
O'zgin ayb izlamasdan turmas ul.
Ul yalang'och derki, yirtilgay to'ni,
Ul yalang'och ersa, kim yirtgay uni?

Bir quyon voqeasi¹

O'rmondagi chashmadan fillar suv ichishar ekan, boshqa hayvonlar esa, ularning dastidan suv icholmay tashna qolishar ekan. Shunda bir qari quyon yangi oy chiqqan kuni tepalikka chiqib fillarga qarab: "Men oydan elchi bo'lib keldim, elchiga o'lim yo'q". Oy: "Chashma bizning chashma, fillarga ayt buncha o'zlaridan ketishmasin, dedi". Ishonmasangiz oyning o'n to'rtinchi kun chashma yoniga keling, chashmada oy o'tirgan bo'ladi. Agar uni xafa qilsangiz, u larzaga keladi", – debdi quyon. Shunda kunlar o'tib, quyon aytgan sana kelibdi, fil boshi suv boshiga kelibdi, xartumini suvga solgan ekan, oy titrabdi. Fil bu holatni ko'rib, quyonning so'zlariga ishonibdi va qaytib bu chashmaga suv ichishga kelmabdi.

O'g'ri voqeasi

Bir kuni o'g'ri tun yarmida zo'r berib, devor teshar ekan. Uy sohibining toqati-toq bo'lib tashqariga chiqibdi: "Ey birodar, betobman boshim og'riyapti, buncha tunda urnab, nima qilyapsan", – debdi. Shunda o'g'ri: "Dovul chalyapman", – debdi. Uy egasi: "Dovulning ovozi eshitilmayapti-ku", – debdi. O'g'ri: "Dovulni ovozi ertaga eshitasan. Uning ovozi bong urib, ertaga qulog'ingga borib etadi", – debdi.

Itlarning ahdi

Qahraton qishda itlar sovuqdan qaltirab: "Yoz kelsa o'zimizga bir makon quramiz" – deb ahd qilar ekanlar. Qish ketib bahor, yoz kelganda, badablariga issiq yugurganda: "Uy qurib nima qildik, to'rt devor bizlarga torlik qiladi", – deb o'zlarini soyaga olib tanballik qilar ekanlar.

Amirning quli

Bir amir hammomga borgisi kelibdi va subhidamda qulini uyg'otib: "Tez bo'l, tosu lo'ngi olgin, hammomga boramiz", – debdi. So'nqir tosu lo'ngini olibdi va amiri bilan hammomga ravona bo'libdi. Yo'lda masjidning yonidan o'tishayotganlarida So'nqirning qulog'iga azon eshilibdi, shunda So'nqir: "Ey Xo'jam, do'konda bir lahza o'tirib turing men namozimni o'qib chiqay, namozimni qazo qilmay", – debdi. Ancha fursatdan so'ng namoz tamom bo'libdi. Odamlar

¹ "Kalila va Dimna"dan.

masjiddan chiqib ketishibdi. Amir qulini kutar ekan, lekin quli masjiddan chiqmabdi. Amir masjid oldiga borib, qulini chaqiribdi. Quli: “Meni chiqishga qo’yishmayapti. Sabr qiling, hozir chiqaman amirim” – debdi. Xo’ja sabr qilibdi, toqati-toq bo’lib, yetti bor eshikka ustma-ust borib qulini chaqirar ekan, har safar bir xil javob olar ekan. Axiri joniga tekkan amir: “Masjidda odam qolmagan bo’lsa sening yo’lingni kim to’syapti”, – debdi. Shunda qul: “Kim sizni tashqarida ushlab turgan bo’lsa, o’sha meni ichkarida ushlab turibdi. Sizni kirishga qo’ymayyapti, meni esa chiqishga...” – deb javob beribdi.

Mustafo (s.a.v.) ning etigi

Mustafo (s.a.v.) namozga shaylana turib, etiklarini kiymoqchi bo’libdilar, shu payt nogahonda havodan bir burgut tushib, etiklarini olib ketibdi. Qush etikni havoga ko’taribdi va to’nkargan ekan ichidan qora ilon tushibdi. Mustafoni qora ilondan Alloh lutfi saqlab qolibdi. Shunda Mustafo, qushga shukrona aytib: “Biz jafodan o’ylasak, vafo ekan”, – debdi.

Kelsa boshingga baloyi nogahon,
Yaxshilikka yo’y uni sen begumon.

Muso va ochko’z

Bir odam Muso (a.s.) oldiga kelib: “Menga hayvonlarning tilini o’rgating. Bu dunyoda barcha tillarni o’rgandim, birortasidan foyda yo’q, hammasi bir xil narsalarni so’zlaydi. Hayvonlar tilini o’rganay qani, zora, ular biror o’zgacha narsalardan suhbatlashsalar. Shunda Muso(a.s.): “O’zing ko’tarolmaydigan yukning ostiga kirma. Sen uchun shu holing yaxshi”, - debdi. Haligi odam: “Ey Muso (a.s.) hech bo’lmasa it bilan xo’rozning tilini o’rgat”, – debdi.

Muso(a.s.) uni bu niyatdan qaytarishga har qancha urinmasin, u oyoq tirab turib olibdi. Nihoyat Muso(a.s.) unga tilni o’rganishi uchun duo qilibdilar. Odam uyiga xursand bo’lib kelibdi. Uyda xizmatkori dasturxonni dalada qoqqan ekan, ushoqlar bilan birgalikda bir parcha non ham tushibdi. Buni ko’rgan xo’roz nonni cho’qqilay boshlabdi. Uning bu holidan itning jahli chiqibdi: “Uydagi don-dun, ushoqlar seniki, nimaga endi nonni cho’qillaysan”, – debdi. Shunda xo’roz: “Xafa bo’lma, ertaga xo’jayinning eshagi o’ladi, rosa mazza qilib, qorningni to’yg’izasan”, – debdi.

Bu gapni eshitgan odam, eshagini bozorga chiqarib sotibdi. Keyingi kun yana it bilan xo’rozni kuzata boshlabdi. It xo’rozga ta’na

qilibdi: “Hoy, xo’roz eshak o’lib, qorningni to’yg’azasan deding, nima bo’ldi”, – debdi. Xo’roz: “Men rost gapirgan edim. Eshagi o’ldi, lekin boshqa joyda. Ko’p o’ksinma, ertaga tuyasi o’ladi. Shunda qorningni to’ydirib olasan”, – debdi.

Odam yana borib, bozorga tuyasini sotib kelibdi va avvalgidan it bilan xo’rozni kuzata boshlabdi. It: “Hoy xo’roz yolg’onni ham qoyillatar ekan san. Tuya ham ketdi, lekin qorin to’y-madi-ku”, – debdi. Xo’roz esa: “Men yolg’onchi emasman, tuya ham ketdi, lekin boshqa yerda vafot etdi. Biroq hech xafa bo’lma, ertaga uning xizmatkori o’ladi. Marhum haqiga beriladigan xayru ehsondan qorning to’yadi”, – debdi.

Bu suhbatni eshitgan haligi odam, buni ham oldindagiday tez chorasini ko’ribdi. It bu safar nihoyatda qizishib: “Yolg’onchi xo’roz! Qani xizmatkorni o’lgani-yu, bizning qornimiz to’ygani? Bunchalik ham aldash yarashmaydi”, – debdi. Shunda xo’roz: “Men seni aldaginim yo’q, xizmatkor ham o’ldi, biroq bu yerda emas, boshqa joyda... balo asli eshakka kelgan edi. Xo’jayin hech yaxshi ish qilmadi, o’z boshini o’zi edi. Chunki navbat endi o’ziga keldi”, – debdi.

Qulning tuhmatga uchrab, Buxorodan qochgani

Bir Sadri Jahon izmidagi qul tuhmatga uchrab, o’n yil darbadar yurib, qaytib yurtini sog’inib kelibdi.

Ul Buxoro gulshani irfon erur,
Kim Buxoriydir, aziz inson erur.

Do’stlari qulga: “Buxoroga borma, seni o’n yildan buyon pichog’ini tezlab, shoh navkarlari qidirib yuribdi”, – deyishibdi.

Gar Buxoroda nasibingdir kamol,
Unda xorlik ham base ochgay visol.

Oshiq baribir Buxoroga boribdi. Shunda do’stlari unga: “Zinhor podshoga ko’rinish berma”, – deb ogohlantirishibdi. Yurt sog’inchu podsho zulmidan ustun kelibdi. Qulining sevgisi, jura’tini ko’rgan Sadri Jahon uni avf etibdi.

Bir masjid qissasi

Bir masjid bor ekan. Kim unda kechasi yotib qolsa, bandalikni bajo keltirar ekan. Shunda shahar noibi: “Masjidni kechasi yopib qo’yinglar, birov bilmasdan kirib jon uzmasin”, – deb farmon beribdi. Bir kun shaharga bir mehmon tashrif buyuribdi va masjidida

tunamoqchi bo'libdi. Shunda xalq unga bu masjidning xosiyatini aytishgan ekan, ham u ko'nmabdi. "Men jonimdan to'ygan kishi bo'lsam, jonimni olsa-olsin, shu masjidda uxlayman", – debdi. Odamlar takror-takror qo'rqitishsa ham unamabdi. Shunda mehmon ularga bir tuya voqeasini aytibdi: "Bir bola daladagi ekinlarni qo'riqlash uchun childirma chalib o'tirar ekan. Bir kun shu dalaga tuya kiribdi shunda bola childirmani chalganida qiyo ham boqmas ekan. Shunda bir dono kishi: "Unga sening childirmang kor qilmaydi. Chunki u kecha-yu – kunduz dovul tashigani tufayli childirmaning ovozi unga kor qilmaydi. Sening childirmang dovulning sasi oldida nima bo'libdi", - degan ekan," - debdi.

Oxiri mehmon masjidga tunash uchun kiribdi. Tun yarmiga kelganda dovul ovozlari eshitilibdi. Haligi mehmon: "Bu ovozingdan qo'rqmayman, dovul bayramda chalinadi, demak, bayram boshlandi", – debdi. Shu payt masjidning tilsimi ochilibdi. Har tarafga zarlar otila boshlabdi. Haligi kishi yo'limni zarlar to'smasin deb, ularga qiyo ham boqmapti. Bir bahaybat sher ham paydo bo'libdi va zarlarni qopida eltib, ko'mib qaytar ekan...

Nafsini tiygan mehmon esa ertalab, masjiddan sog'-omon chiqibdi.

No'xat

Bir no'xat qozonga kirgan ekan dod-voy solibdi: "Nega meni otashga solasizlar, yana Oybonu kapkiri bilan boshimni ezasizlar", – debdi.

Shunda Oybonu: "Seni qaynatish alamdan emas. Kamsitish, tahqir ham emas bu imtihon. Ya'ni, sen mazali, totli taom bo'lib jon bag'ishlashing uchundir. Ey no'xat, o'sib-unib yashnading. Endi mehmon keldi, unga xush taom bo'lg'in. Toki ular seni tanovul qilib, madhingni kuylashsin. Necha davronlar burun, men sendek a'zoi zamin edim. Necha zamonlar oldin otash ichida qaynadim. So'ng quyildim va totli-tuzli bir vaqoga aylandim", – debdi.

Bir zamon yer uzra andoq qaynadim,
Bir zamon tan ichra andoq o'ynadim.
Bas, yetishdim, hislarim go'yo bo'lib,
Ruh bo'lib, komil bo'lib, usto bo'lib.

Toychoq

Otboqarlar hushtak chalib, otlarni suvga shaylar edilar. Shunda har safar hushtakni eshitgan toychoq hurkib, boshini ko'tarib qo'yar

edi. Toychoqning onasi bu holni ko'rib bolasiga: "Nega jonim bolam suv ichayotgan payting dam-badam boshingni ko'tarasan?" – debdi. Shunda toychoq: "Hushtak hurkitadi meni, xuddi xavf-xatarning daragini berayotganga o'xshaydi", – debdi. Onasi: "Dunyoda shunday odamlar borki, keraksiz ishlarni orttirib, seni muhim ishdan qoldiradi. Sen ishingdan qolma vaqt tig'iz, bo'lmasa suvsizlikdan kuyib qolasan", – debdi.

Pashsha va shamol

Bir kun pashsha Yaman o'lkasining podshohi, Sulaymonning huzuriga kelib shamoldan arz qilibdi: "Ey Sulaymon, sen zaiflarga, nochorlarga yordam berasan. Bizni ham g'amdan qutqar. Shamol bizga juda zulm qilmoqda. Uning dastidan huzr halovatimiz yo'q". Hazrat Sulaymon: "Ey go'zal ovozli pashsha, Tangri menga: "Da'vogarlar hozir bo'lmaguncha hech kimsaning shikoyatini tinglama", - deya amr etdi. Ikki da'vogar ham hozir bo'lmaguncha kim haq, kim nohaq ekanigini qanday bilaman", – deb shamolni ham huzuriga chaqiribdi. Shamol kelganda, pashshani joyidan topib bo'lmabdi.

Soyala istaydi garchi shu'la, nur,
Yo'q bo'lurlar nur, agar etsa zuhur.

TO'RTINCHI KITOB

Voiz

Bir voiz o'z va'zlarida yo'lto'sarlarni duo qilar edi: "Ey rabbim, telba, muvsidlarga shafqat qilgin. Ularni aya. Buni eshitgan xalq unga: "Bu ishing yaxshi emas, nokaslarni muncha e'zozlaysan. Shunda voiz: "Men ulardan yaxshilik ko'rdim, evaziga esa duo qilyapman", – debdi. Xalq: "Ulardan qanday yaxshilik ko'rish mumkin?", – deyishdi. Voiz: "Ular menga shunchalik jabru-zulm qildilarki, meni yomonliklardan bezdirdilar", – debdi.

Qaltis harakat

Oshiq yorini yolg'iz ko'rib, uni quchib bo'sa olmoqchi bo'libdi. Ma'shuqaga bu holat yoqmapti: "Esingizni yig'ing, beadablik qilmang", – debdi. Oshiq: "Hech kim yo'q-ku, esib yotgan yeldan boshqa", – debdi. Shunda ma'shuqa: "Yel esar ekan, elni esdirguvchi bor", – debdi.

Benomus xotin

So'fining ko'ngliga shubha uyg'onib, kunduz kuni uyiga qaytgan chog'i, xotini bir kovushdo'z bilan aysh-ishrat qilib o'tirgan ekan. So'fi eshikni qoqqan ekan, ichkaridagilar tang ahvolga qolishibdi. Uyda yashirinishga biror ovloq, yerto'la, dahliz ham yo'q edi. Xotin nima qilarini bilmay, o'ynashi boshiga chodir yopibdi. So'ng eshikni ochib, erini ichkariga kiritibdi. So'fi yoping'ich yopingan kimsani ko'rib: "Bu kim?" – debdi. Xotin: "Bu xotin shahar a'yonidan, boy-badavlat xonadondan. Shuning uchun biron kishi kirmasin, deb eshikni tambalab qo'ygan edim". So'fi: "Nima niyatda kelgan ekanlar?" – debdi. Shunda xotin: "Qarindosh bo'lishga kelibdilar. Yaxshi xotin ekanlar, yana xudo biladi. O'ktam, ishchan, toparman o'g'illariga qizimizni so'rab kelibdilar" – debdi. So'fi: "Biz faqirmiz, nikohda tenglik bo'lishi kerak. Bir eshik zardan, bir eshik yog'ochdan bo'lsa to'g'ri kelmaydi", – debdi. Xotin: "Men ham shu haqda so'zladim, unamadi. Molu-bisot to'plashdan to'yganmiz, mol-bisot kerak emas. Biz faqat poklik, solihlikni istaymiz", – dedi. So'fi yana takror yo'qsilligini so'zlabdi. Xotin yana: "Men ham faqir, yo'qsilu bechoraligimizni aytdim, lekin qarori qat'iy, murodim nomusli, iffatli

kelin qilishdir”, – demoqda. Shunda so’fi: “Unga xonadonimizdagi molu-dunyomiz holi ayondir. Bizdagi poklik esa, bizdan ortiq unga ma’lumdir”, – debdi.

Alloh har narsani bilguvchi

O’z-o’zini Tangri “Ko’rguvchi” atar,
Senga ul har lahza solgaydir nazar.
O’z-o’zini “tinglovchi”, deydi ul
Ki, yomon so’zni og’izga olmagil.
O’z-o’zini Tangri “biluvchi” demish
Ki, yomon ishdin yiroqlik farz emish.

Xushbo’y hidlardan hushidan ketgan odam

Bir odam katta shaharga kelibdi. Bozordagi atir-upalar sotadigan attorlik do’konlari tomonga burilibdi. Do’konlardan gul, binafsha, atir hidlari ufurib turardi. Bir-ikki qadam yurgach, bu xushbo’y hidlardan uning boshi aylanibdi. Oxiri hushidan ketibdi.

Olomon uning ustiga to’planishibdi. Biri yuragini, biri bilagini uqalar, kimdir yuziga gul suvi separd. Qancha harakat qilishmasin, bemor hushiga kelmabdi. Atirlar, gul suvlarini boshidan quyishar, ammo odam hech o’ziga kelmabdi. Chorasiz qolishibdi. Atrofdagilarga jar solishib, qarindoshlarini qidira boshlashibdi. Ammo hech kimsa ega chiqmabdi, ancha vaqt o’tsa ham u o’ziga kelmabdi. Oqshomga yaqin bu yerdan o’tib ketayotgan bir teri oshlovchi hushidan ketib yotgan odamni tanibdi. Olomonga qarab shunday debdi: “To’xtang, gul suvini sepmang. Men uning nega xasta ekanligini bilaman. Siz unga tegmay turing, men hozir kelaman”, – deya uzoqlashibdi. Bir vayronaga kirib bir hovuch it tezagini olib qaytib kelibdi va tezlik bilan tezakni hushidan ketgan odam burniga tutibdi. Xayriyat! Haligi kishi o’ziga kela boshlabdi. Birozdan so’ng oyoqqa turibdi. Teri oshlovchi bilan birgalashib ketibdi. Hushidan ketgan odam ham teri oshlovchi ekan. Yillar mobaynida terilar orasida yomon hidlarga o’rganib qolgan bu odam attorlik do’konlaridan taralib turgan xushbo’y hidlarga dosh berolmay hushidan ketgan ekan.

Amal bilan nasihat etmoq soʻz ila oʻgit bermoqdan afzaldir

Umar xalifa boʻlgandan keyin minbarga chiqibdi. Minbarning uchta zinasi bor ekan. Ikkinchi zinadan Bakr joy olgan ekan, uchinchi Usmon joy olgan ekan. Shunda Umar zinalarni hammasini bosib, minbarga chiqib olibdi. Shunda unga: “Ey Umar, u joy Rasulning joyi. U yerda hech kim oʻtirishga jazm etmadi. Sen nega oʻtirib olding?” – deyishibdi.

Umar: “Agar uchinchi zinaga chiqsam, misli Usmon deydi hamma. Ikkinchi zinaga chiqsam, misli Bakirdir deyishadi. Minbar usti Muhammadning maskani boʻlgani uchun, hech kim meni Mustafoga oʻxshatmaydi”, – debdi.

Abdulloh Magʻribiyning karomatlari va nuri

Shayx Magʻribiy oltmish yoshda ekan. U soʻfiylarni dasht aro tunda tikanzor, chuqurlardan eson omon olib chiqibdi.

Yurgay oldinda hamisha nuri pok,
Yoʻlni toʻsganlarni aylab chok-chok.

Tarozuning toshi

Bir attorning tarozusining toshi kesak ekan. Bir xaridor kelib, undan kallaqand xarid qilib olmoqchi boʻlibdi va sotuvchidan qand berishini soʻrabdi. Shunda attor tarozuning bir pallasiga kesaklarni teribdi va kallaqandni maydalashga tushibdi. Xaridor kesakning shaydosi ekan. U tarozudagi kesaklarni koʻrib, ishtahasi ochilib ketibdi va attorning ish bilan ovozligini koʻrib, kesaklarni birin-ketin oʻgʻrilab olib, paqqos tushira boshlabdi. Attor bu holni koʻribdi-da oʻzini koʻrmaganga olibdi va ichida:

“Sen mening molimni yersan, esda tut,
Aslida molingga solmishsen chovut”, – debdi.

Ibrohim Adham qissasi

Ibrohim Adham bir kecha taxtga oʻtirar ekan, saroy tomidan oyoq tovushlarini eshitibdi. Tom ustida kimlardir qattiq-qattiq qadam tashlab, u yoqdan bu yoqqa yurardi. Ibrohim Adham boshini derazadan chiqardida: “Kimsan, saroyimning tomida nima qilib yuribsan?” – deb soʻrabdi.

Tomdagilar: “Yoʻqotgan tuyamizni izlab yuribmiz”, – deyishibdi. Ibrohim Adham: “Tunning yarmida saroy tomida tuya qidirasizmi?”

Tuya bu yerda nima qilsin?” – debdi. Tomdagilar yana: “Axir sen taxtga o’tirib, Allohni qidirypasan-ku! Nega endi bizning saroy tomidan tuya qidirishimizga hayron bo’lyapsan?” – deyishibdi. Bu javobdan so’ng Ibrohim Adham toju-taxtni tashlab, komillik yo’lini tanlabdi.

Suv sasi

Bir chanqagan kimsa yong’oq daraxtiga chiqib yong’oq qoqar ekan, yong’oqlar suvga “cho’lp” etib tushib oqib ketar ekan. Bu holni ko’rgan bir oqil kishi: “Nima qilyapsan? Bu ishingni qo’y, yong’oq batarroq chanqatadi. Sen balanddan qoqayotgan yong’oqlar, pastga tushguningcha oqib ketadi”, – debdi. Haligi kishi: “Maqsadim yong’oq yig’ish emas, suv sadosini eshitish”, – debdi.

Bir shoir qissasi

Bir shoir shoh oldiga yozgan she’rini olib kelibdi va zar to’n, tulpor egasi bo’lishlikni orzu qilibdi. Shoh unga ming dinor ehson etishni buyuribdi. Buni eshitgan Abul Hasan nomli vaziri: “Xazinada pulimiz kam emas, o’n ming dinor bering ketsin”, – debdi. Shoir hayratlanibdida: “Shohga shoirlik hurmatimni kim etkazdi ekan-a?” – debdi. Shunda unga xalq vazir etkazganini aytib, uni maqtashibdi. Shoir vazirga uzun qasida bitib, uyga qaytibdi. Uyga kelib ko’rsaki, uyida shoh nomidan sovg’a-salomlar kelgan ekan. Oradan necha yil o’tibdi. Shoir yana shoh eshigiga kelibdi va podshoga atagan she’rini topshiribdi. She’r shunday ajoyib bitilgan ediki hamma hayratlanibdi. Shunda shoh shoirga: “Ming dinor ehson eting!” – deb buyuribdi. Shunda Hasan nomli yangi vazir: “Shohim xazinada pulimiz kam, unga aqcha berib javobini bersak ham bo’lar,” – debdi. Shoh: “Ixtiyor o’zingda, lekin, sha’nimni madh etgani uchun xursand qilgin”, – debdi. Vazir: “Menga qo’yib bering”, – debdi va shoirni eshik tagiga intizor qilibdi. Kuz kelibdi. Ketidan qish, bahor ham o’tibdi. Shunda shoir: “Haq bermasangiz quvingiz. Muncha odamni intizor qilasiz”, – debdi. Shunda eshik ochilib, shoirga aytilgan narxning o’ndan birin choragin berishgan ekan, shoir norozilik bilidiribdi. Shunda unga: “O’tgan safar haqqingni bergan mard kishi edi”, – deyishibdi. Shoir hayratlanib: “U Hasan sohibi hikmat edi. Bu Hasan sohibi g’urbat ekan”, – debdi.

Shohki, bir nokasni chun dono bilur,
O'zni ham, davlatni ham rasvo qilur.

Ahmoqqa javob sukut

Aqli past, har yomon ishga qo'l uradigan qul bo'lgan ekan. Podsho: "Uning maoshini kamaytiring, toki aqli kirsin!" – debdi. Buni eshitgan qul afti tund bo'libdi va podshoga shikoyat maktubi bitibdi va oshpazdan maslahat so'rabdi. Oshpaz: "Sen o'zing o'yla, biror sabab bordir. Maoshingni pasaytirilgani xasislik yoki tanglikdan emas", – debdi. Qul bu gapga parvo ham qilmay, yana podshoga takror-takror maoshining kamligi uchun shikoyat qilib maktub yuboraveribdi. Biror maktubiga javob olmagandan jahli chiqib tutoqib ketibdi: "Maktublarim biron xiyonat bilan shohga etib, bormayaptimi nima", – deb, yana maktub bitibdi. Bu maktubi ham javobsiz qolgandan keyin, yana yetti bor maktub bitibdi. Shunda hojib: "Shohim qul senga shuncha maktub bityapti. Aqalli bittasiga ham javob bermading", – debdi. Shunda shoh: "Bu ishimda bir soboq bor", – debdi.

Dedi payg'ambarki, ahmoq kimsalar –
Bizga dushman, yo'lto'sar shayton ular.
Kimki oqil ersa, uldir jonimiz,
Ruhi – bizning ruhimiz, rayhonimiz.
Mayli, oqil etsa dashnom rozimen,
Chunki oqil fayzining e'zozimen.

Majnunning nortuyasi

Laylining ishqiy bilan yonib yurgan Majnunga, bir xabar yetkazishibdi: "Layli saharda bu qishloqdan anavi qishloqqa ketyapti. Majnun vaqt yo'qotmasdan ortiga tushsa, unga yetadi, tezroq harakat qilsin", – deyishibdi. Majnun tuyasini hozirlab, yo'lga tushibdi. Tuyaning yangi tug'ilgan bo'talog'i bor ekan. Onasiga yetolmay orqaga qolar ekan. Tuyaning fikri - zikri ortda qolayotgan bolasida ekan. Majnun nixtalab haydaganda ham tuyaning xayoli bolasida ekan. Majnun xayoli esa Laylisida. Majnun o'zidan kechib, xayolga cho'mgan paytda tuya iziga qaytar ekan. Majnun o'ziga kelganda oldinga yurar ekan. Majnun qarasaki, yo'lga tushgan joyidan, bir farsah ham uzoqlashmabdi. Shunda Majnun: "O tuya! Ikkimiz ham oshiqmiz. Men Layliga, sen bo'taloqqa. Ishqlarimiz

teskari bo'lganligi uchun, bir-birimizni yo'ldan qoldiryapmiz. Biz bu yo'lda yo'ldosh bo'lolmaymiz", – debdi va tuyadan tushib piyoda ketibdi.

Bir hashamatli salla

So'filardan biri xalqning e'tiborini o'ziga qaratish uchun, boshidagi sallani ulkan qilib o'rabdi va ichini bo'z bo'laklari bilan to'ldiribdi. Bir kun madrasaga ketayotganida o'g'ri sallani olib qochibdi. So'fi o'g'rining ortidan baqirib: "Sallani och, sallani och! Ichidagini ko'rib keyin olib ket", – der ekan. O'g'ri qocharkan, qo'ltig'idagi sallani yecha boshlabdi. Qarasaki, sallaning ichi bo'z va teri parchasi, paxta bo'laklari bilan to'la. Oxirida qo'lida bir quloch mato qolibdi xolos. Shunda o'g'ri qo'lidagini tashlab: "Oh pastkash odam. Men bu haybatli sallaga biror narsa bor, deb o'ylabman. Sen meni rasvo qilding", – deya baqiribdi. So'fi esa: "O'g'lim, dunyo mana shunaqadir, salla kabi ko'rinadi, so'ngra vafosizligini ko'rsatib, bir pulga arzimaydigan latta-puttaga aylanadi", – debdi.

Bir maddoh hikoyasi

Bittasi Iroq safaridan qaytgan ekan, undan: "Safaring qanday bo'ldi", – deb so'rashibdi. Haligi kishi: "Ajoyib, Xalifa menga o'nta xil'at hadya qildi", – deb, ularni ta'rif qilib, madhini kuylab, haddan oshib ketibdi. Shunda: "Sening ko'rinishing bir ahvol, bu so'zlaringning yolg'onligidan bir dalil. Boshyalang, oyoqyalang yuribsan, o'nta xil'atingning aqalli bittasi qani?" – deyishibdi. Haligi kishi: "O'n xil'atni yetim-yesirlarga in'om qilib kelyapman", – debdi. Shunda yana: "Xo'p, hamma molingni beribsan, nega ko'ngling ochiq emas. Nega dilinda g'am-alam, anduh, yuzingda shodlik ko'rinmaydi?" – deyishibdi.

Pokbozlikka nishoning qaydadur?

Urma lof, aytganlaring befoydadir.

Uch baliq hikoyasi¹

Bir ko'lda uch baliq yashar ekan. Kunlardan birida ko'l yonidan uchta yo'lovchi o'tib qolibdi va baliqlarni ko'rib: "Borib to'rlarni olib kelaylik, bu baliqlarni tutaylik", – deb qaytib ketishibdi.

¹ "Kalila va Dimna"dan.

Buni sezgan baliqlarning eng aqllisi vaqtini o'tkazmasdan dengiz tomon yo'l olibdi. Qolgan ikkitasi uni masxara qilishibdi: "Hoy aqlsiz sen yo'lingning yarmiga bormay o'lib ketasan, yaxshisi bu niyatingdan qayt", – deyishibdi. Biroq aqlli baliq ularga quloq solmabdi, yo'lida davom etibdi. Ko'p vaqt o'tmay to'rlarini ko'tarib yo'lovchilar kelib qolishibdi. Ikkinchi baliq: "Agar o'zimni o'lganga solsam qutulaman", – deb, suv ustida qornini yuqoriga qilib, tek yotibdi, qimirlamabdi. Baliqchilar "O'lgan baliq" deb, qumga, bir chetga, otib yuborishibdi. Baliq asta-sekin qimirlab suvga etibdi va bir ovloq joyga yashirinibdi. Uchinchi baliqni yo'lovchilar to'rlari bilan ushlabdi. Baliq aqlli baliq bilan ketmaganidan afsuslanibdi. Biroq vaqt o'tgan edi.

Chumchuqning ovchiga o'giti

Bir ovchi chumchuqqa tuzoq qo'yibdi va to'rga bir chumchuq tushibdi. Qush tilga kirib, ovchiga yolvoribdi: "Ey ovchi! Sen shu vaqtgacha qo'ylar, sigirlarni yeding. Ular bilan to'ymading. Endi mening arzimasi go'shtimga to'yasanmi. Agar meni qo'yib yuborsang, evaziga senga uch o'git aytaman. Birinchisini qo'lingda turib aytaman, ikkinchisini shu tom ustida aytaman, uchinchisini esa anavi daraxtga qo'nib aytaman", – debdi.

Ovchi qushni mahkam ushlabdi: "Qani aytgin-chi", – debdi. Chumchuq birinchi nasihatini aytibdi: "Bo'lmaydigan gapga, kim aytsa-aytsin, ishonma!" Ovchi ikkinchi nasihatni eshitish uchun chumchuqni qo'yib yuboribdi. Chumchuq tom chetiga qo'nib ikkinchi o'gitini aytibdi: "O'tib ketgan narsa, boy berilgan fursat uchun xafa bo'lma, oh-voh chekma", – debdi. Yana biroz uchib, baland daraxt shoxiga qo'nib: "Qornimda og'irligi o'n bir dirham qimmatbaho dur bor edi. Qo'yib yubormaganingda o'sha dur seniki bo'lar edi", – debdi.

Ovchi: "Oh! Nima qilib qo'ydim? Nega qo'yib yubordim-a?" – deya qayg'urib yig'lay boshlabdi. Shu payt chumchuq: "Ey nimaga baqirib yig'laysan. Men senga "O'tib ketgan narsa, boy berilgan fursat uchun xafa bo'lma", – degan edim-ku. Bundan tashqari, senga "Bo'lmaydigan gapga, kim aytsa-aytsin, ishonma" – demaganmidim? Qanaqa anqov odamsan. Men o'zim uch dirham chiqmayman, qanday qilib qornimda o'n dirhamlik inju bo'ladi?"...

Ovchining hushi joyiga kelib: “Unday bo’lsa uchinchi o’gitingni ayt”, – debdi. Shunda chumchuq: “Ikki o’gitga rioya qilmagan uchinchisiga rioya qiladimi”, – deb, uchib ketibdi.

Johil uzgan ip ulanmas, boylama,
So’ylama hikmatni, zoye aylama.

Zidlik haqida

Bir kishi yerni ag’darib, bot-bot yerga ketmon urar ekan. Uni ko’rgan bir odam dod solib: “Bu nima qilganing, yerni buncha azob berasan,” – debdi. Haligi kishi: “Ey nodon, nima tuzuk, nima buzuq ishligini farqlashni o’rgan. Yerni ag’darmasam, u menga qanday hosil beradi. Urug’ni qanday o’z bag’riga oladi?” – degan ekan.

Gar tegirmon etmasa bug’doyni un,
Nonu ne’mat sufraga kelgaymu chun?

Bolasi tarnov boshida qolgan xotin

O’z bolasining tilini tushunmagan bir ona ustoz-donishmandga murojaat etib, bolasi tarnov boshida qolgani, chaqirsa, imo-ishora qilsa ham kelmayotganligini aytibdi va: “Iltimos, bolamni tarnov boshidan sog’-omon olib bering”, – debdi. Donishmand: “Tomga tengdoshini olib chiq, shunda bolang tengdoshini ko’rib tarnov boshini tark etadi”, – debdi. Ona bolasining tengdoshini tomga olib chiqqan ekan, bolasi o’girilib boqibdi va tarnov boshini tark etibdi

Podsho va uning o’g’li

Bir podsho yolg’iz o’g’li bor ekan. U aqlu ma’noda tanho ekan. Bir kun shoh uy’qusida o’g’lining o’limini ko’rib, g’am anduhda qolibdi. Uy’g’onsa bu tushi ekan. Xursand bo’lib o’g’lini uylantirmoqchi bo’libdi va unga kelin qidira boshlashibdi. Oxiri, bir darvesh qizini tanlashibdi. Shunda shohning xotini: “U bizga to’g’ri kelmaydi, odamlar nima deydi? Shoh baxillik qilyapti, deyishadi”, – debdi. Bu gaplarni eshitgan shoh: “Menga boyligi kerak emas, soliha kelin kerak”, – debdi. Lekin o’g’lining rangi za’faron ekan. Shoh o’g’lining tuzalishi uchun xayru ehsonlar qilar ekan. Turli xil tabiblarga ko’rsatar ekan, davosi bo’lmabdi. O’g’lini bir alvasti kampir sehru-jodu qilgan ekan. Sehrgar kampirning sehru jodusini uzoq elda yashagan bir tabib eshitibdi va yetib kelibdi. Yigitni sehrgar kampir dastidan xalos qilibdi. Podsho xalqqa to’y-tomosha qilibdi, O’g’lini uylantiribdi.

Shahzoda – odam o’g’li, tangri xalifasi. Otasi – odami sayfulloh, malaklar sajda qilgan zot. Sehrgar kampir – dunyodir. Sehr-joduni sindirgan – hakimdir.

Bir ayol makri

Bir xotin eriga qasd qilish ilinjida: Men daraxtga chiqib nok teray”, – debdi. So’ng daraxtga chiqib, eriga qarab dod solibdi: “Hoy uyatsiz, muttaham yoningda kim, kim bilan don olishyapsan?” – debdi. Eri: “Do’q urma, pastga tush, yonimda hech kim yo’q, xayol qilyapsanmi?” – debdi. Yana xotini: “Yoningdagi kim?” – deb, dodvoy solibdi. Shunda er: “Pastga tush boshing aylanyaptimi?” – debdi. Xotini pastga tushganda eri daraxt ustiga chiqib olibdi. Buni ko’rgan xotin o’ynashini chaqirib don olishib o’tirgan ekan. Daraxt ustidan eri baqiribdi: “Ey benomus xotin, kim bilan dong olishyapsan?” – deb, baqiribdi. Xotini esa: “Bu sening xayolingdir. Men ham daraxt ustidan sening o’ynashing bilan ko’rgan edim, ishonmasang pastga tushib qara”, – debdi.

Chumoli

Chumolilar qog’oz ustidan o’tib ketishar ekan, bittasi qog’oz ustidagi qalamni maqtabdi: “Qalamni ko’ring qog’ozga chiroyli naqshlar solibdi”. Ko’zi o’tkir chumoli esa: “Barmoqlarga qarang hamma ishni ular bajaryapti”, – debdi. Uchinchi chumoli esa: “Bu hunarning barchasi mohir qo’llarniki”, – debdi. Ular suratga mahliyo bo’lib, Haq amrisiz hech nima yaratilmasligini unutishgan ko’rinadi.

BESHINCHI KITOB

Mustafo (s.a.v.) va kofir

Mustafoning uyiga bir kofir mehmon bo'lib kelibdi. U chunonam ovqat tanovul qilar ekanki, uydagi taomlardan asar ham qolmabdi. Uning dastidan xizmatkorlar Mustafoga arz qilishib, mehmonni hujraga qamab qo'yishibdi. Tun yarmiga kelib yegan ovqatlari mehmonni bezovta qilibdi. Eshik tambalanganligidan mehmon tashqariga chiqib bilmay, hojatini tagiga qilib qo'yibdi. Ertalab Mustafo eshikni ochgan ekan, uydagi mehmon otilib chiqib, qochib ketibdi. Mustafo xona ichidagi holatni ko'rib choyshabni tozalashga tushibdi. Haligi qochib ketgan odam, xonada narsasini qoldirgan ekan, qaytib kelibdi. Qarasaki, Mustafo kofirning hojatini tozalayapti. Bu holni ko'rib, kofir xijolat chekib, o'z holiga yig'labdi. Nafsini tiyishga so'z beribdi. Musulmonlikni qabul qilib, tavba qilibdi.

Fe'ldagi tafovutlar

Bir qavm vakillari qiblani izlabdilar. Tun qorong'usida qiblani har qayerda, deb bilibdilar. Subhidamda ka'ba namoyon bo'lganda, xatoliklari oshkor bo'libdi.

Tovus

Tovus sifati o'zining rangin jilolari bilan insonlarni aldar, tabiati insonlarni ovlar ekan, uning bu qilmishi boshini ebdi. Ibrohim (a.s.) tovusni so'yibdi.

Ovnimas, sen o'z-o'zingni ovlading,
O'z-o'zingni bandi zindon aylading.

Darveshlar suhbat

Bir darvesh o'zga bir darveshdan: "Sen hazrati Allohni ko'rganmisan?" – debdi. Darvesh: "Ha men Allohni ko'rdim, chap qo'lida olovi ozar o'ng qo'lida esa suvi kavsar bor. Bir guruh odamlar otashga qo'l cho'zishsa, bir guruh odamlar suvdan ichib shod-xursand", – debdi.

Itiga marsiyalar kuylab, yig'lagan arab hikoyasi

Bir arabning iti jon berar edi. Unga qarab egasi: "Sodiq itim bor edi. Endi nima qilaman? Kunduzi ovchim, kechalari soqchim edi", – deb, dod solib yig'lar ekan.

Bir yo'lovchi: "Itinigza nima bo'ldi?" – deb so'rabdi. Haligi arab: "Itim ochlikdan vafot etdi", – deb yana dodu faryod chekibdi. Haligi kishi qarasaki, arabning xurjuni to'la non. "Xurjuning to'la non ekan, ozgina itingga bersang bo'lmasmidi", – debdi. Arab unga qarab: "Non tekinga kelmaydi, uni aqchaga sotib olaman, lekin ko'z yoshim tekin", – degan ekan.

Bir tovuş voqeasi

Bir tovuş tumshug'i bilan patlarini yulqib, o'zini tahqir va xunuk bir holga solib o'tirgan ekan. Buni ko'rgan hakim hayratga tushibdi: "O'zingga rahming kelmaydimi?" – deb so'rabdi. Tovuş: "O'zimga rahmim keladi, ammo jonim parimdan ham azizroqdir, parlarim dushmanlarimdir", – deya javob bergan ekan.

Uch kimsaga achining

Dedi Payg'ambar, bu so'zni o'ylangiz,
Uch guruhga rahmu shafqat aylangiz.
Ulki sohib rutba erdi, xor bugun,
Ulki zangin erdi, bedinor bugun.
Ulki donishmand erur, hikmatga yor,
Necha bir nodonga bo'lmishdir duchor.

Ohu bolasi

Bir ovchi ohu bolasini eshak og'iliga qamabdi. Eshaklar uni goh tepib, goh masxara qilishibdi. Ho'kizu eshaklar somonni maqtab-maqtab tanovul qilishar, ohu esa tipirchilab, har yonga o'zini urar ekan. Bir qorni somondan to'ygan eshak: "Somondan ol", – debdi, lekin ohu or qilib somondan yuz o'giribdi: "Men chamanzorlarda yashaganman, gulu lolalarni tanovul qilganman. Somoning menga kerak emak", – debdi.

Kimki nojins birla hamdam bo'lgusi,
Tong emaskim, ul tiriklay o'lgusi.

Abubakr ismli kishi

Xalqi batamom rofiziyy bo'lgan Sabzavor shahrini, Muhammad Xorazmshoh jang ila ishg'ol qilibdi. Shahar ahli shoh qatlu qirg'inidan qo'rqib tiz cho'kib yolvorishibdi: "Quling bo'laylik. Boj va xirojlarni to'laylik, iltimos jonimizni omon qoldir". Shunda shoh: "Agar mendan shafqat istamoqchi ekansiz, menga Abubakr ismli kimsani

shahringizdan topib keling. Shahringizdan Abubakr chiqmaguncha ohu-nolalaringiz, boj-xirojlaringiz befoyda, men sira shafqat etmayman”. Xalq: “Shahrimizdan Abubakr ismli kimsani izlama, baribir yo’q”, – deb yolvorib, shoh oyog’i ostiga bir qop oltin tashlashibdi. Shoh oltindan yuz o’girib: “Men sizlarga go’dak emasman, simu-zar bilan aldasangiz”, – deb haydab yuboribdi. Halq uyon-buyonga chopib, Abubakr ismli kimsani qidirishga tushibdi, uch kecha - uch kunduz deganda bir vayrona ichidan Abubakr ismli bir avtodahol, oriq, nimjon bir kimsani topibdilar va uni shoh huzuriga olib boribdilar.

Sen ko’ngil etding hisob ko’nglingni, chun,
Ahli dilni izlamaydiren bugun.

Tushda

Bir misrlik avliyo tushida yetti oriq sigir, yetti semiz sigirni ishtaha bilan tanovul qilishganini ko’ribdi. U sigirlar garchi oriq bo’lishsa ham, nafslari sherday ekan. Shunday bo’lmaganda ular semiz sigirlarni tanovul qilarmidi?

Bas, bashar suvratda garchi mardi zo’r,
Unda pinhondir va lekin mardxo’r.
Mardni yeb xushlik ila, fard aylagay,
Dardini pokiza bir dard aylagay.

Nafs

Dedi Ibliskim, ayo Razzoqi toq,
Ber menga insonni ovlashga tuzoq.
Siymu zar berdi, bedovlar rang-barang,
Dedi: etgay bu xaloyiqni garang.
Yaxshidir, dedi lain, ko’rgach ani,
Yuz burib, bujmaytdi lekin aftini.
So’ng duru gavhar va ma’danlarki, xush,
Berdi Haq Iblisga, chun olguvchi hush.
Dedi: ol ushbu tuzoqni, ey la’in,
Dedikim, ber menga bundan yaxshisin.
Moy, asal, holvayu sharbat berdi Haq,
Zar, ipak to’n, ya’ni, xil’at berdi Haq.
Dedi: yo Rab, yaxshirog’in ber atay,
Toki insonlarni bog’lab, band etay...
Bir tuzoq ber o’zga, ey sultoni taxt,

Toki inson aqlini etsin karaxt.
Oldiga changu sharobni qo'ydi bot,
Sal kulimsab qo'ydi Iblis, jilla shod.
So'ng azal izlolidin berdi xabar,
Fitna daryosin, dedi, ul chayqatar...
Shunda Haq ko'rsatdi xotin husnini,
Er kishining aqlin olgay, sabrini.
Qars urib, Iblis o'yinga tushdi shod,
Dedi: bergil, hosil o'lgaydir murod.

Senga bir do'st kerak

Mustafodin keldi bizga bul tariyq:
Ish amal ermish vafodoring, rafiq.
Yaxshi ersa, toabad yoring bo'lur,
Gar yomon ersa, jabrkoring bo'lur.
To'g'ri yo'lda kimsa etgaydir amal,
Yo'q esa ustozi, topgaymu samar?
Mayda ish ham bul jahonda dahmaza,
Gar birov zahmat chekib, o'rgatmasa.
Avvali ilm, so'ng amaldin naf kelur,
Yoki muhlat, yo ajaldin so'ngra ul...
Ilm istarsen, kibr to'nini yech,
Kamtarinlik jomasin kiy erta kech.
Ilm o'rganmoq yo'li – so'zdir magar,
Ish bila komil bo'lur kasbu hunar.

Payg'ambarlik da'vo qilgan kimsa

Bir kishi olamga “Men Payg'ambarman” deya jar solibdi. Xalq uni tutib, podshohning oldiga sudrab olib borishibdi. Xalq to'planib: “Bu kim ekan, nega bunday makru tuzoq qo'ymoqda?” – deb, savolga ko'mibdilar va shohga: “Buni qiynoqqa solib jazolang toki, ikkinchi bor payg'ambarlikni da'vo qilmasin deyishibdi”. Shoh qarasaki oriq, avzoi badanida et qolmagan bir kimsa ekan. “Buni urish, savalash bilan hech nimaga erishib bo'lmaydi, uning hol ahvolini so'rab, nega bunday da'vo bilan chiqqanini aniqlash kerak”, – deb xalqni tarqatib yuboribdi. Shoh undan asta-sekinlik bilan xesh-aqrabolarini so'rabdi, qayerda ishlashini, maoshini so'rabdi. “Na uyim, na joyim bor, bir faqir bechoraman”, – debdi. Shoh hazilga moyil bo'lgani uchun undan: “Bugun ertalab nima yeding?” – deb so'rabdi. Shunda haligi

kishi: “Ertalab biror narsa tanovul qilganimda o’zimni Nabiy deb e’lon qilarmidim, shunday ahvolga tushib o’tirarmidim”, – debdi.

Murid

Bir murid shayx huzuriga kelibdi. Murid qarasaki, shayx yig’lab o’tiribdi. U shayxga ergashib yig’lay boshlabdi. Shayx yig’idan to’xtagach, murid tashqariga chiqibdi. Shayxning holini undan yaxshiroq bilgan boshqa bir murid, uning ortidan yetib: “Hoy, birodar, “Shayx yig’ladi, men ham unga qo’shilib yig’ladim.” – degan gapni zinhor ko’nglingga keltirma. Shayxdek yig’lamoq uchun o’ttiz yil riyozat chekmoq, nahang to’la dengizlardan kechmoq, arslonlar-u yo’lbarzlarga to’la tog’lardan oshmoq kerak. Shunda ham unday ko’z yoshlarga yetarsan, balki yo’q. Mabodo yetsang, ikki dunyo menga bir qadam bo’ldi, deb, shukrona qil,” – debdi.

Sohibi dil darvesh

Sohibi dil darvesh yo’lda ketayotib qornida ko’ppakchalari huriyotgan ko’ppakka duch kelibdi va o’z-o’ziga debdi: “Ko’ppakning hurishi soqchilik qilish uchun. Zero, ona qornida ekan, soqchilik qilolmaydilar. Ko’ppakchalarning hurishi yana yordam istashidan, ochiqqanidan va shunga o’hshash turli narsalardan darak beradi. Ona qornida bularga ehtiyoj yo’q”.

Bu holat, parda olinmay, ko’ngil ko’zi ochilmay, o’zlarini ko’ruvchi deb bilib, tinmay “fikr” aytuvchilar holidir.

Xayru ehson

Bir rabboniy, komil inson, odamning joni bo’lgan kimsa bog’-rog’lari hosilidan yo’qsillarga xayr-ehson berar ekan. Lekin uning bu ishiga farzandlari hasad qilishibdi. U chunonchi uzum uzsa, mayiz quritsa, holva pishirsa, bug’doy o’rsa, xirmon ko’tarsa, tegirmonda un tortsa, xamir qorsa, non yopsa xalqqa ushr berar ekan. Shuning evaziga Olloh taolo uning bog’ va dalasiga bir barokat yog’dirgan ekanki, boshqa bog’-rog’ egalari bunga muhtoj bo’lib, meva va aqcha so’rashardi, u esa birovga muhtoj bo’lmasdi. O’g’illari o’shal xayru ehsonni ko’rishardiyu bog’dagi barakatni ko’rishmas edi. Bog’bon o’g’illarini chaqirib: “Bog’imizdagi barakat xayru ehsonimiz natijasidir, mendan keyin ham xayru ehsonni kanda qilmang. Shundagina Olloh bizga o’z barakatini ato etadi”, – degan ekan.

Odam (a.s.) yaralishi

Tangri taolo Odam (a.s.) tanini yaratish uchun Jabroil (a.s.)ga bor, yerga tushib bir hovuch tuproq keltir, deb ishora qilibdi. Jabroil yerga tushgan ekan, yer tilga kirib faryod aylabdi: “Parvardigor hurmati tuproqni qo’y, boshimga qadarni solma. Jabroil ortiga qaytibdi va: “Ollohim buyrig’ingni oldida ojizman, boshimdan o’tganlaridan o’zing boxabarsan, o’rtada noming tushgan edi ojiz bo’lib qoldim”, – debdi. Tangri taollo tuproq olib kelish uchun yerga Mikoilni(a.s.) yuboribdi. Mikoil yerga tushgan ekan, yer yana faryod chekib: “G’aribni qiynash joizmi”, – debdi. Mikoil yerning ko’z yoshiga rahmi kelib, bo’m-bo’sh Tangri oldiga qaytibdi. Tangri taolo yerdan tuproq olib kelish uchun Isrofil(a.s.)ni yuboribdi. Isrofil ham yerga tushgan ekan, yer dod-fig’onini davom etibdi. Isrofil ham bir hovuch tuproq ololmay tangrining oldiga qaytibdi. Shunda tangri taollo Azroil(a.s.)ni yuboribdi. Azroil yerga tushgan ekan, yer yana yig’i-sig’ini boshlabdi. Yer qancha dod-faryod qilmasin Azroil amri Haq, deb bir hovuch tuproqni olib, Tangri taoloning oldiga etibdi. Tangri taolo: “Ey Azroil, sabablar bilan xastalikni, qilich yarasini ko’rganlar seni ko’rolmaslar. Garchi sen sababsen, lekin u sababdan maxfiyroqsen”, – debdi-da, Azroilni Odam jonini olishga buyuribdi.

Ayozning farosati

Saroyda xizmat qiladigan, Ayozi degan kimsaning bir qulflangan hujrasi bo’lar ekan va u hujrasiga har kun qatnar ekan. Hamma shu hujrada nima borligi bilan qiziqib qolibdi. Bu xabarni Shohga etkazishibdi. Shoh: “Hujrasini tintuv qiling, hujrasida nima yashirganini biling”, – deb, buyuribdi. Shunda bir necha pahlavon mash’ala yoqib: “Ayozning dodini beramiz”, – deb uning hujrasi tomon yurishibdi. Hujraga etib kelib, uni tintuv qilishibdi. Devorlarini tomini sindirishibdi. Eski chorig’ va po’stindan boshqa hech nima topisholmabdi. Ayozi hujraga har kun borib, chorig’u po’stiniga ko’z tashlab kelar ekan. Hujrasini buzib, hech nima topmagandan keyin, odamlar shoh oldiga borishibdi: “Bir qoshiq qonimizdan keching. Biz sizga yolg’on xabarni etkazibmiz. Ayozning hujrasida eski chorig’i-yu, po’stinidan bo’lak hech vaqo topmadik”, – deyishibdi. Shoh bu gaplarni eshitib: “Jazoni men emas Ayoz bersin”, – debdi va Ayozni chaqirib: “Ularga o’zing jazo bergin. Xohlasang avf et, istasang jazo ber”, – debdi.

Majnun voqeasi

Majnun Layli hajrida vujudi xastalikka chalinib qolibdi. Tabib kelib Majnunning kasalini tekshirgach, undan qon olish kerakligini aytibdi. Nashtarchi kelib, nashtarini tayyorlab, endi Majnunning qo'lidan qon olmoqchi ekan, Majnun dod solib yuboribdi: "Haqqingni olda, meni tinch qo'y", – debdi. Nashtarchi: "Tegrangda ishqing tufayli sheru, arslonlar, qashqir, ayiq, bo'rilar to'planishadi qo'rqmaysan-u, mening bir nashtarimdan qo'rqdingmi?" – debdi. Shunda Majnun: "Nashtaring ne pisand manga, sabru bardoshim tog'danam baland, lekin vujudim Layli bilan to'la. Nashtarni vujudimga sanchganingda Layliga tegib ketishidan qo'rqaman", – debdi.

Ma'shuqning imtihoni

Dedi bir ma'shuq chu aylab imtihon,
Oshig'iga: ey falon ibn al-falon.
Menmu ko'proq sevganing yoxud o'zing,
Ayt menga, paysalga solmay chin so'zing.
Dedi: foniymen ko'yingda muncha, boq
Sen bila to'ldim magar boshdin oyoq.
Borlig'imdin menga qolmish nom, xolos,
Notavon jismimda sen xushkom, xolos.

Nasuhning tavbasi

Nasuh ismli kimsa xotinlar hammomida dalloklik qilar edi. Yuzlari ayollarnikiga o'xshashligiga, qo'llari nozikligiga qarab, hech kim uni erkak kishi ekanini payqamas edi. U podsho qizlariga dalloklik qilar edi. Har safar hammomdan chiqqanida, boshqa dalokklik qilmayman, deb tavba qilar ekan-u, so'zida turmas ekan. Bir kuni hammomda shoh qizining sirg'asi yo'qolib qolibdi. Shunda hammomdagi hammani tintuv qilishga tushishibdi. Buni eshitgan Nasuhning hushi uchibdi: "Yo Rab, nega tavbamni sindirdim. O'zimga loyiq ishni qilmaganim uchun jazomi? Kimligimni bilishsa meni dorga osishadi. Ey xudo, aybimni berkitsang agar, tavba qilaman, bu ishga boshqa qo'l urmayman", – deb yolvoribdi. Hamma dalloklar tekshirilgandan keyin navbat Nasuhga etganda, u hushidan ketibdi. Uning yuziga suv quyishibdi, o'ziga keltirishibdi. Hammomni qaysidir burchagidan sirg'aning topilganligi daragini berishibdi va

Nasuh bu sharmandalikdan qutulib qolibdi. Boshqa umuman dalloklikka qo'l urmabdi.

Agar yuragi bo'lsa¹

Arslon o'rmonda fil bilan urishib charchabdi. So'ng tulkini yoniga chaqirib: "Holdan toydim. Ovg'a yaramayman. To'qayzorning oldidan har kun bir kirchi eshagi bilan o'tadi. Bor, o'sha eshakni menga ovlab keltir. Birgalikda yeymiz", – debdi. "Amringiz bosh ustiga, sultonim. Turli hiylalar bilan sizga eshakni tiriklayin keltiraman", – deb yo'l tomonga ketibdi. Qarasaki, ozg'in bir eshak egasiz o'tlab yurgan ekan. Yoniga yaqinlashib chuqur salom beribdi va uni avray boshlabdi: "Bu qup-quruq tekislikda yolg'iz o'zing nima qilyapsan ey do'stim? Yur, men senga ko'm-ko'k bog'u-rog'larni ko'rsataman. Xoxlaganingcha qorningni to'ydirib olasan", – debdi. "Shu holimga shukr qilaman. Shikoyatim yo'q, bir kunim o'tib turibdi. Jonni bergan Olloh rizqini ham beradi", – debdi eshak.

"Ey do'stim! Sening bu xususiyating kam odamda topiladi. Juda kam bo'lgan narsa yo'q hukmidadir. Bu yo'qlik atrofida tentirab yurish ahmoqlik sanaladi", – debdi tulki.

Bu gaplarni eshitgan eshak: "Gaping to'g'ri. Shuni bilki, butun yomonliklar ochko'zlikdan kelar. Qanoatdan hech kim o'lmagan, hirsdan esa hech kim sulon bo'lmagan", – debdi.

Tulki turli so'zlar bilan aldab, eshakni to'qayzorga to'g'ri arslonning oldiga yetaklab boribdi. Arslon eshakni ko'rishi bilan o'kira boshlabdi. Buni eshitgan eshak, jon holidan ortiga qochibdi. Tulki arslonni urushib: "Nafsingni tiyib o'tir, endigina taomga erishgan eding", – deb yana eshak ortidan boribdi.

"Hoy do'stim nega qochasan, u ovoz sening vahming edi. Endigina ko'kalamzorga yetgan edik-a", – debdi. Shunda eshak: "Bir o'tinfurushning oriq, sillasi qurigan eshagi bo'lar ekan. Do'sti u eshakni ko'rib, rahmi kelibdi. "Do'stim eshagingni ber, shoh og'ilxonasiga to'ydirib, semirtirib beraman", – deb eshakni shoh og'ilxonasiga eltib boylabdi. Eshak ko'rsaki u yerda chiroyli otlar, oldilarida arpa-don, o'tlar, yana ularni taroqlar bilan tarab har vaqtda suv bilan yuvib o'tirishar ekan. Eshakning havasi ketib, o'zining ahvoliga achinibdi. Bir payt askarlar kelib, otlarga egar jabduq o'rnatib olib ketishibdi. Ancha vaqtdan keyin otlar yaralangan, oyog'lari singan, bir ahvolda og'ilxonaga kirib kelishibdi. Bu holni

¹ "Kalila va Dimna"dan.

ko'rgan eshak o'zining ahvoliga shukur qilib, shoh og'ilxonasidan qochgan ekan", – deb hikoyasini tugatibdi.

Tulki yana ming bir hiylalar bilan eshakni o'ziga ergashtirib, arslonning panjasiga olib kelibdi. Arslon uni g'ajib tashlabdi, chanqaganidan suv ichishga borgan ekan, tulki eshakning qornini yorib, eshakning jigari, yuragi va buyragini yeb qo'yibdi. Arslon qaytgach, tulkidan so'rabdi: "Buning yuragi qani?" Shunda tulki: "Ey sultonim! Agar eshakning yuragi bo'lganida edi o'sha dahshatli o'shqiriqni eshitgandan keyin ham, bu yerga kelarmidi", – debdi.

Bir teva hikoyasi¹

Tevani bir kimsa ko'rdi, so'rdi: hoy
Shul zamon qaydin kelursen, xushchiroy.
Dedi: hammomdan kelurmen, ko'rmisen?
Dedi: rost, tizangda ko'rdim belgisin...

Ikki axmoq

Boq, muxannas birla yotdi bir kishi,
Bo'yla bo'ldi kimsaning manfur ishi.
Bir zamon xanjarni ko'rdi ul lain,
So'rdi andin: ne uchun deb xanjaring.
Zanchalish dediki, men to'g'rimda kim
Bir yomon o'ylarga borsa, qo'ymagum...
Dedi badaxloq: Xudoga ming shukur,
Kelmadi ko'nglimga bundoq bir fikr.

Teri qo'ldan ketar

Ko'chada shoshib ketayotgan bir odamdan so'rashdi: "Nega buncha shoshyapsan? Ranging ham o'chgan, nima bo'ldi? Haligi odam: "Shohning ermagi uchun qayerda eshak ko'rsalar so'yib, terisini shilishyapti". "Muhtaram, sen eshak emassan-ku, nimadan qo'rqasan", – deyishibdi. Shunda haligi odam: "To'g'ri, ammo ular bu ishga shunday sho'ng'iganlarki, ularga kimligingni anglatguningga qadar teringni shilib ketishadi", – debdi.

Betamizlar elga rahbar bo'lmasin,
Eshak o'rnida tutarlar egasin.

¹ "Kalila va Dimna"dan.

Ustoz shogird

Bir shayx bilan murid bir shaharga borib qolishibdi. U yerda na non, na yeyishga biror narsa bor ekan. Shunda shogirdni g'aflat bosib, ochlikdan vahimaga tushibdi. Shayx muridining hirsidan voqif bo'libdi va muridiga nasihat qilib sabru tavakkuli bo'lishga chaqiribdi. Bu nasihat tufayli muridga tavakkul¹ quvvat beribdi.

Ho'kiz voqeasi

Bir ho'kiz orolda bir o'zi tanho yashar ekan. Orol misli jannatga o'xshar, o't-o'lan, suvga serob ekan. Ho'kiz har kuni yayrab, semirib o'tlanar ekan-da, tun bo'yi g'am-anduh chekar ekan: "Ertaga nimani yeyman?" – deb, qayg'urar ekan. Ertasi kuni orol yana yam-yashil, yashnab ko'karib turar ekan. Yillar o'tib, ho'kiz haybatli bo'lib, badani yog'larga to'lib, quvvati oshibdi hamki, bugun eb, kechasi bilan ertasini o'ylab qayg'urib chiqar ekan.

Kuzduzi sham izlab, komil insonni qidirgan kimsa

Bir kishi kuppa-kunduzi qo'lida sham bilan yurgan ekan. Uni ko'rgan odamlar: "Ey birodar, kuppa-kunduzi sham yoqib u do'kondan bu do'konga boqib nima izlayapsan?" – deyishibdi. Haligi kishi: "Shamdek tirik insonni qidirypman", – debdi. "Axir bozor to'la odam-ku", – deyishibdi. Haligi kishi: "Men bu ikki yo'llik hayotda sabrli mard kishini istayman, toki qahri kelganda mardlik qilsin", – debdi.

Shunda odamlarning biri: "U aytgan insoning kamyobdir. G'ofil ekansan, qazodan bexabar".

Ko'rganing ko'ppik emish suv uzra, g'o'r,
Hayrat istarsen, borib dengizni ko'r.

Musulmon va majusiy tortishuvi

Bir musulmon majusiyni musulmon bo'lishga da'vat etibdi. Majusiy debdi: "Alloh meni majusiy bo'lishimni istamaganda edi, men majusiy bo'lmasdim". Musulmon: "Bu nima deganing? Alloh hech zamonda kufrga rozi bo'ladimi?! Seni iymondan to'sgan o'z nafsing va shaytoningdir. Shularni yo'qot va kel, islomga kir", – debdi.

¹ "Tavakkal" - o'zini Alloh irodasiga topshirish, faqat u beradigan rizqqa umid bog'lash.

Majusiy bu safar ham eski javobini beribdi: “Agar meni iymondan to’sgan nafs va shayton Alloh istagidan ham quvvatliroq bo’lsa, unda mening aybim nima?”

Iymon ham kufr ham irodadandir. Iroda sust bo’lsa bahona ham ko’payadi.

O’g’ri

Bir kishi boqqa kirib, daraxt ustiga chiqib mevalarni qoqar ekan. Buni ko’rgan bog’bon: “Ey buzuq amal, nima qilyapsan, Xudoyimdan qo’rqmaysanmi?” – debdi. Haligi kishi: “Men bandaman, bu Xudoyimning bog’i. Xudoyim ato qilgan mevalarni yemoqdaman”, – debdi. Shunda bog’bon o’g’rini tutib daraxtga bog’labdi-da rosa savalabdi. O’g’ri qichqiribdi: “Hoy insofsiz, begunoh bandani urma”, – debdi. Bog’bon: “Men – Xudoning bandasi, bu kaltaklar esa Xudoning zarbasi”, – debdi.

Chun deding: kufrim-Xudoning xohishi,
Xohishing bordir kufrga, ey kishi.

Bir darvesh hikoyati

Hirotda Xuroson amidining arab tulporlarini minib, zarbof to’nlari kiyib, boshiga zarrin qalpoqlar qo’ndirgan, yasanib-tusangan qullarini ko’rib darvesh: “Bular qaysi amirlaru, qaysi shohlar”, – deb so’rabdi. Unga, bular amirlar ham, podshohlar ham emas, Xuroson amidining qullari, deb javob berishibdi. Darvesh: “Ey Xudo, insonparvarlikni amiddan o’rgan,” – deb qichqiribdi. Darveshning bu so’zlari shohning gustoh nadimlari qulog’iga etib boribdi va ular xo’jani gunohkor qilishibdi. Qullarini olib “Amidning mol-bisotini ko’rsating!” deb rosa bir oy qiynashibdi. Birorta qul xo’jasining sirini sotmabdi. Shunda bir kecha darveshning uyqusida sas kelibdi: “Sen insoniylikni ulardan o’rgangil”, – deb.

Majnunning sevgisi

Majnunning xesh-aqrabolari: “Layli u qadar go’zal emas, shahrimizda undanda go’zalroq qizlar bor, bir nechtasini ko’rsataylik, o’zing tanlab ol, o’zingni ham qutqar, bizni ham,” – deyishibdi. Shunda Majnun: “Layliga mening ko’zlarim bilan boqqanlaringizda edi, hammasini tushunib yetar edingiz. Men uning surat jomidan abadiy ishqning sharobini ichdim, u sharob sizga sirkadir”, – debdi.

Bir idishdan ul Xudoyi azzi jal,
Ham zahar quygay-da, ham quygay asal.

Xunuk ovozi muazzin

Bir yomon ovozi muazzin, kofirlar shahriga kelib har tong azon aytib bong urar ekan. Unga, qo'y sen azon o'qima, deb ta'na dashnom berishar ekan. Shunda bir kofir muazzinga qo'lida to'n, halvo, hadyalar bilan kelibdi: "Xushovoz muazzin qayerda?" – deb so'rabdi. Bundan ajablangan odamlar: "Ovozi qursin, qo'y uni nima qilasan?" – deyishibdi. Hadyalar bilan chiqqan kofir: "Mening bir qizim bor edi. U mo'min bo'lish orzusida, boshini bir savdo bilan band qilib qo'ydi. Oilaning ham tinchi buzildi. Qanchalik pand-nasihat qilmay kor qilmadi. Bir kun ertalab muazzinning ovozi eshitdi va "Kim kuylayapti?" – deb so'rab qoldi. Singlisi unga: "Bu bongi azon, ahli mo'minlarni namozga chorlayapti", – dedi. Bovar qilmay boshqalardan ham so'radi va shu javobni oldi. Uzoq uyga tolib, g'am-anduh chekib, musulmonlikdan ko'ngli qoldi", – debdi. Muazzinni ko'rib, uni "xush" ovozi uchun taqdirlabdi.

Bu mushukmi yo go'shtmi

Bir odamning beadab xotini bor ekan. Uyga keltirgan narsalarni isrof etar ekan. Bechora odam janjal bo'lmasin, deya sabr etar ekan. Bir kun go'sht olib kelibdi. Xotin go'shtni paqqos tushiribdi. Eri kechqurun uyga mehmon olib kelibdi va xotinidan ovqat qilib berishni so'rabdi. Shunda xotini: "Uyda go'sht yo'q!" – debdi. Shunda eri: "Go'sht olib kelgan edim-ku", – debdi. Xotin: "Ey xo'jam, so'ramang. Go'shtni mushuk olib qochib yeganini o'zim ko'rdim", – debdi. Eri shubhalanib, darrov mushukni topib, tarozuga tortibdi va xotiniga: "Xotin, agar mushuk yarim botmon bo'lsa bir botmon go'sht qayerda? Agar bu go'sht bo'lsa, gapir – bizning mushuk qani?" – deya baqiribdi.

Past va baland

Bir Ziyoyi Dalqi bo'yi bag'oyat uzun ekan. Uning birodari shayxul-islom, Toji Balxning bo'yi g'oyat kalta edi. Shayx-ul-islom birodari Ziyodan tortinar ekan. Ziyo bir kuni uning darsiga kelibdi. Balxning barcha ulug'lari u yerda nozil ekan. Ziyo salom berib, ichkariga kiribdi. Shayx-ul-islom yarim qalqib, yana o'rniga o'tiribdi.

Yetarlicha ehtirom ko'rsatmabdi. Ziyo unga qarab: "Bo'ying bag'oyat uzun, bir oz qisqart, hammasini bir yo'la qo'rsatma," – debdi.

Shoh va mot

Bir shoh xizmatkori Dilhaq bilan shatranj o'ynar ekan. Har safar mot bo'lib, jahli chiqar ekan. Shoh birma-bir toshlarni terib, "shah-shah" deb xizmatkori boshiga urar ekan. Quli esa chidab omonlik tilab o'tirar ekan. Shoh yana bir kuni shatranjni ixtiyor etibdi. Dilhaq yana qo'rquvdan titrabdi. Tosh suribdilar yana shohning omadi kelmabdi. Dilhaq qochib yetti qavat namatning tagiga kirib olibdi. Bu holni ko'rgan shoh: "Senga nima bo'ldi, bu qilig'ing nimasi?" – deb so'rabdi. Shunda Dilhaq: "Sen o'yinda mot bo'lding, men esa sening zahmingdan mot bo'ldim. Benajot berkinib olib "shah-shah" deb o'tiribman", – debdi.

Mehmon bizga tashvish bo'ldi

Bir xonadonda bemahal mehmon kelibdi. Mehmonning oldiga noz-ne'matlar qo'yib siylashibdi. Eri xotiniga: "Ikki to'shak tashla biri mehmonga to'rdan, ikkinchisi bizga eshik yonida bo'lsin", – debdi. Xotini erining aytganlarini qilib, to'y-bazmga chiqib ketibdi. Tun yarmigacha mehmon bilan mezbon gurunglashib o'tirishibdi. Nihoyat, mehmon charchab, eshik oldidagi to'shakka borib yotib qolibdi. Er xijolat chekib, hech nima demabdi, bu sening joying deb aytmabdi. Kechasi bilan yomg'ir yog'ibdi. Kechqurun xotini bazmdan qaytib, eshik oldidagi to'shakka kirib: "Erjon, mehmon kelmasin desam, keldi. Ustiga-ustak yomg'ir yog'yapti, u qayerga ham boradi. E, mehmon boshimizga tashvish bo'ldi-da," – debdi. Hammasini eshitib o'tirgan mehmon, o'rnidan sakrab turib: "Menga loy pisand emas, oyog'imda etigim bor," – deb, yo'lga chiqibdi.

Vahima

Bir takabbur, maqtanchoq so'fiy jangga lashkarlarni tortib boribdi. Jangning avj pallasiga yetganda, qo'rqqanidan orqada qolibdi. Chavandozlar ot surib, jangga kirishib ketishibdi. Jangda g'olib chiqishgandan so'ng, so'fiyga ehsonlar keltirishibdi. U rad etib, olmabdi. Askarlar: "Sovg'alarni olmading, nega yana ko'ngling g'ash?" – deyishibdi. Shunda so'fi: "Men jangda qatnashmadim, sizday ot surib dushmanga qarshi chiqmadim," – debdi. Shunda askarlar: "Tur, manavi asirni ol-da bizdan rozi bo'l," – deyishibdi.

So'fi asirni olib, chodir orqasiga o'tib ketibdi. Ancha vaqt o'tsayamki, u kelmas ekan. Askarlarning biri qo'li bog'langan asirni o'ldirish shunchalar qiyinmi deb, so'fidan xabar olishga boribdi. Qarasaki, so'fini askar bo'g'ib o'ldiryapti. Tezda dushmanni o'ldirib, so'fini qutqaribdi. Askarlar: "Nima bo'ldi, qo'li bog'langan ediku, nega yana u seni mahv etibdi". Shunda so'fi: "Menga shunday ko'zlarini olaytirib qaradiki, men uni ko'rib, jonimga darmon qolmadi, vahmu qo'rquvdan tanam qaqshab ketdi," – debdi.

Nafsnı yengish

Bir mujohid har kuni kumush to'la hamyonidan bir dirham olib, dengizga otar edi. Nafsida bir hirs, bir xohish qo'zg'alib, ko'ngliga vasvasa solardi. "Aqchangni dengizga otarkansan, hammasini bir yo'la ot, men qutulay, umid uzmoq ikki rohatning biri", – debdi nafs. "Senga shu rohatni ham ravo ko'rmayman," – debdi mujohid.

Ayoz qissasi

Podsho vaziriga bir gavhar ko'rsatib, uning qiymatini so'rabdi. Vazir: "Uning narxi yuz xarvor zar keladi," – deb aytibdi. Shunda shoh Qayqubot gavharni sindirishni buyuribdi. Vazir: "Men moludavlatıngızga do'stman. Qanday qilib sindiray," – debdi. Shoh: "Barakalla!" – deb, unga zarin to'n kiydiribdi. So'ng hojibga yuzlanib gavharni sindirishni buyuribdi. Hojib ham: "Bu gavhar qimmatbaho. Mamlakatning yarmiga teng keladi, buni sindirish uvol", – debdi. So'ng shoh gavharni amirga, ellik-oltmish beklarga qo'rsatib sindiring degan ekan. Barchasi vazirning so'zini qaytarishibdi. Navbat Ayoızga etibdi. Ayoız o'zgalarga ergashmaydigan, zarin to'n, in'omlarga uchmaydigan ekan. Shoh undan gavhar qiymatini so'ragan ekan: "Gavharning hech qanaqa qiymati yo'q," – debdi. Shoh: "Unday bo'lsa sindir!" – debdi. Ayoız gavharni kaftiga olib, shitob bilan sindiribdi. Shunda saroy a'yonlari: "Ayoız kofir ekan, u gavharni sindirdi", – deb ta'na-dashnom qilishibdi. O'zlari esa shoh amri gavharni sindirganidan bexabar ekanlar.

OLTINCHI KITOB

Og'ochdagi qush

Bir kishi yig'inda voizdan: “Bir savolim bor javob bersangiz? Og'och ustida bir qush o'tiribdi. Uning boshi afzalmi yoki dumi yaxshimi?” – debdi. Shunda voiz: “Qush shaharga yuzlansa, dumidan ko'ra boshi afzaldir. Agar shaharga dumini bursa, boshi emas dumi afzal erur”, – debdi.

Qush uchar ersa, uchar to oshiyon,
Bolu par insonga himmatdir, inon.

Sham

Bir kishi tunda bir shitir eshitibdi. Tosh chaqib, shamni yoqmoqchi bo'libdi. O'g'ri tezda kelib, yoniga o'tiribdi. Uy egasi o't yoqsa, o'g'ri esa tezda qo'li bilan bosib, o'zni so'ndirardi. Har safar shamning yonishini istamay barmog'i bilan o'zni bosar edi. Xo'ja bo'lsa shamning o'zi o'chyapti, deb o'ylar, hiylagar o'g'rini tim qaro tun ichida ko'zi qo'rmas edi.

Bo'ylakim kofir ko'ngilda, ey nigor,
Chun ko'rinmas, o'zni so'ndirguvchi bor.

Ayoz hikoyasi

Ayozning fazilati va martabasi bobida hammadan ustunligi, shohga hammadan yaqinligi, kiyim-bosh, pulining ortiqligi umaroga yoqmabdi va ular shohga Ayozi borasida arz qilishibdi. Shoh umaroga Ayozning martabasini-yu ehtiyotligi borasida bir hikoyani so'zlab beribdi.

Bir kun Shoh o'ttiz amir bilan ovga chiqibdi. Qarasaki, yiroqdan karvon o'tib ketyapti. Bir amirga buyuribdiki: “Borib surishtirchi, qayerdan kelishayotgan ekan?” Amir borib kelibdida: “Karvon Raydan kelyapti”, – debdi. Shunda shoh yana: “Qayerga ketishayotgan ekan?” – debdi. Haligi amir: “Buni surishtirmadim”, – debdi. Shoh boshqa ayonga qarab: “Borib aniqlab kelchi qayerdan kelishayotgan ekan?” Amir borib kelibdida: “Yamanga borishyapti”, – debdi. Shoh: “Karvonga nima mol ortib ketishyapti?” – debdi. Haligi amir: “Bunisini surishtirmabman”, – debdi. Shoh yana boshqa amirga karvon molini aniqlab kelishni buyuribdi. Amir borib kelib:

“Aksariyat moli Ray kosasi ekan”, – debdi. Shoh karvonning Raydan qachon chiqqanligini so’ragan ekan, amir javob bera olmabdi. Shu zail karvon haqida bilish uchun amirlari birin-ketib borib kela boshlashibdi. Shunda shohning jahli chiqib: “Qaysi kun karvon haqida ma’lumot olish borasida Ayozni imtihon qilgan edim. Borib karvon qayerdan kelyapti, bor, bilib kel-degan edim. Beishoratsiz, bebashoratsiz o’zi anglab barcha ma’lumotni etkazdi,” – debdi.

Siz o’ttiz karra qatnab, dardisar,
Ul borib, bir karrada etmishdi hal.

O’g’rilarning makri

Bir kishi qo’chqor etaklab borayotgan ekan. O’g’rilar ipni kesib, qo’chqorni o’g’irlashibdi. Sho’rlik bundan xabar topib, qo’chqorini axtarib, o’ngu so’lga yugurar ekan. Qarasaki, bir kimsa quduq boshida qayg’urib, ko’z yoshi qilib o’tirgan ekan. Haligi qo’chqorini yo’qotgan kishi: “Nima bo’ldi senga?” – deb so’rabdi. “Nimasini aytasiz, shu quduqqa bir hamyon oltinim tushib ketdi. Agar olib chiqarib bersang, yuz dinorning o’tiz dinorini senga berar edim,” – debdi. Sodda ko’ngilli kimsa o’ylab, bu o’n qo’chqorning puli-ku – deb to’nini echib quduqqa tushibdi. O’g’ri kiyim-boshini ham ilib ketibdi.

Chora top, manzilga eltsin ul seni,
Eltsa ofatga, tamah deb bil ani.

Posbon

Bir posbon navbatchiligi paytida uxlab qolibdi. O’g’rilar karvonni talab, bor bisotini shilibdilar. Ertasiga karvon ahli uyg’onib qarashsaki, karvondan nom-nishon yo’q. Karvon ahli posbonni o’rtaga olishibdi: “Senga topshirilgan omonatlar qani?” – deb so’rabdi. Posbon: “Niqob boylab keldilar-u, bor molu bisotimizni olib ketdilar”, – debdi. Karvon ahli: “O’g’rilar karvonni talon-taroj qilayotganda sen qayerda eding?” – deyishibdi. Posbon: “Bunda men ojiz edim. Ular ko’p, men bo’lsam yolg’iz edim”, – debdi. Karvon ahli: “Nega qo’zg’alnglar deb dodu-faryod solmading?” – deyishibdi. Posbon: “Tig’ bilan tahdid qilib, ovozingni chiqarsang o’ldiramiz, deyishdi”, – debdi. Shuning uchun qo’rqqanimdan og’zimni yumdim. Endi qancha xoxlasangiz dod-fig’on qilishim mumkin”, – debdi.

Ohu vohing besamardir, ey falon,
Undanam g'aflatda yurmog'ing yomon.

Ko'ngil uyg'oqligi

Bir oshiq ma'shuqasi bilan va'dalashgan joyga kelibdi-da, ma'shuqasi kelavermagach uxlab qolibdi. Tun yarmida va'dasiga vafo qilib yori kelibdi. Qarasaki, oshiq uxlab yotibdi. Yengini ochib bir hovuch yong'oq tashlab ketibdi. Tong-saharda oshiq uyg'onibdi va yong'oqni ko'rib:

Dedi: shoh etgay base sidqu vafo,
Bul o'zimdandir hama dardu balo.

Shirakayf shoh va cholg'uchi

Shirakayf turk amiri tongda uyg'onib cholg'uchini chaqiribdi. Cholg'uchi turki mast oldida ashula boshlabdi, ashulaning har bir satri "Bilmadim" so'zi bilan boshlanar ekan.

Bilmadim, oydir mu kundir tobishing?
Bilmadim, mendin ne ermish xohishing.
Bilmadim, ne turfa xizmat aylayin,
Jim turaymu yo ibodat aylayin?
Bul ajabkim, men bila bir joyda sen,
Bilmadim, men qaydayu sen qaydasen?
Bilmadim, qay bir makonda tortasen?
Goh saroyga, gohi qonga tortasen.

Amir sakrab turib, cholg'uchi qoshiga qamchi bilan yugurib boribdi. Shu payt ilkidan bir sarkarda tutib: "Mutribni afv eting. Uni o'ldirmak sizga yarashmas," – debdi. Shunda amir: "Bir so'zni takrorlab meni o'ldirdi. Endi shu qamchi bilan uni o'ldiraman. Ey nodon bilmasang, birorta bilganing bordir. Qayerliksan, kimsan, nima yeding, nima qilding shundan quyla?" – debdi. Shunda mutrib: "Bu ko'yda maqsadim yashirin", – debdi.

"Yo'q"qa og'zing juftlamay, borliq qochar,
Yo'q, desang, borliqdan olgaysen samar.

Payg'ambar (s.a.v) "O'lmasingizdan oldin o'ling", hikmatining tafsiri

Jon base chekding-ku, ozod bo'lmading,
Muddao o'lmoqlik erdi, o'lmading.

O'lmaguncha mehnating bo'lmas tamom,
Norvonsiz tomga chiqmog'ing gumon.

Nafs

Bir kishi amirdan ot-ulov so'rabdi. Amir unga bedov otni beribdi. Haligi kishi: "Bu otni olmayman, u olg'a yurmay orqaga tislani," – debdi. Shunda amir ishning yo'lini o'rgatibdi: "Nafsing ot, quyrug'i shahvat erur, shuning uchun u orqaga tislangan faqat. Ot quyrug'ini bur, ot aytgan manziliga eltadi," – debdi.

Bermasang shahvatga nonu oshini,
Ul egar aqli sharifga boshini.

Shum kampir

Yuzini ajin bosgan, yoshi to'qsonlardan oshgan bir kampir qayta erga tegish savdosiga tushibdi. Oyina oldiga o'tirib, yuzini bo'yabdi, ammo burishgan yuzi bo'yoqni ushlabdi. Ajinlarni yopish maqsadida Mushafdagi ashiru ashvani yirtib olib, yuzlariga yopishtiribdi. Ammo zarhallar ham to'kilaveribdi. Ularni tupugi bilan yonoqlariga qayta yopishtiribdi. Yana to'kilibdi. Shunda kampir: "Hoy seni ko'r shayton, la'nat bo'lsin!" – deya ming'illabdi. Buni eshitgan shayton, tezda kampirga ko'rinib, shunday debdi: "Ey shum kampir... sening bu qilg'ing umrim bo'yi xayolimga kelgan emas. Qur'ondagi zarhallarni olib, yuziga yopishtirish kimning ham aqliga keladi? Nega meni ayblaysan!? Sen hiyla va yovuzlikda yuz shaytonga dars berasan. Menga tuhmat qilma....".

Darveshning duosi

Giyloniy uyiga kelgan yo'qsil bir gadoga xayru sadaqa etibdi. Keyin gado uni duo qilib: "Manzilingga tangri eson-omon etkazsin," – debdi. Buni eshitgan Giyloniy: "Bu uy mening manzilim. Seni manzilingga tangri eson-omon etkazsin", – debdi.

Ahli g'ofil bo'ylakim kor aylagay,
So'ylama, gavhar so'zing xor aylagay.
Har kishi ham so'zni uqmog'i qiyin,
Qaddi bastni ko'r-da, to'n bichgil keyin.

Adolat mushti

Xasta bir odam shifokorga: "Tomir urishimni teshirib, dardimni aniqla", – debdi. Shifokor bemorni tekshirib ko'ribdi. Hech umid yo'q, o'limi yaqin ekan. Bemorga: "Bor, ko'ngling tusagan ishni qil.

Parhezga ehtiyoj yo'q", – debdi. Bemor xursand bo'lib ko'ngli xohishi bilan daryo bo'yiga boribdi. Qarasa, bir taqir boshli dervesh yuz-qo'lini yuvyapti. Darveshning taqir boshini ko'rishi bilan, ko'ngli aytganini qilib, qo'lini ko'tarib, bir tarsaki tushiribdi. Darvesh achchiqlanib, joyidan sakrab turibdi. U ham musht bilan javob bermoqchi bo'lgan ekan. Qarasaki, urgan odamning o'zi bir ahvol. Bir musht tushirsa o'lib qoladi. Nima qilishini bilmay, bemorni qozi huzuriga olib borib, shikoyatini aytibdi: "Bu odam hech sababsiz menga musht tushirdi. Unga jazo berishingizni so'rayman. Men bir ursam o'lib qolishi mumkin. Sen jazo bersang agar hech kim da'vo qilmaydi", – debdi.

Qozi bir darveshga va bir bemorga qarabdi. Bemorning oyoqda turadigan holi yo'q ekan. Ichi achibdi. Shikoyatchiga: "Shu odam seni urdimi? Ko'rmayapsanmi, bu odamning o'zi bir ahvol. Bunaqalar o'zi o'lik hisoblanadi. Men tiriklarga hukm chiqaraman. Voz kech, bu da'voingdan", – debdi.

Darvesh da'vosiga qat'iy turibdi: "Mening hech bir gunohim yo'q. Ammo urgani aniq, o'lik bo'lsin, tirik bo'lsin, men adolat istayman" – debdi. Qozi: "Yaxshi unday bo'lsa! Puling bormi?" – deb, darveshdan so'rabdi. Darvesh: "Olti dirham pulim bor", – debdi.

Qozi: "Uch dirhamini saqla o'zingga, uch dirhamini ul bechora bemorga ber", – debdi. Bemor qozining boshiga qarab ko'ngliga bir musht tushirish kelibdi. Zarbamni arzon pulladi qozi, unga gapim bor deb, yaqinlashib boshidan bir musht tushuribdi. "Olti tangani o'zingiz bo'lib oling, meni tinch qo'ying", – debdi bemor.

Mato o'g'irlagan tikuvchi

Bir zamonda Jigaro'g'li ismli gapdon, o'g'ri, hiylakor tikuvchi bo'lgan ekan. Mijozlarining gazlamalarini o'g'irlar ekan. Bir turk bu gapni eshitib: "U mendan hatto oddiy ip ham o'g'irlay olmaydi. Agar bir parcha gazlama o'g'irlasa, so'z beraman, shu otim sezni bo'ladi", – debdi do'stiga.

O'rtoqlari: "Voz kech, bu bahsdan, o'zingga ishonma! U qancha oqillarni mot qilgan, seni ham mot qiladi", – deyishibdi. Turk ularning gaplariga parvo ham qilmay, matoni ko'tarib, tikuvchi oldiga borib: "Menga bir yaktak tikib bersang", – debdi. Tikuvchi xushtavoze, hurmat-ehtirom bilan: "Xush kelibsiz", – deb, bulbul kabi hayotdagi yaxshi yomon kishilar haqida sayrab ketibdi. Voqealarni shunday

hikoya qilar ekanki, haligi turk uning so'zlariga mahliyo bo'lib qolibdi.

Tikuvchi: "Aziz mijozim, senga o'zi nima yarashmaydi? Kiyim degani sening ustingda tursin-da", – deb, gazlamani o'lchashni boshlab yana o'zining hikoyalarini davom ettirar ekan. Hikoyalar shunday avj olibdiki, turkning matosidan bir gaz urib kursisi ustiga yashirar ekan.

Mijoz: "Xudo haqqi, yana bir latifa ayting. Juda ma'qul bo'ldi", – der ekan. Yana bir latifa tinglab, haligi odam o'rtoqlari bilan boylagan bahsini unutibdi. Qahqahaga berilibdi va yana yolvorar ekan: "Tilingga asal, yana ayt, ayt..." – debdi. Nihoyat tikuvchi chiday olmay: "Qanaqa go'l odamsan! Yana bir latifa aytsam yaktak ustingga tor keladi, esingni yig'. Asl vaziyatni bilsang, qon yig'lar eding", – debdi.

Keksa Pop¹

Orif bir keksa popdan so'radi: "Sen keksami yoki soqolingmi?" Pop: "Men ulug'roqman, chunki soqolimdan oldin olam yuzini ko'rganman", – debdi. Orif: "Soqoling o'zgarib oq bo'libdi, lekin sen hech o'zgarmabsan. Yomon feling o'sha-o'sha", – debdi.

Noshukur ayol voqeasi

Bir xotin eriga: "Qayerlarda yurasan? Menga parvo ham qilmaysan. Sen qancha bee'tibor bo'lsang, men shuncha xorlanaman", – debdi. Eri: "Men uyqu, dam olishni bilmayman. Shu ro'zg'orga rizqu-ro'z izlab yuribman. Yeb, ichishing, kiyinishing obi tobida bo'lsa, senga yana nima etishmaydi?" – debdi.

Ayol ko'ylagi engini ko'rsatib: "Ko'ylagim bir dag'al bo'zdan, tanamni tirnaydi. Shu mening jismimga mosmi?" – debdi. Eri: "Bir savolim bor senga, shu dag'al bo'z senga nopisand bo'lsa, o'ylab andisha qilib javob ber:

Bu dag'almu yo dag'alroqmu taloq?

Ul yomonmu yo yomonroqmu firoq?" – debdi.

Shayx va murid

Bir darvesh shayx Haraqoniy(q.s.)ni qidirib shayx xonadoniga kelibdi. Uyni taqillatgan ekan, shayxning xotini chiqibdi. Darvesh

¹ Masal

shayxning xotinidan: “Shayx qayerda, uni qayerdan izlay?” – debdi. Xotini: “U hiylagar, ayyorni nima qilasan? Bir to’da go’l odamlar har safar uni so’rab, ahmoq bo’lib, uning so’zlarini tinglab o’tirishadi. Yaxshisi qayt izingga, u lofchini nima qilasan?” – debdi. Jahli chiqqan darvesh: “Bo’ldi, bas. So’zlaring safsata. Sening bu so’zlaring ustozimga bo’lgan mehrimni kamaytirmaydi. Bu yo’limdan qaytara olmaydi. Murid shayx eshigidan qaytib, odamlardan shayxni surishtiribdi. Ular shayx falon o’rmonga ketgan deyishibdi. Murid murodiga yetib, o’rmon yaqinida shayxni uchratibdi. Qarasaki, shayx arslonga o’tin orqalab, o’zi ham minib olgan, qo’lida ilondan qamchi qilib olgan ekan. Darvesh shayx bilan suhbat quribdi va xotining fitnasidan so’z ochibdi. Shayx:

Olmasam ustimga ul xotin yukin,
Ustiga olgaymu erdi sher yukim?

Musulmon, nasroniy va yahudiy voqeasi

Musulmon, nasroniy va yahudiy sayohat etishar ekan, bir manzilda ularga bir saxiy kishi non bilan holva tutqazibdi. Nasroniy va yahudiy qorinlari to’qligi tufayli “Halvo va nonni ertaga ertalab yeymiz”, – deyishibdi. Ammo musulmon ro’za tutganligi uchun qorni och ekan. Ertalab bo’lganda uchovlari turib, yuz-qo’llarini yuvib, o’zlariga oro berishibdi. Har birlari o’z qurbicha duo qilishibdi va bir davra bo’lib, o’tirib olishibdi. Nasroniy: “Kim agar eng yaxshi tush ko’rgan bo’lsa holva va nonning hammasi o’shaniki. Ko’rgan tushlaringizni so’zlanglar”, – debdi.

Hammadan oldin juhud so’z boshlabdi va tushida Musoni ko’rganini va Muso uni Tur tog’iga etganini bod-bod takrorlab, maqtanibdi. Keyin hikoyani tarso boshlabdi. U tushida Masihni ko’rgani va Masih uni to’rtinchi ko’kka olib chiqqanini maqtabdi. Navbat mo’minga kelibdi, shunda u: “Men tushimda Muhammad Mustafoni ko’rdim. U kishi: “Bir do’sting Muso bilan Tur tog’iga boribdi, bir do’sting esa Masih bilan to’rtinchi samoga uchibdi. Sen bechora Oллоh, degin. Ularni ko’p kutma, baribir qoshiga bora olmayсан. Shuning uchun, bor non bilan halvoni yegin”, – dedi”, – debdi.

Do’stlari hovliqib: “Muncha cho’zma non va holvani yeb qo’ydingmi?” – deyishibdi. Shunda mo’min: “Menga shoh formon berdi, qanday uning amrini qilmay? Sen juhud Muso amr etsa

bajarmaysanmi, senchi tarso Masih amrini bajo keltirmaysanmi? Anbiyo amrini yo'q, deb bilmadim, sarhushligimdan non va holvani yeb qo'ydim", – debdi. Do'stlari hayratlanib: "Tushing juda ajoyib ekan, xuddi bedorlikday", – deyishibdi.

Tuya, ho'kiz va qo'chqor

Tuya, ho'kiz va qo'chqor yo'lda bir chimdim ko'katga duch kelishibdi. Ko'chqor: "Ko'katni uchga bo'lib, yesak hech kim to'ymaydi. Kelinglar, yaxshisi har kishi o'z tarixini so'ylasin, kimning yoshi ulug' bo'lsa, o'sha o'tni yesin. Meni yoshimga keladigan bo'lsak, anchayin ulug' Ismoil payg'ambarga borib taqaladi", – debdi. Ho'kiz bo'lsa: "Mening yoshim ulug'roq. Men tufayli qo'sh qo'shib, qo'sh haydagan Odam Ato", – debdi. Tuya qo'chqor va ho'kiz hikoyasini tinglab bosh egib ko'katni uzib olib, bir ikki chaynab yamlab yutibdida: "Shartmi tarixni aytish, esli-hushli odam jussamga qarab yoshim sizdan kam emasligimni sezadi", – debdi.

Zolimning xayri...¹

Podsho juma kuni Jome masjidga ketayotgan edi. Soqchilar ko'chada to'plangan xalqqa bir tarafdin yo'l bo'shating deb baqirar, bir tarafdin tepib, tayoq bilan urib, yo'l ochayotgan edi. Ojiz bir kambag'al soqchilardan o'n darra yedi. Boshi, ko'zi qontalosh bo'ldi. Zulmga chiday olmadi. Qo'llarini ochib, podshohning orqasidan shunday baqirdi: "Qilgan oshkora zulmingni qara! Alloh saqlasin. Masjidga borayapsan, go'yo yaxshi ish qilayapman, deb o'ylaysan. Yaxshi ishing shu bo'lsa, yomonliging qanday, kim bilsin?" – debdi.

Termiz podshohi Sayyidning farmoni

Termiz podshohi Sayyid bir ish yuzasidan: "Kimda-kim uch yoki to'rt kun ichida muhim bir ish yuzasidan Samarqandga borib kelsa, unga bir hamyon tilla beraman!" – deb farmon beribdi. Jarchilar bu farmonni mamlakatning barcha shahar va qishloqlariga yetkazishibdi. Qishloqlik Dalhaq degan kimsa bu farmonni eshitib, zudlik bilan otiga minibdi-da, to'xtamay ot surib, Termizga etib kelibdi. Uning shunchalik shiddat bilan kelishidan odamlarga vahima uyg'onibdi, xalqqa mish-mish tarqalibdi. Hamma bir noxush voqea yuz berganmi,

¹ Masal

deb o'ylab yuragini hovuchlabdi. "Chopar" Dalhaq manzilga yetib kelib, to'xtabdi. Hamma odamlar uning og'ziga qarab, biron noxush xabar keltirgan, deb ko'ngillari notinch ekan. Shoh bo'lsa Xorazmshoh qo'shin tortib kelyaptimi, deb o'ylar ekan. Shunda unga gapir deyishibdi. Dalhaq: "Nafasimni rostlab olay", – deb, hammani intizor qilar ekan. O'ziga kelgandan keyin farmonni eshitib, foyda olish maqsadida ot choptirib kelganini aytibdi. Shunda shoh: "Ey, qilig'ing qursin, arzimas shu so'zni, deb hammani tinchini buzingmi. Buni zindonga tashlanglar, toki nafsini jilovlay bilsin!" – deb, buyruq beribdi.

Ba'zi xomlar ilkida tablu alam,
Deydilarkim, bizdadir faqru adam.

Sichqon va qurbaqa

Kunlardan bir kuni qurbaqa anhor bo'yida suvdan sakrab chiqsa, uyasidan chiqib turgan sichqon, uni ko'rib, salom beribdi. Qurbaqa alik olibdi. Ikki orada do'stlik paydo bo'libdi. Sichqon do'sti bilan suhbatlashib turgisi kelar ekan. Ammo qurbaqa suvga sho'ng'ib ketaverar ekan. "Men sen bilan chaq-chaqlashib, yurgim keladi. Sen bo'lsang bir soniya suhbatlashmasdanoq suvga tushib ketaverasan", – debdi, sichqon o'pkalab. "Uzun ip topaylikda bir uchini sening belingga, ikkinchi uchini esa mening belimga bog'lab qo'yaylik, qachon kerak bo'lsang, ipni tortsam chiqib kelaverasan", – deb, maslahat beribdi, sichqon qurbaqaga.

Shunday qilishibdi ham. Itiffoqo bir kuni sichqon uyasidan chiqib oftobda yotgan ekan, uchib borayotgan lochin sharta changallab osmoni falakka ko'taribdi. Ipining ikkinchi uchida qurbaqa ham jon hovuchlab borar ekan.

Bugungi ishni ertaga qo'yma

Atrofi to'la kumush tanga bo'lgan bir boy yonidagi so'fiyga: "Bugun senga bir chaqa beraymi va yo ertaga uch chaqami?" – deb so'rabdi. U ham: "Kecha yarim chaqa bersayding, bugun beradigan uch chaqangdan yahshi edi. Hozir beradigan bir chaqang ham, ertangi yuz chaqangdan avlodir. Zero, naqd in'om nasiyaga beriladigan ehsondan yahshiroqdir", – debdi.

Shuning uchun, ey jonimning joni esingni yig', vakili bo'lgan zamonangning qadrini bil.

Sulton Mahmudning voqeasi

Tunda shoh Mahmud bir o'zi tanho shahar kezibdi. Uning qarshisidan o'g'rilar chiqishibdi. Shunda ular: “O'zingni tanit, kimsan?” – deyishibdi. Shoh: “Men sizlarga o'xshagan o'g'riman”, – debdi. O'g'rilarning sardori gap boshlabdi: “Unday bo'lsa kelinglar harkim o'z hunarini, nimaga qodir ekanligini aytib bersin”, – debdi. Bittasi so'z boshlabdi: “Ey do'stlarim, mening quvvatim ikki qulog'imda. It hursa ham nima deyayotganini bilaman”, – debdi. Keyingisi esa: “Mening nazarim o'tkir, tunda biron kishiga duch kelib qolsam kunduzi uni tezda taniyman”, – debdi. Yana biri so'zlabdi: “Men zabardastman. Bir urib bexato tuynuk ochib bilaman”, – debdi. Bittasi: “Mening hamma xosiyatim burnimda, tuproqni hidlaganimda madanlarni ajratib bilaman”, – debdi. Yana biri: “Men bexato kamon otib bilanman”, – debdi. Hammasi so'zlagandan so'ng, shohga yuzlanib: “Sening qanday hunaring yoki xislating bor?” – deyishibdi.

Shunda shoh: “Hamma hikmat mening soqolimda. U sizlarni balolardan qutqaradi. Agar jallod boshlaringizni olishga shay tursa, boshimni qimirlatganimda jallod boltasi boshlaringizga kelib tushmaydi”, – debdi. Shunda o'g'rilar: “Unda sen boshchimiz bo'lasan, qora kunlarimizda bizni qutqarasan”, – deyishibdi.

So'ngra hammalari turib, shoh saroyi sariga yo'l olishibdi. Bitta o'g'ri ko'ppakday hurib saroydagi it so'zlarini anglab olibdi va: “Sulton biz bilan ekan”, – debdi. Bunga ishonmasdan boshqasi hidlab xazina joyini ko'rsatibdi. Kamonchi kamonini otib, arqon bog'labdi. Boshqasi bir urgan ekan, devorda katta teshik ochilibdi. Hammalari shoh xazinasidagi simu-zarlarni xaltalarga joylab, olib ketibdilar. Ularning manzilini bilib olgan shoh, o'zini chetga tortibdi va ertasi kuni saroy ahliga bo'lib o'tgan voqeani so'zlab beribdi. Shoh manzilni tushuntirgandan so'ng, mirshablar borib, o'g'rilarni olib kelishibdi. O'g'rilar taxtga o'tirgan shoh kechagi hamrohlari ekanini tanishibdi.

Bir hunar ko'rsatdi har kim besukun,
Ki ulardin bo'ldi badbaxtlik fuzun.

Suv buqasi va tojir

Har tunda, suv buqasi og'ziga gavhar olib sohilga chiqar edi. Gavhar yorug'ligida o't-o'lanlardan mazza qilib tanavvul qilar edi. Gohi-gohida emak izlab gavhardan uzoqlashgan zamon tojir kelib gavharni loy bilan bejab qo'yar edi. Yorug'lik yo'qolganidan

asabiylashgan suv buqasi gavharini qidirib kelib, o'rniga loy turganini ko'rib, qo'rqqanidan qochib qolar edi. Tojir bo'lsa gavharli bo'lib qolar edi.

Qaysi bir tuproqda gavhar bor emish,
O'zga tuproqdin anga asror emish.

Buxorolik Sadri Jahon voqeasi

Buxorolik Sadri Jahon degan shoh o'z yurtida ovoz chiqarib sadaqa so'raganni sadaqadan mahrum etibdi. Buni esidan chiqargan darvesh ovoz chiqarib sadaqa so'ragan ekan, har safar Sadri Jahon unga sadaqa bermabdi. Darvesh har kuni bir hiyla o'ylab topar ekan. Goh chodir yopib xotin qiyofasiga kirar ekan. Yuz-ko'zini berkitib ko'r qiyofasiga o'zini solar ekan. Sadri Jahon har gal uni tanib sadaqa qilmas ekan. Ertasiga darvesh o'zini o'lganga solib, namatga o'ralib yo'l chetiga yotib olibdi. Sadri Jahon o'tar chog'i namatni ko'rib tanga tashlabdi. Shu payt namatdan darvesh qo'lini chiqarib pulni olar ekan: "Hoy Sadri Jahon, oxiri sadaqangni oldim", – debdi. Shunda shoh: "Nima makru hiyla ko'rsatmading, ko'rdingmi o'lmaguncha bir vaqo ololmading", – debdi.

Bir ko'sa va o'spirin aka-uka hikoyasi

Bir ko'sa bilan xunuk o'spirin aka-ukalar yo'l bosib, bir manzilga yetib kelibdilar. Kech kirgani uchun tunashga joy hozirlabdilar. Ko'sa tezda uxlab qolibdi. O'spirin esa yoniga g'ishtlarni yig'ib qo'yibdi. Bir shilqim kelib, uning g'ishtlarini olayotgan ekan, o'spirin bu holni ko'rib: "Nimaga mening g'ishtlarimni olayapsan?" – deb qichqiribdi. "Nimaga g'ishtlarni oldinga to'dalab qo'yding?" – deb shilqim so'rabdi. Shunda o'spirin: "Meni tengdoshlarim xushlamaydi, erkaklar o'z safiga qo'shmaydi, ayollar Yusuf misolida qabul qilmaydi. O'zimni himoya qilish maqsadida g'ishtlarni yig'ib qo'ydimda", – debdi. Shilqim: "Ko'saning holini ko'r, mazza qilib hordiq olyapti. Sen kabi ko'ngli qora emas, ko'ngil ko'zingni och, qalbingni keng tut, shunda qadringni topasan", – debdi.

Yuzta qulf urgay eshikka g'ayrating,
Bittasi ochgay, o'margay davlating.

Podsho va donishmand hikoyati

Podsho bazmda mast ekan. Uyining oldidan bir faqih o'tib ketayotganini ko'rib, navkarlariga faqihni olib kelishni buyuribdi.

Ular faqih qarshilik ko'rsatsa ham majburlab olib kelishibdi. Podsho: "Faqihga ham may quytinglar!" – debdi. Faqih: "Menga may o'rniga zahar beringlar, sizlarning davralaringda o'tirgandan ko'ra zahar ichib o'lganim afzal", – debdi. Shunda shoh soqiyga: "Faqih xafa ko'rinadi, uning ko'nglini ko'taringlar", – debdi. Shunda soqiy, faqihning boshiga bir musht tushiribdi. Faqih boshqa musht emaslik uchun qo'rquvdan may icha boshlabdi. U mast bo'lib, podsho haramidagi kanizaklarga ko'z olaytira boshlabdi. Buni sezgan podsho: "Biz may ichsak ham hech kimni xafa qilmaymiz, me'yorni bilamiz. Sen hammaga donishmandligingni pesh qilasan. Bir musht zarbi bilan iymoningni sotding-ku", – debdi.

Darvesh va pastkash kishi¹

Darveshga bir pastkash kishi: "Kimligingni biror kimsa bilmaydi?" – debdi. Darvesh: "Men g'aribni kim ham bilardi. Kimligim boshqalardan ko'ra o'zimga ayon. Buning aksi bo'lsa, boshqalar meni bilsayu men o'zimni bilmasam, bundan yomoni yo'qku. Mayli men nodondirman, lekin baxtliman. Aqlim shu baxtimdan madad oladi", – debdi.

Xazina

Bir odamga katta meros qoldi. Biroq "oson kelgan, oson ketadi", deganlaridek, tadbir bilan sarflamadi, qisqa paytda butun boshli merosni tugatdi. Qo'lida nima bo'lsa, yeb bitirdi. Hech vaqosi qolmagach, Allohga yukindi, har oqshom ko'z yoshi to'kib duo qilardi: "Yo Rabbim! Menga boylik berding, mulk berding. Hozir esa ular qo'limdan ketdi. Aybimni bilaman. Xato qildim. Menga yordam qil, meni qutqar bu zillatdan. Yo marhamat qilib, bir tirikchilik ber yoki jonimni ol!"

Kunlar, oylar yolvorishlar bilan o'tdi. Nihoyat bir kecha tush ko'rdi. Bir ovoz unga: "Sen Misrga bor, o'sha yerda omading chopadi – u yerda boy bo'lasan. Misrda topadigan xazining seni kutyapti", – derdi.

Odam uyg'onib sevinchidan telba bo'layozdi. Darhol Misrga borishga hozirlik ko'rdi...

¹ Masal

Necha kun Misrda och, suvsiz kezib yurdi. Na xazina, na birorta qo'lidan tutgandan darak bo'ldi. Chorasizlikdan tilanchilik qilishga qaror qildi, ammo "Oqshom tushgach, tilanchilik qilaman, qorong'uda hech kim meni tanimaydi", – deb o'yladi. Qorong'uda mahalla ichlarini kezdi. Endi qo'l ochishga chog'langan ediki. Mahalla mirshabi paydo bo'lib, uni o'g'ri deb o'ylab do'pposlay boshladi. Joni og'rigan odam: "Urma! To'g'risini aytaman", – deb yolvora boshladi. Mirshab: "Yaxshi... begonaliging holingdan aniq. Tushuntir, yo'qsa hamma o'g'rilarning alamini sendan olaman", – debdi.

Odam boshidan o'tganlarini aytib beribdi. "Ko'rdingmi men o'g'ri emasman. Xazina ilinjida Misrga kelgan g'arib bir bechoraman", – debdi. Mirshab ishonibdi va kulib: "Senga ishondim, sen o'g'ri emassan, ammo g'irt ahmoqsan. Men ancha yillardan beri "Bog'dodda falon mahalladagi falon uyda xazina ko'milgan"ligi haqida tush ko'raman, lekin senday axmoqlik qilmadim", – debdi.

Odam hayron qolibdi. Mirshabning tushida ko'rgan, manzili haligi odamning manziliga to'g'ri kelar ekan. U o'z-o'ziga: "Demak men xazina ustida o'tirgan holda faqirlikdan nolib yig'lar ekanman", – deb, allohga shukr qilibdi.

Xotinning makri qozini yengadi

Juhi ismli aqlli, ammo juda kambag'al bir odam bor edi. U xotiniga: "Ey xotin! Bu yo'qchilik jonimizga tegdi. Senda bu go'zallik, bu chehra bor ekan, aqlingni ishga sol-da, bir tuzoq qur, boy bo'laylik. Faqat qurgan tuzog'ingga o'zing tushib qolma", – debdi.

Xotin o'ylabdi va bir tuzoq hozirlabdi. Erining ustidan shahar qozisiga shikoyat etish rejasini tuzibdi. Ertaga yasanib mahkamaga borib, qoziga uchrabdi: "Erimdan shikoyatim bor, boshqalarga ko'ngil berdi, menga beparvolik qilyapti", – deb yig'labdi, borini to'kib solibdi. Qozi shikoyatchini boshdan oyoq kuzatib: "Ey sarvar bo'yli go'zal! Mahkamada g'ala-g'ovurda seni eshitmayapman. Tanho bir yerga boraylik-chi", – debdi. Xotin fursatdan foydalanib: "To'g'ri gapiryapsiz. Bu joriyangizning uyi bo'm-bo'sh. Erim bo'lmish landovur, qishloqqa ketgan.", – deya, shirin gaplar aytibdi. Qozi tun yarmida uyga boribdi. Xotin uni ichkariga kiritgach, eshik taqillay boshlabdi. Xotin bezovtalik bilan: "Ey Xudo! Erim keldi. Sen tezda sandiqqa yashirin. Yo'qsa ikkimizni ham o'ldiradi", – deb qozini sandiqqa joylabdi. Qozi sandiq ichida dir-dir titrar edi.

Xotin eshikni ochishi bilan, Juhi gapirishni boshladi: “Ey xotin, sendan nima ko’rdim. Eshikni hatto menga kech ochayapsan. Borimni, yo’g’imni senga bag’ishladim. Ammo xursand qilolmadim. Uyda bir shu sandiq qoldi. Uni ham ertaga bozorga sotaman. Sotilmasa bozor o’rtasida yoqaman”, – debdi.

Xotini: “Bunday qilmang”, – deya Juhiga qarshilik ko’rsatibdi. Juhi bir arqon olib kelib, sandiqni mahkam bog’labdi va yotibdi. Ertasi kuni ertalab, Juhi hammol chaqiribdi va sandiqni ko’tarib bozorga yo’l olibdi. Qozi sandiqdan “Hammol, hammol...”, – deya chaqirib: “Ey hammol, men shaharning qozisiman. Sen sandiqni qo’yib-qo’ymas mahkamaga bor. Noibga uchrash, holatni tushuntir. Qancha bo’lsa-bo’lsin, sandiqni olsin. Senga yuz oltin beraman”, – debdi. Hammol mahkamaga borib, noibga hammasini tushuntiribdi. Noib bozorga kelib Juhidan sandiqni tezda ming oltinga sotib olibdi.

Oradan bir yil o’tgach, Juhi xotini bilan pullarini yeb bitirishibdi. Xotin yana eri ustidan shikoyat qilish uchun mahkamaga borgan ekan, Qozi uni darrov tanib: “Siz bu o’yinni o’tgan yili o’ynab meni tuzoqqa tushirgandingiz. Endi qimorni boshqa birov bilan o’ynang”, – deb mahkamadan quvibdi.

Xayol¹

Ona farzandiga: “Tunda, qorong’ulikda xayolingga har xil narsalar kelsa qo’rqma. Uni bostirib bor, quvlasang shaytoniy xayoling qochib ketadi”, – debdi. Shunda bola: “U shaytonga ham onasi shunday pand bergan bo’lsa, shubhasiz u ham menga tashlanadi. Unda nima qilay?” – debdi.

Qo’rqma, deb ta’lim berar sen har mahal,
Shum xayolga ham murabbiy bor magar.

Suton Mahmud va uch shahzoda...

Alloma vafoti tufayli “Masnaviy” shu hikoyaga kelib to’xtaydi.

¹ Masal

HIKMATLAR¹

Fahm borasida

Tan, vujuding ko'za ermish, fahm – suv,
Ko'za sinsa, suv to'kilgay, turmas u. [306 b.]

Aylama xarjingni andoq behisob,
Xarj etar chog'ida avval qil hisob. [353 b.]

Bog'da zog'lar sayrasharkan erta-kech,
Bulbul ul xonishni tark etgaymu hech? [639 b.]

Har kishi ham so'zni uqmog'i qiyin,
Qaddi bastni ko'r-da, to'n bichgil keyin. [677 b.]

So'z, til borasida

Puxtaning holini hech bilgaymu xom?
Muxtasar etgil so'zingni, vassalom. [8 b.]

Til temirga, toshga ham o'xshash erur,
Tildan uchgan so'z gahi otash erur. [56 b.]

Bir suxan olamni vayron aylagay,
Tulkini o'rmonda sulton aylagay. [57 b.]

So'zni ham tinglash kerakdir, avvalo,
So'ngra shul yo'l birla yur mantiq aro. [58 b.]

Ilmu hikmat ochilur pok luqmadin,
Mehru shafqat sochilur pok luqmadin.
Luqmada ersa hasad yo makru dom,
Jahlu g'aflat keltirur andoq harom.
Arpa olmaysen axir bug'doy ekib,
Ot degan toychoq tug'ar, tug'mas xo'tik.
Luqma – g'alla, hosili – andishalar,

¹ Rumiyl Jaloliddin. Masnaviyi ma'naviy /Forsiydan Jamol Kamol tarj. – T., "MERIYUS" XHMK 2010. – 846 b.

Luqma – dengiz, gavhari – andishalar.
Luqmadin kirgay og'izga har qachon:
Mayli xizmat, azmu orzuyi jahon. [58 b.]

So'z kim, uchgay tilingdin ul hamon,
O'q degil, uchmish kamondin beomon. [58 b.]

Ey zabon, ozori dunyosen o'zing,
Ne degaymen senga, go'yo sen o'zing.
Ey zabon, otash senu xirmonsen,
Bo'ldi, bas, xirmonga otash urma sen. [60 b.]

Odamiy pinhon erur til ostida,
Til misoli pardadir jon ustida. [155 b.]

Parcha go'shtning nomi tildir kim, nuqul,
Oqizur daryoyi hikmatlarni ul.
So'ng quloqlarga eturlar, so'ngra xush
Jon gulistoniga, unda aqlu hush. [202 b.]

So'zlaguvchi holini bilmas ko'ngil,
So'zlamas holin magar bilgaymi ul? [288 b.]

Tinglamoqqa so'zga ham loyiq kerak,
Anglatur so'z unga chun toshu kesak... [338 b.]

So'zla so'z kim, oqsin ul to'lqin urib.
So'ng asrlar qo'yniga borsin kirib. [318 b.]

Yangi so'z uchrar, tarovatlig' kalom,
Ertaga undan-da to'ygaysen tamom.
Sen agar illatni o'z din haydasang,
Eskicha so'zlar yopingay yangi rang.
Eski so'zlar yangi yaproqlar yozur,
Gul ochib, xusnu tarovat ko'rgizur. [323 b.]

Dedi Payg'ambarkim, so'zda sehr bor,
Chin demish bu so'zni sohib iqtidor. [363 b.]

Anjumanda ersa so'z sevguvchi ul,
Anjuman ichra socharmen necha gul.
Hozir ersa so'zni so'ndirguvchi zot,
So'zlarim dildan ucharlar shul zahot. [427 b.]

Bo'lmasa ul kimsa gar ahli qunut,
Jumla ahmoqqa javobingdir sukut...
Baski, nodonning javobidur sukun,
Muxtasar qil, gapni cho'zgaysen nechun? [432 b.]

Qopda ne, shirinmikan achchiqmikan?
Orqalab yurmoqqa ul arzirmikan?
Arzisa, mayli, ko'tar qoping to'la,
Yo'qsa, axlatni bo'shatgil bir yo'la. [434 b.]

Bo'ylakim beixtiyor so'z kelmagi,
Esnamoq yo aksa urgandek gahi. [485 b.]

So'ylaguvchi, tinglaguvchi, so'z faqat,
Shul uchovdin jon yaralgay oqibat. [641 b.]

So'zki nozik tortdi, lozimmas qalov,
Bas, qalashirma, pasaytirgil olov.
Qaynagay mo''jaz qozonlar har nechuk,
Yupqadir idrok qozoni ham kichik. [641 b.]

Barg degan aslida so'zdir, guftugo'y,
Ostidin olma taratgay atru bo'y. [641 b.]

Muxtasar etgil so'zingni, cho'zma chun,
Cho'zma gapni, deb buyurmish amri Kun. [660 b.]

Jim turish ham o'zga ma'no tortadir,
Man' etilsa, unga mayling ortadir. [660 b.]

To'g'ri so'z – nurdir, ko'ngilni tinchitar,
Har nechuk yolg'on uni notinch etar. [716 b.]

Til-ko'ngil uzra chekilgay parda ul,
Silkinarkan parda asror ochilur...
Tinglasang, so'zni, birovning nutqini,
Rostmu yolg'on, atri bildirgay uni. [786 b.]

Til-qozon ustida qopqoqdir mudom,
O'ynasa qopqoq, bilingaydir taom.
Hidi oshkor aylagay pinhonligin,
Ul taomning shirinu nordonligin. [787 b.]

Ko'ngil borasida

Ersa ko'ngil ko'zgusi shaffofu pok,
Aks etur naqshlar, ko'rinmas obu xok. [133 b.]

Ko'zni yumsang, dilni bosgay qayg'u muz,
Panjara nuriga hech qongaymu ko'z? [145 b.]
Meva avval fikru ko'ngilda bitar,
So'ng og'ochda o'zni ul zohir etar. [159 b.]

Sen ko'ngil bo'stoniga qo'ygil qadam,
Boshqa joyda senga yuz ochgay sitam. [260 b.]

Haqni topding, o'zgalardin ne samar?
Haq dilingda, nega izlarsen bashar? [302 b.]

Turmasin ko'nglingda kir, quvgil uni,
Yig'la, ko'z yoshing bila yuvgil uni. [306 b.]

Loy g'uborsiz, u ko'ngil, sof o'shal,
Chashmadek moviy, tiniq, shaffof o'shal. [310 b.]

Loyqa suvni sen ko'ngil deb o'ylading,
Ahli dildan dilni ayro aylading. [310 b.]

Dil necha xosu avomning ko'nglimas,
Dil bo'lur bir kimsaning ko'ksida, bas. [311 b.]

Har kishining ko'ngli pok ersa, halol,
Bas, duosi yuksalur to Zu-l-jalol. [312 b.]

Ko'zu ko'ngilni chekar ul asba'ayn,
Kotib ilkida qalamdek, ey Husayn. [325 b.]

Har kishining aksi bor, ko'rgil ayon,
Kimga ko'ngling tortsa, o'ltir yonma-yon...[339 b.]

To ko'ngil birlan ko'ngil payvast ekan,
O'rtada manzil, masofa ne pisand...[372 b.]

Bul jahon xumdir, ko'ngil nahri ajab,
Bul jahon uydin, ko'ngil shahri ajab. [412 b.]

Bas, ko'ngil sahnida fikring gurkirar,
Ham ko'ngil rozini ochgaydir ular. [427 b.]

Tilda hamdu dilda nafrat bo'lsa chun,
Aytganing talbis yoki fusun. [439 b.]

Ko'zi ko'ngli nur ila ermish chaman,
Boisi – yurt sevgisi, hubbul vatan. [488 b.]

Qalbaki otashda bo'ldi yuz qaro,
Qalbaki qalblarga hech topgaymu roh?
Qalbaki urgan nuqul lofi mahak,
Toki tushgay toza ko'ngillarga shak. [502 b.]

Sen shikasta dil bila etgil duo,
Ki shikasta dildadir fazli Xudo. [520 b.]

Sohibi dil olti yuzli ko'zgu ul,
Haq anga olti tarafdin ko'z solur. [531 b.]

Senga ko'ngildir nechuk, men ham chunon,
Onalarning poyi ostida – jinon.
Elga ota-ona ermishdir ko'ngil,
Baxtlidir ko'ngilni ko'rgan kimsa ul. [532 b.]

Tinglaguvchi – parcha etu ustuxon,
Anglaguvchi – qalb erur, bir tomchi qon. [562 b.]

Chunki ul ko'ngil g'ubordin xolidir,
Yo'q ajabkim, oyina timsolidir.
Lek sening ko'ngling qaro ermish base,
Devu shayton unda in qurmish base. [592 b.]

Dedi Payg'ambar: istaft ul-qulub,
Muftilar fatvosi garchi yaxshi, xub.¹ [650 b.]

Bo'yla ko'ngil gar dalolat etsa naqd,
Baxsh eturmen bandalarga mulku baxt. [731 b.]

Mehnat borasida

Kimki xizmat etsa bisyor sidq ilan,
Bo'yla bir ne'matdin o'lgay bahramand. [344 b.]

Nafsi mo'min ham magar bo'rsuqdir ul,
Mehnatu zahmat ila komil bo'lur. [390 b.]

Har kishiga ish quroli xub emish,
Garchi jonsizdir, base mahbub emish. [414 b.]

O'lmaguncha mehnating bo'lmas tamom,
Narvonsiz tomga chiqmag'ing gumon. [661b.]

Ey azizim, qo'yki, har kimsa bilar,
Yerga nisbat ko'kda yuksakdir hunar. [713 b.]

¹ Baytning mazmuni: Payg'ambar dedikim, muftilar garchi yaxshi fatvo berishsa-
da, sen avvalo qalbing ila kengash.

Nafs – hirs, tama' borasida

Kimki ochko'z, ko'zasi pur bo'lmagay,
To sadaf qoni emas, dur bo'lmagay. [8 b.]

Mol nedirkim, molni deb sen g'am esang,
Xok nedirkim, sen agarda xas yesang. [24 b.]

Hech qachon nafsingga sen do'st bo'lmagil,
Chunki Alloh yo'lidin urguvchi ul. [98 b.]

Qo'ydi odam bir qadam, ul zavqi navs
Bo'ldi jannatning firoqi, tavqi navs. [131 b.]

Nafs agar bir o'zga nafsga yor emish,
Aqlu hush chun otilu abgor emish. [131 b.]

Nafs agar nafs birla xush, xandon bo'lur,
Zulmat ichra yo'l base pinhon bo'lur. [131 b.]

Nafsni o'ldirding, qozonding e'tibor,
Dushmaning yo'q endi, xavsizdir diyor. [153 b.]

Nafs – xotin, balki xotindin batar,
Ersa xotin – juzv, nafsdur kulli sharr.[196 b.]

Muttaham aqli sharifmas, nafs erur,
Muttaham nuri latifmas, his erur.
Nafs doim badgumondir, ur uni,
Hujjatu isbot kiritmas aqlini. [233 b.]

Xilma-xildir nafs ul, nafsi balo,
Nafsingizni o'ldiring, deydi Xudo.
Nafs ul o'tkir tikandir, tig'dayin,
Sanchilur qattiq, qutulmog'ing qiyin.
Yoq tikanni, sen uni otashga ber,
Qo'lni bir do'sti anis, dilkashga ber. [256 b.]

Odamiyni bo'ylakim hirsu havas
Toki qirq yoshigacha tark aylamas. [296 b.]

Nafsni o'ldir sen, jahonni zinda qil,
Xo'jakushdir ul, o'zingga banda qil. [318 b.]

Muddaiy nafsingga aslo berma gal,
O'z-o'zini xo'ja etmishdir o'shal. [318 b.]

Xona ichra nafs esa, aqling xarob,
Qopqasi oldida it – sheri mahob. [319 b.]

Nafs agar nafs birla esh, hamdam bo'lur,
O'rtada mehru vafo kam-kam bo'lur. [323 b.]

Nafs ul illatga bergaydir rivoj,
Ma'rifat bo'lgay zalolatga xiroj. [323 b.]

Chun samumi nafs birla xastasen,
Har ne olsang, bir baloga bastasen. [323 b.]

Nafsi badga kimda kim ehson etar,
Bilmagay ne'matni ul, kufron etar. [332 b.]

Nafsi avval urdi soniy nafsga do'q,
Dumdin ermas, boshidin aynir baliq. [334 b.]

Odamiyga faqru ojizlik – omon,
Nafs balosi hirsu g'amlarga makon. [340 b.]

Hirs, havas deb dahr aro yurgay kishi,
O'z-o'zini otashga kuydurgay kishi. [353 b.]

Baxlidir ul kimsa nafsin xor etar,
Voy, ulkim, hirsini gulzor etar...[355 b.]

Nafs ila shayton amalda bir badan,
Gar ko'ringay ayru surat, ikki tan. [363 b.]

Sen hadisni tingla, hikmat senga shu:
Bayna janbaykum lakum a'do aduv.¹ [363 b.]

¹ “Dushmanlarning eng yomoni – ichingizdadir”. Ya'ni, nafs.

Hirsingiz o'tdir jahonda, ey falon,
Har o'ti ochgay jahonga yuz dahon. [395 b.]

Dahr aro hirsing yoniq otash erur,
O'tga tushganda ko'mir ham xush erur...
Soldi hirsing ul ko'mirni o't aro,
Kechdi hirsing, qoldi lekin ul qaro. [421 b.]

Hirs chizar qarshingda alvon manzara,
Hirs magar bitganda, holing masxara,
G'o'ra, dumbullar tizar shaytoni g'ul,
Xom emas, pishgan sanar nodonu go'l. [421 b.]

Yaxshidir hirs, yaxshilikdir din aro,
Hirs kecharkan kimsa bo'lmas yuz qaro.
Yaxshiliklar ichradir oftobi xayr,
Tobi hirs ketgay-da, qolgay tobi xayr.
Tobi hirs ketsa, ishingdin ne qolur?
Kul qolur, kul birla qolgaydir ko'mir. [421 b.]

Nafs agar amr etsa, senda ixtiyor,
Aqli hush amriga lekin iztiror. [429 b.]

Nafski buzgay ahdni, sen o'ldir ani,
Ul daniydir, qiblagohi ham daniy...
Nafs hamisha hoziru har yerdadir,
Qiblası dunyo emishkim, murdadir. [437 b.]

Nafs ko'milgan yer ajib ma'vo emish,
Soyasi jonlarga oromgoh emish. [487 b.]

Eb-ichishning oxiri-do'zax emish,
O'zni etgaysen jahannamga yemish. [495 b.]

G'ozda bir hirs, unda ellik ishtaha,
Hirsi shahvat-moru mansab-ajdaho.
Garchi g'oz hirsini dersan zarra ko'p,
Mansab hirsı lek yigirma karra ko'p. [520 b.]

Zillati odam erur-nafsi balo,
Zillati iblis-takabburlik va joh. [520 b.]

Nafsi shahvat garchi ko'p tuban erur,
Hirsi mansab necha tubanroq turur. [521 b.]

Yuz kishi bir sufradan non yeydi, hay,
Ikki podsho bir jahonga sig'magay. [521 b.]

Hirs ila etma qanoatni ado,
Qilma kamtarlikka duch kibru havo. [523 b.]

Hirsni qo'y, meyorni tutgil har mahal,
Hirs, tama' joningga dushmandir azal. [548 b.]

Oz yesang, fe'lu xo'ying bo'lgay yomon,
Ko'p yesang, me'dang buzilgaydir hamon. [559 b.]

Oz yesa mehmon agar saqlab kirom,
Keltirur mezbon taom uzra taom. [559 b.]

O't-olov yanglig' yugurgay hirs zar,
Aqlu hush derkim, oshiqmang munchalar.
Hirs sarobga talpinur behuda, bas,
Aqlu idrok der: sarob ul, suv emas.
Yengsa hirs, zar bo'lsa nodonlarga jon,
Aqlu idrok na'rasi tingay hamon.
Ul birining yuksalib g'avg'olari,
Bul birining o'ksinur ma'nolari. [568 b.]

Nonni deb orttirma zahmat, chekma o'y,
Ofiyat istar esang, dunyoni qo'y. [579 b.]

Baxtlidir ul kimsa, aqli er esa,
Nafsi kamtarlikda misli yer esa. [581 b.]

Nafs senga shogird tushib, aylar vafo,
Nay yo'qotding, qaydin izlarsen navo? [604 b.]

Nafsni tiygil, qo'y g'ururu g'arrani,
Oftobi Haq yashirmas zarrani. [652 b.]

Bermasang shahvatga nonu oshini,
Ul egar aqli sharifga boshini. [673 b.]

Bo'lmasin insonda yangi joma, bas,
To'rga o'tgaydir hamon, sabr aylamas.
Bo'lmasin insonda tirnoq, panja, hay,
Ne emish insof, diyonat, bilmagay.
Odamiy yursin balolar ichra ul,
Nafsi kofir ne'mati gumroh erur. [783 b.]

Sutxo'rlik, haromxo'rlik borasida

Gar horomxo'rlikda aylarsen shitob,
Senda qolgay na muruvvat, nasavob. [506 b.]

Ta'magirlik borasida

Ey, tama'ni bir joyga boylagan,
Bir og'ochdan meva ummid aylagan.
Ul tarafdin kutmagil mehru vafo,
O'zga yoqdin senga etgaydir ato.
Ul tarafdin etmas ersa marhama,
Bas, nechun ko'nglingga soldi bu tama'?'
Toki ko'rsatsam dedi san'at senga,
Toki yuzlansin, dedi hayrat senga.
Toki qolgaysen base hayronu dod,
Qay tarafdin menga yetgay deb murod.
Toki o'z ojizligingni bil yana,
G'aybga ixlos ayla, bovar qil yana.
Gohi hayronlikda yurgaysen faqat,
Ne kelur deb bu umiddin oqibat...[765 b.]

Pora-rishvat olmasang, ko'rguvchisen,
Pora olsang, ko'r bo'lib yurguvchisen. [211 b.]

Xayru ehson, saxovat borasida

Xayru ehson qil, kamaysin bargi tan,
Toki ko'ngling ichra gul ochsin chaman.
Qil saxovat, luqmayi tanni kamayt,
To ko'rinsin vajha la aynu raat. [509 b.]

Baxtlidir ul kimsa, ehson aylamish,
Borini bir do'stga qurbon aylamish. [615 b.]

Sabru - bardosh, qanoat borasida

Sabru bardoshdir yetuklar tuyg'usi,
Qandu halvodir go'daklar orzusi.
Kimki sabr aylar, samoga o'rlagay,
Kimki halvo yer, muqarrar terlagay. [57 b.]

Sabr qilkim, sabr keltirgay najot,
Sabr – sergaklikka chun qo'lu qanot. [251 b.]

Haq degaykim, bul so'zing jon naqshidir,
Sabr qil, sabru tahammul yaxshidir.
Tong yaqindir, muncha kuyma mo'minim,
Sen uchun men ishdadirmen, ol tinim. [257 b.]

So'rmasang, asror ayon bo'lgay o'zi,
Sabru bardosh manzilingga eltgusi.
Demakim, so'rsam, murod hosil bo'lur,
Besabrlikdin ishing mushkul bo'lur. [299 b.]

Sabru bardosh – jazbi rahmat belgisi,
Belgi istarsen, bu illat belgisi. [324 b.]

Sabru bardoshdin kelur baxtu samar,
Ul – tuxum, davlat – qanotli qush magar. [347 b.]

Yaxshidir ul sohibi sabru havas
Ki, yomonlardin gapirmas, so'ylamas. [411 b.]

Ko'hnado'zlar borki, sabru hilm ila
Yangido'z bo'lgay tafakkur, ilm ila. [487 b.]

Etsa ranj, sabr ayla, olma dilga sen,
Manfaat yog'dir bulutdek elga sen. [653 b.]

Sabru bardosh ersa sarboning sening,
Arshu Kursiga etar joning sening. [758 b.]

Hasad-kiyna borasida

Kim hasad birlan agar burnin burar,
Ham quloqdin, ham burundin ayrilar. [21 b.]

Hindu turk, boqsang, gahi parvonadek,
Ikki turk, boqsang, gahi begonadek. [45 b.]

Til ila changitma, qo'zg'atma g'ubor,
Chang-g'uborni etma ko'zlarga nisor.
Chunki mo'min ko'zguyi mo'min erur,
Chang-g'ubordin oyina emin erur. [131 b.]

Gal go'zal chorlar xunukni qoshiga,
Bir ajib savdoni solgay boshiga. [133 b.]

Kiyna qilma, kiyna – insonning sho'ri,
Kiynachining yonida bo'lgay go'ri. [138 b.]

Men faloniydin nechun kamman, dema,
Qo'y hasadni, pastu badbaxtman, dema. [154 b.]

Xalq o'zidin bexabardir, ey padar,
O'zni ermas, o'zgani ayblaydilar. [156 b.]

Boq o'zingga, izlama hamsoyadin,
Ko'r o'zingdin ishni, ko'rma soyadin. [651 b.]

Senda ibrat olda, da'vo etmagil,
Tilni bu da'voga hech o'rgatmagil. [764 b.]

Taqlid borasida

Dilda taqlid bandi bordir, to'sqini,
Yig'labon ko'z yoshi birlan yuv uni.

Taqlid ul har yaxshilikning ofati,
Garchi ko'zga gohi tog'dek savlati...
Aylama taqlid, magar voqif o'zing,
Lutfidin bir benishon hotif o'zing. [145 b.]

Ba'zi insonlar-da qushdek sayrashar,
Sayrashib, qushlarga taqlid aylashar. [549 b.]

Gar jahonning ustuni taqlid erur,
Lek muqallid oxiri rasvo bo'lur. [579 b.]

Taqlid etmasdin boqishni pasha qil,
O'zni tiniq aqling bila andisha qil. [739 b.]

Manmanlik, kibru havo borasida

Lahza-lahza avjlanib sulh mavjlari,
Siynalardin kiynani surgay nari. [87 b.]

Aytmasang aybing, gapirma, tilni tiy,
Makr ila kibru havodin dilni tiy. [267 b.]

Bir kuni so'rdi Iysodin kimsadir:
Bu jahonda eng buyuk qudrat nadir?
Dedi: Ey jon, eng buyuk – qahri Xudo,
Titragay andin jahannam o't aro.
So'rdikim, qahri Xudoga ne iloj?
Dedikim, ko'p berma qadringga rivoj. [391 b.]

O'z-o'zingga mahliyosen, bas, o'zing,
O'z-o'zing birlan xushu sarmast o'zing. [412 b.]

Baxti kulgan jumla insonlar bilur,
Kibr Iblis, ishq odamdin kelur. [429 b.]

Har nafas dengizda suzmoqlik xatar,
Betinim dengizda suzgan g'arq bo'lar.
Qo'y bu suzmog'ingni, tark et kibru kiyn,
Dengiz ul daryo emasdir, o'ylagin. [429 b.]

Sher edi, sherlarga g'olib erdi ul,
Oqibat sichqonga mag'lub bo'ldi ul. [435 b.]

Kamtarin bo'l, lof urib, jon chekma, hay,
Chunki ortingda josuslar bor talay. [441 b.]

Boshini o'rsa kishi gar kibr ila,
Haq achinmaydi, achinmas el anga. [443 b.]

Barcha kamtarlikka o'zni boylasin,
Nafsi xudbin fitnani kam aylasin. [500 b.]

Ey birodar, orttirib ko'p do'stu yor,
Sen o'zing kechding ulardin necha bor.
O'ylakim, dunyoda ov bo'ldi ishing,
Saydi mardum aylamoqdir qilmishing. [517 b.]

Ibrat ol tog' holidin, ey mayda cho'p,
Sen o'zingni elga ko'z-ko'z etma ko'p. [520 b.]

Echki peshvo bo'lsa, yurtning sho'ri shul,
Ahlini boshlab borar qassobga ul.
Ul soqol siypab degay: men peshqadam,
Peshqadamdir chunki unga margu g'am.
Yo'lga tushgil, echki soqoldin qutul,
Etma manmanlik, qilu qoldin qutul. [609 b.]

Mehri joningda emishkim, so'z magar,
Ul qulog'ingdin kirib, bundin chiqar.
Ta'sir etmas pandimiz senga, bali,
Ta'sir etmas bizga ham panding vale. [641 b.]

Sen kalitsiz ham eshik ochgum, dema,
Kibr ila maqsadga yondoshgum, dema. [762 b.]

Ishq borasida

Kimda yo'qdir ishqqa bir parvo agar,
Ul qanotsiz qush erur, bebolu par. [8 b.]

Chun qalam yozgay shitob-la so'zni, bas,
Ishqqa yetgach, singay ul, topgay shikast. [11 b.]

Ishq yetsa rangi ro'yni intixob,
Ishq emasdir, oqibat bo'lgay xarob. [14 b.]

Kimki oshiqdir, uni ma'shuqa bil,
Kim sevilgaydirki, bas, sevgaydir ul. [61 b.]

Ishqqa botdim, dildin olmishlar o'rin
Sevgilarkim avvalinu oxirin. [61 b.]

Yor sening ikki ko'zingdir, anglagil,
Ko'zlaringni xoru xasdin asragil. [131 b.]

Yorni sen joningga chin oyina bil,
Pok tut oyinani dam urmagil. [131 b.]

Ishq o'choqdir, ul-da yoqqay erta-kech,
Yoqmasa, yondirmasa, o'choqmi hech? [170 b.]

Ishq degan ul darcha ochmoqdir, o'g'il,
Do'st jamoli ursa, dil ravshan bo'lur. [732 b.]

Ishq-ulug'larga asal, yoshlarga-sut,
Kemaga eng so'nggi ortilguvchi yuk. [759 b.]

Imtihon borasida

Imtihon bor imtihonda, ey o'g'il,
O'zni arzon bir sinovga sotmagil. [267 b.]

Imtihon bo'lganda shartdir ixtiyor,
Ixtiyor bo'lgaymu hech beiqtidor. [524 b.]

Tafovutlar borasida

Ichmaguncha totli, shirin suvni to,
Senga sho'r suv ham tuyulgay to'tiyo. [269 b.]

...Man etilgan narsaga o'chdir bashar. [270 b.]

Mavjlanur qarshingda daryo yarqirab,
Sen nuqul ko'pikni ko'rgaysen, ajab...[282 b.]

Ko'r kishi etmas yomonlikdin hazar,
Chunki parhez aylaguvchi ko'z magar. [306 b.]

Ko'ri zohir loyga botsa, zohir ul,
Ko'ri botin loyga botsa, sirlidir. [306 b.]

Oy nuri tushgay quduqqa, aks etar,
Bosh egib odam, u oyni madh etar. [307 b.]

Boqki, bozorga borurlar xalq bari,
Qay biri xursandu ma'yus qay biri.
Barcha borgaymiz o'limga mutlaqo,
Kim zalolat ichra, kimlar-podsho. [347 b.]

Har nekim o'rnida ersa, adl erur,
Zulm o'lur o'rnida ermas ersa ul. [717 b.]

Tikma tuproqqa ko'zingni, uz ko'ngil,
Ikki ermas, qiblani bir dona bil. [736 b.]

Sabab, oqibat borasida

Sen go'dak senkim, sababdir ko'rganing,
Bilgisizlikdin sababdir bilganing. [336 b.]

Gar sabab ma'lum emas, mushkul ishing,
Ko'p qiyindir doru-darmon etmishing. [396 b.]

Ogohlik borasida

Kimki bedordir, dilida dardi bor,
Kimki ogohdir, yuzida zardi bor.[234 b.]

Bul jahon aslida og'ir uyqudir,
Chin ko'ringay uxlagan nazdida ul. [496 b.]

Ta'siri jon baski ogohlik erur,
Kimda ul mo'l ersa, Ollohlik erur. [643 b.]

G'ayrat-shijoat borasida

Jumla olam keldi g'ayratdinki, Haq
Berdi g'ayratdin shu olamga saboq.
Ul misoli jon, jahon chun tan erur,
Neki yaxshiyu yomon jondin olur. [62 b.]

Shukr va noshukrlik borasida

Sufradin non yeb, anga aytmay shukr,
Ayblasang uy sohibin, bo'lgay kufr. [10 b.]

Shukr qil sen, yaxshilarga banda bo'l,
Sen ularga jon berib, poyanda bo'l. [21 b.]

Ahli mehnat shukr etib, shokir erur,
Ahli ne'mat makr etib, botil erur. [332 b.]

Gar riyoizat uchrasa beixtiyor,
Bosh qo'yib, shukrona qil, ey baxtiyor. [343 b.]

“Ul yo'g'u bul yo'g'”ni sen tark aylagil,
Ulki bordir, tilga keltir, so'ylagil. [658 b.]

Haqqa shukr ayla, yo'qsa, ey falon,
Qayda ermish qibla, bilmog'ing gumon. [718 b.]

Mehru vafo borasida

Eshigingda itga bersang burda non,
Xizimatingga it kamar boylar hamon.
Eshiging oldida poyloqchi bo'lur,
Ko'rsa ham jabu jafolar, ketmayur.
Xizimating etmoqqa etmishdir qaror,
O'zga bir dargohni etmas ixtiyor.
Kelsa bir begona ko'ppak tentirab,
Barcha itlar unga bergaylar adab.
Bor, degaylar, non yegan joyingga bor,

Nonu tuz haqqin baland tut, etma xor.
Bor uyingga, oqlagil tuz haqqini,
Birlashib, manzilga haydarlar uni.
Ahli ko'ngil ilkida obi hayot –
Necha bor ichding, magar topding najot... [254 b.]

Sen shakardek aylagil mehru vafo.
Boq, shakar bo'lmas shakardin hech judo. [68 b.]

Qayda mehr ersa, mehrning jinsi ul,
Qayda qahr ersa, qahrning jinsi ul. [728 b.]

G'am borasida

Dard, ajal bo'g'ganda-ku parvonasen,
Bas, nechun tark etsa dard, begonasen?
Bossa g'am, Alloh, deb izlarsen ani,
Ketsa g'am, yurmoqqa, dersan, yo'l qani? [278 b.]

Kelsa g'am, o'zni alamga qo'ymagil,
Oh chekib, qoshu qovog'ing o'ymagil. [353 b.]

G'am yegil, minnatli nondin et hazar,
G'am yegay oqil, go'daklar – qand-shakar.
Bog'i g'amning mevasi shodlik, surur,
Bul farah zaxm ersa, ham malham erur. [354 b.]

G'amki bir oyina ermish, mujtahid,
Boqsa ul zidga, ko'ringay unga zid. [354 b.]

Din borasida

Ko'rki, din da'vosin aylarda netib,
Holvaga qo'shdi sarimsoq makr etib. [21 b.]

Kimki mehrobi namozi bo'ldi ayn,
Unga boz iymonga kelmoq bo'ldi shayn. [62 b.]

Ey Xudo, fazling sening hojat ravo,
Dilda sensan, boshqasi ermas ravo...

Qatrayi ilmingki, ul jismimda dil,
Sen uni xokiy tanimdin toza qil. [65 b.]

Haq uchun non bersa kimsa, non kelur,
Haq uchun jon bersa kimsa, jon kelur. [76 b.]

Darding ortganda, xudo, deb bo'zlagil,
Har ne izlarsen, xudodin izlagil. [278 b.]

Och ko'zingni, mahsharni olis tutmagil,
Yavmi dinga bir gumone etmagil. [297 b.]

Har kishi bo'ynida yuk aybiga mos,
Haq o'zi aylar u yuklardin xolos. [297 b.]

Toki Undan amru farmon bo'lmagay,
Lab ochib, dunyoda inson kulmagay. [300 b.]

Amri Haqsiz luqma oshing pishmagay,
Turgay ul og'zingda, ichga tushmagay. [300 b.]

Dedi Payg'ambarki, ey ahli iymon,
Otamen sizga shafiqu mehribon. [301 b.]

Bo'ylakim Qur'on chu boshdin to tamom,
Rad etar bois, sababni, vassalom. [318 b.]

Ki, nechun Haq amriga bosh egmadi,
Endi badnommen mudom, deb yig'ladi... [328 b.]

Jumla ishda bor umidu e'timod,
Dinni mahkam tutki, topgaysen najot. [335 b.]

Boqki, Qur'on ichra so'z zohir erur,
Ostida ma'nosi bor, qohir erur.
Boz uning ostida qo'sh ma'noyi hol,
Unga yetganda aql hayronu lol.
Bor yana to'rtinchi ma'no, bo'yla sir,

Voqif ul yolg'iz Xudoyi benazir.
Boqma Qur'on zohiriga, bu – g'alat,
Dev boqur odamga tuproq deb faqat.
O'ylakim, Quron-da bir odamsimon,
Jismi zohir, joni ko'zlardin nihon. [368 b.]

O'ldi muhsin, o'lmadi ehsoni, lek
Din buyuk Haq nazdida, ehson buyuk. [423 b.]

Kimki, Oллоhim, demishdir har kuni,
Oqibat, bandam, degay Oллоh uni. [465 b.]

Ulki beta'lim so'z aytarmish Xudo,
Chun sifoti nuqsu illatdin judo. [477 b.]

Dedi Payg'ambar: namozga turganing,
Tangrining darvozasini urganing.
Har kishikim ul eshikni urgusi,
Davlati bir kun muyassar bo'lg'usi...[568 b.]

Xo'ja dedikim, suyanchiq – zuhdu din,
Bunga teng ganju xazina bormikin? [647 b.]

E'tiqod borasida

Murtazoga bir juhud bundoq dedi
Ki, Xudoga e'tiqodi yo'q edi.
Shu baland ko'shk uzradirsan, ayt menga,
E'tiqoding ulki, Haq hofiz senga?..
Murtazo dedi: yo'lingdan qolmagil,
Bo'yla gustohlikka o'zni solmagil.
Ulki qul ermish, Xudoga banda, qul,
Haqni bundoq imtihon aylarmi ul?
Haddi bormu, o'yla sen, nodonu gov,
Banda hech Allohni etgaymu sinov?
Ul yarashgaydir Xudoga, ey falon,
Bandalarni etsa har dam imtihon. [398 b.]

Yaxshi va yomon xulq borasida

Kimda bo'lsa yaxshi xulq, topgay najot,
Kim ko'ngil ovorasi, maydonda mot. [154 b.]

Molu mansab tegsa nokasga, yomon,
Har nafas rasvolik aylar begumon. [430 b.]

Dedi Payg'ambarki, ahmoq kimsalar –
Bizga dushman, yo'lto'sar shayton ular. [445 b.]

Har hazil ostida zil bor, kulmagil,
Sen uni hazil deb bilmagil.
Kim hazilkashdir, hazil ermish ishi,
Lek hazilni chin bilur oqil kishi. [493 b.]

Odamiyning hissi nozik, gulbichim,
Botini ichra vale xulqi azim. [499 b.]

Har yomon ko'zning da'vosi yaxshi ko'z,
Har xunuk ko'zning balosi yaxshi ko'z. [520 b.]

Yaxshi ko'zlar lutfu rahmatdin kelur,
Lek yomon ko'z qahri la'natdin kelur. [520 b.]

Kimki ranj ko'rgay, etar sarvatga ul,
Kimki jahd etgay, etar davlatga ul. [568 b.]

Sen qabul etma munofiq uzrini,
Tilda so'ylab, ko'nglida aytmas uni. [581 b.]

Aybchilarkim shu yorug' olamda bor,
Barchasini ko'r ayla, ey Parvardigor.
Haq demish: xuffoshni ko'r etdim, so'qir,
Ko'rmagay toki munavvar kunni ul.
Bo'yla noqislikka soldim men atay,
To quyoshning yulduzin ham ko'rmagay. [644 b.]

Gar zaruratdir, tiyilmoq yaxshidir,
Gar yesang, haqqini uzmoq yaxshidir. [655 b.]

Sen uchun aytdim bu so'zni anglagil,
Noahillar birla bo'lgin sen ahil. [703 b.]

Yaxshilik va yomonlik borasida

Yaxshilardin ko'p aziz sunnat qolur,
Fitnakordin zulm ila la'nat qolur. [30 b.]

Kim yomonlar jinsidandir, ul kishi,
To qiyomat, bas, yomonlikdir ishi. [30 b.]

Yaxshi ranglar chashmasi xumu safo,
Past bo'yoqlar manbai mavji jafu. [31 b.]

Dasti noqis – dev ila shayton qo'li,
Doimo domu tuzoq ermish yo'li. [57 b.]

Gar yurarsen egriga esh bo'lib,
Aqlu hushingdan qolursen ayrilib. [134 b.]

O'g'ri urisa molu mulking, qo'y uni,
O'g'rini urgay qaroqchi bir kuni. [134 b.]

Kimki xushsurat, vale fe'li yomon,
Tegmagay mo'ljalga o'qi hech qachon. [160 b.]

Ey sovuq, isiqqa etding, sog' bo'l,
Qo'y dag'allikni, base yumshoq bo'l. [218 b.]

Yaxshidir ko'zni o'zingga solganing,
Aytganing aybni o'zingga olganing. [219 b.]

Bo'yla inson bo'lsa, hayvondin yomon,
Bir yomon bormu magar ondin yomon? [220 b.]

Gar yomon ildiz esa, yul da'fatan,
O'smagay toki chaman ichra tikan. [256 b.]

G'ashlik ersa dilda, ko'rgil chorasin,
Bo'y cho'zib, shoxlar otib, barg yozmasin. [256 b.]

Johiliyatda edi fikru dimog',
Maskan etdi yurtlarin ul qarg'a-zog'. [257 b.]

Yaxshi duch kelgay yomonga sho'ridin,
Sher o'laksa eydi ochlik zo'ridin. [263 b.]

Do'st edi tog'a, amaklar qanchasi?
Endi ko'rgil qayga ketdi barchasi? [261 b.]

Bir jafo etsa agar xeshu tabor,
Dushmaning yuz ming jafo etganча bor.
Chunki aylarkan o'shal jabru jafo,
Dil inonmas bunga, kutgaydir vafo. [263 b.]

Miskin odam ulki, o'zni bilmadi,
Pastladi, o'zni nazarga ilmadi.
Odamiy chun o'zni arzon sotdi, boq,
Atlas erdi, hirqaga bo'ldi yamoq. [274 b.]

Tishga qurt tushsa, netarsen oqibat?
Tishni tortarsen, otarsen oqibat. [284 b.]

Kim yomondir, beomonlik aylagay,
Yaxshilik etsang, yomonlik aylagay. [331 b.]

Sabr ila nafsinga etgil qarshilik,
Ul yomondir kim, yarashmas yaxshilik.
Yaxshiga bir karra ehson ayla bas,
Etti yuz ehson ila bergay evaz.
Gar yomonga aylasang qahru jafo,
Senga banda, qul bo'lib, etgay vafo. [331 b.]

Kelsa boshingga baloyi nogahon,
Yaxshilikka yo'y uni sen begumon. [339 b.]

Yo'q bo'lur nur birla zulmat barchasi,
Chunki zulmatdir zulmning chashmasi. [380 b.]

Sen demishding: boshla qirq qadam,
Haq egam jannatni bergay senga ham. [431 b.]

Yaxshilikdin yuz alomat kelgusi,
Hadya-ehsoning bo'lur yuz belgisi.
Hadyavu ehson ulashsang, ey falon,
Yuz tiriklik dilda gul ochgay hamon. [440 b.]

O'zni tark etding, yomon fe'lingni-da,
O't, azoblardin qutulding bir yo'la. [489 b.]

Aqlu idrok sharbati hayvonga zid,
Yaxshilarning yaxshisi yomonga zid. [589 b.]

Umr, hayot va qazo borasida

Umring ul oltinli hamyondir magar,
Kecha-kunduz bittalab oltin sanar. [249 b.]

Bo'lsa jon, jonga nasiba ham bo'lur,
Elda lashkar bo'lsa, bayroq topilur. [258 b.]

Sizni tuproqdin yaratdim, deb turar,
Endi tuproq bo'lmog'ingni amr etar. [258 b.]

Suv kelur tog'din, dalaga yo'l olur,
So'ngra ul yerdin havoga yuksalur. [258 b.]

Yerga jo bo'lgay danaklar sarbasar,
So'ng ko'kargaylar va bergaylar samar. [258 b.]

Gar qazo dargohiga qochsa kishi,
O'zni qutqargay, najot bo'lgay ishi.
Gar qazodin qochsa kimsa, ketmagay,
Hiylavu tadbir anga kor etmagay. [259 b.]

Bul jahon misli daraxtdir, ey kirom,
Biz – butoqda mevalarmiz, g'o'ru xom. [283 b.]

Olsangu suv quymasang daryoga sen,
Yuzlanursan oqibat sahroga sen. [306 b.]

Qiymati hamyon magar oltinda ul,
Ul quruq bo'lsa, bahosi ikki pul. [318 b.]

Yosh-yalang ko'zi mudom oxurdadir,
Keksalar ko'zi hisob, oxirdadir. [353 b.]

Angladim, menga o'limdir zindalik,
Zindalik tark aylasam, poyandalik. [356 b.]

Mol berib, bir mafaat kelgaymikan,
Deb hama shu kattakon bozorga band. [364 b.]

Holvani Haqdin buyurganlar olur,
Holva deb lekin yugurganlar qolur. [377 b.]

Halqani ur-da, eshik oldida tur,
Tom osha yurmoqqa yo'qdir sizga yo'l. [486 b.]

Odamiy gar shu jahonning naslidir,
Lek sifat ichra jahonning aslidir. [499 b.]

Men ketib, dunyoga boz qo'ydim qadam,
Angladim nedir o'lim birlan adam. [577 b.]

Eplasang, qochgil o'limdin, turma, hov,
Chun qocharsen, ilkida joning garov? [650 b.]

Bormu bir savdoki, bozor bo'lmasa?
Qayda bozor ul, xaridor bo'lmasa? [658 b.]

Umri inson-ko'zni ochmoq onidir,
Ham urug'ni yerga sochmoq onidir. [745 b.]

Har kishi shohlik, amirlik istagay,
Avvalo qullik, asirlik istagay...
Ey vujud, qing'ir niyatli, toshbag'ir,
Necha yuz ming jonni etmishsen asir.
Qo'y shu makru hiylani, javlon urib,
Hur yasha bir dam ajal kelgay turib. [773 b.]

Bas, tiriklik o'lmagu mehnatdadir,
Obi hayvon izlasang, zulmatdadir. [784 b.]

Komillik borasida

Qo'lga tuproq olsa komil, zar bo'lur,
Noraso zar olsa, xokistar bo'lur. [57 b.]

Har ne olsa noqis ul, illat bo'lur,
Kufr etsa komil ul, millat bo'lur. [57 b.]

Har kishikim o'z nuqsonin bilur,
O'z kamoli manziliga ot solur. [106 b.]

Surat izlarsen agar g'ofil esang,
Gavhar izlarsen agar oqil esang. [160 b.]

Ko'ngli bedorlarni yoz, ey ma'naviy,
Vasfiga kamlik qilur ming masnaviy. [281 b.]

Notiqi komil umumga bosh bo'lar,
Sufra yozsa, turfa-turfa osh bo'lar. [300 b.]

Har kishi ersa musaffo ham habib,
Dil nisoridin anga etgay nasib. [311 b.]

Odamiykim xushnafasdir, xush kalom,
Kelgay andin Haq payomi, Haq salom. [342 b.]

Mag'zi-mag'z sohibi ermish odamiy,
Sen uni izla, talab qil damiy. [344 b.]

Ey ko'ngil sarrofisen, fikratshunos,
Ikki ma'no farqini ko'r bilasos. [346 b.]

Shu baland ko'k ostida har neki bor,
Odamiy, jonsiz jism yo jonivor.
Bilmas o'zga dardini, g'ofil erur,
O'zgalarning dardini komil bilur. [348 b.]

Oqil uldirkim, uzumla may ko'rar,
Yo'qlik ichra borni ko'rgay oshiq ul. [354 b.]

Oqil ulkim, ertani ko'rgay ko'zi,
Bo'yla ko'zga surma chekmish Haq o'zi. [378 b.]

Do'st Haqdir, Haq do'sti bo'ylakim,
Men seningmen, sen menimsen, desa kim. [379 b.]

Baxtlidir ul kimsa, o'zni o'ngladi,
Ahli mardonlar ovozin tingladi. [436 b.]

Kimki oqil ersa, uldir jonimiz,
Ruhi – bizning ruhimiz, rayhonimiz. [445 b.]

Aqlu iymon mirshabi oqil erur,
Ki, ko'ngil shahriga ul hokim erur. [446 b.]

Oqil ul bo'lgayki, mash'al birla ul,
Necha karvon ahliga yo'l ko'rsatur.
Payravi nuri Xudodir, peshrav,
Elni boshlab, o'zni etmishdir garov.
Sizga keltirmish u iymoni hayot,
Nuri joniga etingiz e'tiqod. [447 b.]

Zinda birla maslahat qil, foydadir,
To tiriltirsin seni, ul qaydadir? [453 b.]

Kimki oxirbin emish, mas'udvor,
Yo'l yurar bo'lsa, qoqinmas bor-bor. [487 b.]

Boz insonlikka tortar bor-bor
Odamiyni Xoliqi parvardigor.
Kechdi ilimlarni, barno bo'ldi ul,
Bir ajib oqilu dono bo'ldi ul. [496 b.]

Ko'ngli bekibru riyovu kiynaye,
Ruhi sulton husniga oyinaye...
Bilmayin kibru havo, hoyu havas,
O'zni parhezkor tutardi har nafas. [646 b.]

Odam – usturlobi vasfi zotidir,
Vasfi odam – mazhari oyotidir. [733 b.]

G'aflat borasida

G'aflat ul – tan hosili, tan ersa ul,
Ruhga aylanganda asrorin ko'rur. [348 b.]

Baski, dunyo ustuni g'aflat erur,
Ne emish davlat? U “dav” u “lat” erur. [427 b.]

O'g'rilar birlan to'la ersa shahar,
Unda mirshab borligidin ne samar... [446 b.]

Och ko'zingni, boq, nechuk ermish ishing
Ki, javobsiz qolmagay bir qilmishing. [460 b.]

Boshing uzra bir savat nondir magar,
Sen esa non izlayursen darbadar. [537 b.]

Tavba borasida

E'tiroz etma, yetar deb, ey falon,
Tavba eshigi ochiqdir har qachon. [462 b.]

Gar yomonlik ersa, ul vaqtinchadir,
Odamiylarning tayanchi tavbadir. [489 b.]

Umri betavba base mehnat erur,
Nogahon kelgan o'lim g'aflat erur. [528 b.]

Tavbani jabduqla, ot sol to'g'ridin,
Et quvib, to'ningni olgil o'g'ridin. [653 b.]

Pushaymonlik borasida

Baski oxirda pushaymonlik kelar,
Shunchalar yelding, yugurding shunchalar...
Gar pushaymonlikni odat etsang ul,
Undan ham ortiq pushaymonlik kelur.
Yarmi umring chun parishonlik ila,
Qolgani kechgay pushaymonlik bila. [427 b.]

Mohiyat borasida

Lekin, oshnam, mohiyat asli nima?
Bul jihatni barcha ham bilmas, dema.
Mohiyat ul garchi dengiz ichra dur,
Ahli komil nazdida ravshan erur. [351 b.]

So'z guvohing sodiq ersa, ne ajab,
Ish guvohing sobit ersa, ne ajab. [512 b.]

Suvrat ichra yo'q jamiyatda baqo,
Ma'ni ichra so'r uni, bergay Xudo. [730 b.]

O'zlikni anglash borasida

Etsa gar ruhingda mavjud aqlu nafs,
Aql ila nafsing kurashgay basma-bas.
Och ko'zingni, o'zni andoq shaylagil,
Ma'nini suvratga g'olib aylagil. [468 b.]

Kimki mensiz ersa, menlar unga do'st,
O'ziga nodo'st erur mardumga do'st.
Oyina suratisiz ersa, ne etar,
Har ne suvrat ersa, unda aks etar. [588 b.]

O'z-o'zingni anglashing tuyg'u erur,
Bir ariqda ikki to'lqin mavjlanur. [599 b.]

Baxtlidir gar kimsa o'zni anglasa,
Mangulik qasrini bunyod aylasa. [609 b.]

So'nggi o'zlik avvalini izlagay,
Sog'inib kelgay, visolin ko'zlagay.
Senda sendin o'zga senlik bor, qo'zim,
O'zligin bilganga man qurbon o'zim. [752 b.]

“O'lmasingdan oldin o'l”ning siri bul,
Chun o'limdin so'ng g'animatlar kelur. [754 b.]

Andisha borasida

Xalq – buyuk, andisha – mo''jazdir, bale,
Bor jahonni qamramish, olmish vale. [134 b.]

Isbot-dalil borasida

Bo'lsa hodisga daliling, so'ylagil,
Yo'qsa, da'voyingni sen tark aylagil...
Ul biri derki: jahon foniy erur,
Haq uni bor aylamish, boniy erur,
Bul biri derki: jahon bordir o'zi,
Ham binodir, ham binokordir o'zi.
Ul biri der: ko'rmading Halloqni,
Senga rizq berguvchi ul Razzoqni.
Bul biri derki, dalilsiz urma dam,
Behuda safsata sotma, tinglamam...
Ul biri derki, dalil jonimdadir,
Hujjatim jon ichra burhonimdadir. [472 b.]

Do'stlik borasida

Kimki do'stiga qabohat aylasa,
Mard yo'lin to'sguvchi nomarddir o'sha. [10 b.]

Odamiy ko'zdirki, po'stdir qolgani,
Ko'z ochib, sen do'stni ko'rsang bo'lgani.
Ko'rmasang gar, ko'r bo'lgan yaxshiroq,
Do'stki boqiy ermas, andin bo'l yiroq. [51 b.]

Do'stini yod etsa do'st mamnun erur,
Gar biri Layli, biri Majnun erur. [55 b.]

Do'st agar ranjitsa, hech ranjirmu do'st?
Mehr mag'z ersa magar, ranj misli po'st.
Do'st turar yoningdayu joningda to,
Har balovu ofatu mehnat aro.
Do'st – misoli zar, balo otash erur,
Zar agar otashga kirsar, xush erur. [173 b.]

Gohi dushmanlik bo'larmish do'st ishi,
Jang etarmu o'z-o'zi birlan kishi? [239 b.]

Do'stki nodo'st bo'ldi, ko'ngil boylama,
Qoch nari, so'zlashma, suhbat aylama. [429 b.]

Do'stga aqlingni fido et har qachon,
Qayga do'st borsa, u ham bo'lsin ravon. [430 b.]

Oshno, do'st bo'lmagil g'ofil bila,
Do'st tutun, do'st bo'l faqat oqil bila. [323 b.]

Do'stlaringdir asli joning dushmani,
Hazratingdin ayru tutgaylar sani. [390 b.]

Hamnishin ersa agarda dushmaning,
Gulshan ichra gulxan ermish maskaning.
Do'stga ozor berma, man-man etmagil,
Berma qo'ldin, do'stni dushman etmagil. [446 b.]

Do'stga doim do'st debon solgil nazar,
Kiyadin keltirma ko'nglingga zarar. [446 b.]

Kun kelarkim, do'stlaring diltang bo'lur,
Yuz burib sendin, base dushman bo'lur. [551 b.]

Do'stni ko'rsang, dilda mehring bir jahon,
Yovni uchratganda qahring onchunon. [571 b.]

Gar ilon chirmasha – jonning dushmani,
Lek yomon do'st o'tda yondirgay seni. [587 b.]

Sog' ekanda barcha do'stu oshno,
Xastalik etganda do'sting bir Xudo. [605 b.]

Yangi do'stlar birla ko'rding o'zni sen,
Eski do'stlardin o'girding yuzni sen. [652 b.]

Do'st bo'l, top do'stu yoring beadad,
Yo'qsa, qolgaysen jahonda bemadad. [654 b.]

Gar suyanchiq bo'lmasa devorlar,
Tippa-tik turgaymu uy, omborlar? [654 b.]

Yaxshi do'st bo'l, yaxshilar birlan o'tir.
Boq, gul moyida gul atridir...
Hovlimas, qo'shni olishni ko'zlagil,
Dil, ko'ngil bor, endi dildor izlagil. [729 b.]

Adab borasida

Rabbanodin barcha istarmiz adab,
Beadab ko'rmas jahonda lutfi Rab.
Yoq, faqat etmas o'ziga ul yomon,
Beadab urgay jahonga o't hamon. [9 b.]

Nurga to'lmishdir adab birlan falak,
Ham adabdin ma'sumi pokdir malak. [10 b.]

Ul qamishlar bir ariqdin suv ichar,
Bittasi bo'm-bo'sh, birida qand, shakar. [16 b.]

Har bir ishda maslahat vojib erur,
To pushaymonlik keyin kam-kam bo'lur. [196 b.]

Illati yo'q ersa, jahl olim bo'lur,
Illati bor ersa, ilm zolim bo'lur. [211 b.]

Mardlik borasida

Mard ishi ravshanligu mardonalik,
Hiyladir nomard ishi, begonalik. [17 b.]

Bolari etgan yumushni, yo'q shak,
Na arslon udda aylar, na eshak. [39 b.]

Qismatingga bolta urding jahl ila,
Qismatin asraydi mardlar ahl ila. [213 b.]

Ey mushukdek solma sichqonga chovut,
Sher bo'libsan may ichib, arslonni tut. [266 b.]

Jahl borasida

O'ylakim, daryoga jahl etsa hovuz,
O'z-o'zini ul mavh etgay shubhasiz. [227 b.]

Ilm-ma'rifat borasida

Xotami mulki Sulaymondir ilm,
Jumla olam – suratu jondir ilm. [39 b.]

Ilm bois jumla jonzodlarki bor,
Odamiy oldida ojiz, bemajol. [39 b.]

Jahl kelsa ul sari, donish etar,
Ilm etsa bul sari, to'zg'ib bitar. [57 b.]

O'z-o'zini poklagaymu suv sira,
Jahlu nafsni sindirur er ilm ila. [106 b.]

Ilm agar ko'ngilga singsa, yor erur,
Gar badanga singsa ul, bekor erur...
Ilm hudan kelmasa bevosita,
Bir bo'yoqdirkim, ketar bilvosita...
Ilm yukin eltma havoyi nafs uchun,
Ilm tulporiga mingaysen u kun.
Ilm tulporiga sen bo'lgach savor,
Qolmagay elkangda ul yukdin g'ubor. [113 b.]

Dedi Payg'ambarki, bordir ummatim,
Ul mening bir gavharimdir, himmatim.
Nur erur boqsam, ularning maskani,
Bas, ular ham nurda ko'rgaylar mani. [113 b.]

Oftobi ma'rifat o'chgaymu hech,
Aqlu jon osmonidin ko'chgaymu hech?
Ulki xurshidi kamoldir, befiroq,
Kecha-kunduz kori-ravshan aylamoq. [132 b.]

Bir ariqdan, sira oqmaydi suv,
O'zi ichmas, boshqalarga bermas u.
Unda bir obi zilol topmas qaror,
Yo'q yana labtashna, suv ichmoqqa zor. [145 b.]

Ilmi noqis ulki, farqni bilmagay,
Chaqnasa chaqmoq, quyosh deb o'ylagay. [175 b.]

Toki bordir qo'sh qanoting, uch baland,
Bir qanotli qush sira uchgaymikan? [175 b.]

So'zdagi ilm jonlimas, bejon bo'lur,
Unga bir tolib yuzi armon bo'lur.
Garchi bahs asnosida ul ilmi kom,
Bir xaridor bo'lmasa, o'lgay tamom. [201 b.]

Mag'zi yo'q ersa, danak bo'lmas nihol,
Surati bejon magarkim bir xayol. [230 b.]

Kim uchun ilmu hunarga yo'q taraf,
Bas, uni der, undan ortiq yoq sharaf. [364 b.]

Sen sinov yo'lida topding ilmu fan,
Ul inonchdin past, gumonlardin baland. [365 b.]

Bongi shaytondir yomonga rahnamo,
Bongi sulton – posboni avliyo. [371 b.]

Badguharga ilmu fan o'rgatganing,
Yo'lto'sar ilkiga xanjar berganing. [430 b.]

Ilm istarsen, kibr to'nini ech,
Kamtarinlik jomasin kiy erta-kech. [537 b.]

Ilm o'rganmoq yo'li – so'zdir magar,
Ish bila komil bo'lur kasbu hunar. [537 b.]

Ahli nodon bilgani zohir, tamom,
Ul daqoyiqlar qolur ko'zdin nihon. [546 b.]

Ilmu fan deb o'lsa, muqbil oti bor,
Bul o'limda yuz tiriklik toti bor. [615 b.]

Fikr – suvratdir, balandda o'ltirur,
Soya – ishdirkim, amal, tubanda ul. [751 b.]

Madrasa suvratda garchi bog'lagay,
Tahsil olgach, ul bog'ichlar qolmagay. [751 b.]

Uyqu – bedorlik bilimlar birla, hoy,
Kechsa nodonbirla, bedorlikka voy.¹ [132 b.]

Yaxshidir toatdin olim uyqusi,
Chunki bedorlikni bilgay bilgisi.² [755 b.]

Ma'naviyat borasida

Bas, etishdim, hislarim go'yo bo'lib,
Ruh bo'lib, komil bo'lib, usto bo'lib.
Jonsiz erkan, qoch, dedim, andin, qaviy,
Toki bo'l ilmu sifoti ma'naviy.
Jonga etdim, ruh ochdi menga ro'y,
Men dedim: boz qayna, hayvonlikni qo'y.
Iltijo ayla Xudodin, sirga yet,
To oyog'ing toymayin, oxirga yet...
Bilmayin Qur'onni gumroh bo'ldilar,
Ipni ko'rmay, tutquni choh bo'ldilar. [367 b.]

Bor haqiqiy zar – Xudoning ne'mati,
Tushmagay, yuksak hamisha qiymati. [372 b]

¹ “Bilimli bo'lib uxlamog bilimsiz ibodat etmoqdin afzaldir” Hadisiga ishora.

² “Bilimli bo'lib uxlamog bilimsiz ibodat etmoqdin afzaldir” Hadisiga ishora.

Lek ajab oqil erursan, ma'naviy,
Yo'ldan ozmog'ingga qo'ymas bul seni. [446 b.]

Sarbalanddirmenki, ko'rgaymen baland,
Sog'-omonsan gar, esang yuksakka band. [488 b.]

Tafriqa ketsin, o'shal shirku davi,
Vohid ermish ul vujudi ma'naviy. [501 b.]

Zoru tashna ma'naviylar yig'lasin,
Makr etib, ahli g'aviylar yig'lasin. [519 b.]

Boqma sen suratga kim, ul masnaviy,
Boq o'shal siyratga, ulkim ma'naviy. [659 b.]

Ma'naviydir ul, ma'oniq qatma-qat,
Yangilikdir ul azaldin to abad. [695 b.]

Birgalikni dilda chun kashf aylagay,
Qo'sh xatodin so'ngra ravshan anglagay. [765 b.]

Ustoz-shogird borasida

Usta o'zni ish ila ma'ruf etar,
Barcha shogirdlar uni ta'rif etar.
Aytsa dars shogirdga ustodi usul,
Boshqa ilm ermas, usul o'rgangay ul. [94 b.]

Bo'lmasa pir, etma sen azmi safar,
Uchragay ofat, necha xavfu xatar. [98 b.]

Garchi yo'l bosding yurib ko'p marta sen,
Rahnamosiz bir g'arib, oshuftasen. [98 b.]

Sen ulov boshini to'g'ri yo'lga bur,
To'g'ri yo'lni yo'lchi rahbarlar bilur. [98 b.]

Pirlar borkim, hamisha boxabar,
Nafsu tan irmoqlarin qazgay ular. [106 b.]

Nahs shogird ulki,y etmay dodiga,
Qarshi chiqqay bir kuni ustodiga.
Ul nechuk ustodki, ustodi jahon,
Oldida birdir huvaydoyu nihon. [176 b.]

Xalq – go’dak, ustozi pir ardog’ida,
Pir uni o’ylar nasihat chog’ida. [227 b.]

Oq qog’oz uzra qalam sursang magar,
Ko’zga tashlangay hamono, sarbasar.
Lek qalam xat uzra cheksa yangi xat,
Anglamoq dushvor, yuz bergay g’alat.
Chun siyoh uzra siyoh tushgay base,
So’z buzilgay, ma’ni chalkashgay base.
Gar uchinchi karra yozsang ustidan,
Qop qoradir ustidan ham ostidan. [229 b.]

Ofarin ishqingga, ustodi sabot,
Necha yuz ming zarra topdi ittihad. [239 b.]

Rahnamosiz yo’l bosar bo’lsa kishi,
Bo’yla bo’lgay, chappa ketgaydir ishi. [262 b.]

Urma qo’l san’atga ustoz ko’rmayin,
Barcha elga kulgi bo’lmog’ing tayin. [262 b.]

Garchi sust yurguvchi, gar chopguvchidir,
Izlagan kimsa magar topguvchidir.
Sen talabni ustivor et doimo,
Ki, talabdir yo’llaguvchi rahnamo.
Langu gungsen, balki tanbal, beadab,
Unga yuz bur, rahnamoying qil talab. [274 b.]

Senga bir kimsa etarsa lutfini,
Asliga yo’l izla, mahkam tut uni. [274 b.]

Pirlik ul sochu soqolning oqimas,
Ul aql birlan kelur insonga, bas... [311 b.]

Ey baso olim, ilmdin benasib,
Garchi yod olmish, anga ermas habib. [333 b.]

So'rdilar: ustoz, tasavvuf ne emish?
Dedi: g'am kelganda fe'lni keng qilish. [340 b.]

Qilni qirq yorgay aql har ishda to,
Lek anga ustoz kerakdir mutlaqo.
Yolg'iz aqlu hush ila bo'lsaydi gar,
Kasb etardi har kishi kasbu hunar. [426 b.]

O'zni mujrim bil, gunohkor o'yla, bas,
Yo'qsa, yuz burgay o'shal ustozni dars.
Aytki, johilmen, menga bergil saboq,
Bo'yla insof nomusingdin yaxshiroq. [429 b.]

Yo'lda lofi oru nomus urmagil,
Rahnamoying yurmaguncha yurmagil. [430 b.]

Yo'lga boshla, ey imomu-l-muttaqiyn,
Beiymonlarni iymonga yo'llagin. [431 b.]

Bilmasang zulmatda kimning kimligin,
Sen imomingga nazar sol, anglagin... [436 b.]

Baski, cho'z, tutsin qo'lingdan dasti pir,
Piri hikmat ul, olimdir, benazir. [527 b.]

To'g'ri yo'lda kimsa etgaydir amal,
Yo'q esa ustozni, topgaymu samar?
Mayda ish ham bul jahonda dahmaza,
Gar birov zahmat chekib, o'rgatmasa. [537 b.]

Ishni beustoz etishni istading,
Bo'ylakim, o'zni ajalga qistading. [548 b.]

Izla oriflar ziyosin, ko'zga sur,
Ko'zlaring irmoq esa, daryo bo'lur. [564 b.]

Nuqta so'ylar sharh etib ustodi pir,
Anglagaymen, unda ne ilmu dalil.
Bilgani yolg'iz shu deb bilsang ani,
Xas kabi o'zdin uloqtirgay seni. [570 b.]

Kimki ustod ersa, dersan unga to
Ushbu san'at sen bila topdi ado. [644 b.]

Yo'l senga – sunnat, jamoatdir - rafiq,
Yo'lsizu yorsiz magar holing darig'. [654 b.]

Tinglaguvchi jazbidandir hush kalom,
Gurkisar ustoz chu shogird bo'lsa rom. [689 b.]

Haqqa shogird kimsalar ustod erur,
Ortga tislanding, ishing bedod erur. [693 b.]

Ulki johil tarki ustoz ayladi,
Mustaqil do'kon ochishni o'yladi.
Ranjitib ustozni ochgaysen do'kon,
Topganing unda ilon bo'lgay, chayon.
Sen o'shal do'konni buzgil, ortga qayt,
Gulga qayt, gulshan ila rohatga qayt. [710 b.]

Baski, oqillar baqo topgay abad,
Boqiy etgaydir jahonni bu sifat...¹ [735 b.]

Ilmu fan – dengiz, ko'rinmas unga had,
Tolibi ilm unda g'avvosdir abad. [756 b.]

Bosh-oyoqsiz davlating tark aylabon,
Pir topib olgin o'zingga, piri jon.
Pirdin o'zga bo'lmagay ustodi dod,
Keksa pir ermas, vale piri rashod. [763 b.]

¹ “Ilm – islomning hayoti, iymonning tayanchi”, “Olimlar – Allohning nuri, payg'ambarlarning xalifalari, mening vorislarimdir” hadislariga ishora.

Ot surib chun o'zni aylarsen halak,
Ishni siljitmoqqa chin usto kerak. [764 b.]

Vaqt borasida

Ko'rpa yoqma burgaga achchiq qilib,
Kunni zoe etma pashsha o'ldirib. [96 b.]

E'tibor borasida

E'tibor birlan nazar solsang anga,
Shul zamin asrorin aytgaydir sanga. [427 b.]

Aql borasida

Odamiy aylab safarbar aqlu jon,
Parchalar tog'larni, ochgay bahri qon. [53 b.]

Aql – juzv ishqqa mudom munkir erur,
Garchi bilgay, ishq sohib sir erur. [68 b.]

Er aql ersa, xotundir tama', hirs,
Tama', hirs tun ersa, shamdir aqlingiz. [96 b.]

Jumla hayvonkim basharga yem emish,
Aqlu hush lekin basharga em emish. [109 b.]

Nasli Odamning qanoti aqlidir,
Lek aqlar bir-biridin farqlidir. [119 b.]

Bir aqlga bir aql gar juft o'lur,
Har nechuk zillatga ul mone bo'lur. [131 b.]

Gar aqlga boz aql hamroh bo'lur,
Nur bo'lur afsunu yo'l paydo bo'lur. [131 b.]

Gar aql bo'lsa aqlga oshno,
Damba-dam ortgay magar mehru vafo. [323 b.]

Shohki bir nokasni chun dono bilur,
O'zni ham, davlatni ham rasvo qilur...

Jon shoh ersa, aql , vazir hisob,
Aqli fosid jonni etgaydir xarob...
Aqli juzviy bo'lsa, vazir etmagil,
Aqli Kullni ayla, ey sulton, vazir. [424 b.]

Aqlu idrok ikkidirkim, avvalin,
O'rganib, maktabda olmog'ing tayin.
Chun kitob fikru zikr bergay aql,
Ilmu fan, xubu bikt bergay aql.
Aqlu idroking o'sib, afzun bo'lur,
Zalvori ortib yana, ustun bo'lur. [445 b.]

Aql – mirshab, kelsa gar sulton etib,
Mirshabi burchakda turgay bosh egib.
Aql erur Haq soyasi, Haq – oftob,
Oftobga soya hech bergaymu tob? [450 b.]

Aqlu idrok yoshda ermas, boshdadir,
Soch-soqol oqiga boqma, ey o'g'il. [451 b.]

Har aql ham ustivormas tog'ida
Hirs, g'azab jangu jadallar chog'ida. [621 b.]

Aqlu hush yaxshi-yomonni farqlagay,
Ko'z nuqul oqu qaro deb so'ylagay. [728 b.]

Rost va yolg'on borasida

Ko'z kim oxirni ko'rgay, ul raso,
Ko'z kim oxurni ko'rgay, ul xato. [74 b.]

Aqlu idrokdin tamom bebahrasen
Odam ermassen, xo'tiksan – kurrasen. [160 b.]

To'g'ridir, deb goh olurlar egrini,
Qand qo'shib gohi ichurlar og'uni. [216 b.]

Lofu yolg'onlarga ko'ngil bermagil,
Bo'lma safbasta, savashga yurmagil. [362 b.]

Keldi Haqdin bir vahiykim, to'g'ri yo'l:
Endi qing'irlikni qo'ygil, to'g'ri bo'l. [494 b.]

Kengashinglar, deb buyurdi bizga ul,
Kengashib, etsang, xato kam-kam bo'lur. [717 b.]

Orzu-havas, xohish-istak borasida

Orzu qil, lekin bir oz haddingni bil,
Bir somon cho'p birla tog'ni yiqmagil. [12 b.]

Ko'za bor erkanda suv yo'q erdi, bas,
Suv topildi – ko'zaga etdi shikast. [9 b.]

Bu jahon – tog', fe'lu atvoring – nido,
Ul nidoni senga qaytargay sado. [27 b.]

Har nafas ko'ksingda paydo bir nafas,
Boisi – jismingda jondir, purhavas. [109 b.]

Dedi: Payg'ambar: eshikni muttasil,
Qoq erinmasdan, ochilgay senga ul.
Bir kishi ko'yida yurgaysen magar,
Duch kelur ul senga, ko'rgaysen magar.
Har kuni qazsang quduqni tashnahol,
Oqibat etgay nasib obi zilol. [384 b.]

His-tuyg'u borasida

Vahmu fikru hissui idroku havas –
Yosh bola mingan qamishdir, boshqamas. [113 b.]

Tuyg'ular andishalarni to'plagay,
Xoru xasdek suv yuzini qoplagay. [298 b.]

His asiri aqlu hushdir, ey falon,
Aqlu hush ruhingga tutqin begumon. [298 b.]

Bir-biriga beshta his payvast erur,
Beshtasi ul bitta ildizdan kelur. [225 b.]

Iymon borasida

Sen iymonni toza tutgil ham omon,
Bo'l amin kibru havodin har zamon. [41 b.]

Erk xayoli zimmida iymon erur,
Bo'sh esa iymon, ko'ngil vayron erur. [148 b.]

Dedi Payg'ambar: evaz imkoni yo'q,
Kimda sabr yo'qdir, demak iymoni yo'q. [148 b.]

Gar o'shal oluda suvdin tortinur,
"Al-hayou yaina 'u-l-iymon" kelur.¹ [170 b.]

Kunduzi bir kimsa izlarkan charog',
Bul dalilkim, unda yo'q ko'zu qarog'. [324 b.]

Chunki, iymon birla borsang, zindasen,
Dinu iymoning ila poyandasen... [343 b.]

Bersa baxtingni nuqul, bilgaymiding,
Qudrati Haqqa nazar qilgaymiding? [375 b.]

Ey jigar, yo'q ersa iymoning chunun,
Bor-da, izla, kasb et ikmoli din. [379 b.]

Ahli mo'min ayru, iymon bittadir,
Jismu tanlar muxtalif, jon bittadir. [400 b.]

Kufri iymon jondadir, yanglishma do'st,
Mag'z emish ul, kufri iymon unga po'st.
Kufri agar sirtida ermishdir qobiq,
Ichdadir iymonki, ul ham bir qobiq. [485 b.]

Bo'ldi ozodlarga orzu bandalik,
Baski berding bandalikka zindalik.
Mo'min uldir, cho'ksa ham, yuksalsa ham,
Qo'zg'alur iymonidin kofirda g'am. [609 b.]

¹ "Hayo iymonga to'siqdir..." ya'ni, ilm olishda tortinchoqlik ziyon keltiradi...

Kimki iymon topdi, topdi ul omon,
O'zgalarga qolgani – kufru gumon. [610 b.]

Ne emish imon, oqar suvdir ravon,
Chiqsa jon tandin, anga derlar ravon. [705 b.]

Jon, tan, ruh borasida

Tinglagil, ne der Hakimi G'aznaviy,
Eski tanda toza ruh top men kabi. [66 b.]

Bo'ldi dil tan havzida chirkin badan,
Lek ko'ngillar havzida poklandi tan. [170 b.]

Aql esa ruhdan-da maxfiyroq magar,
Jon sari yo'lni shitob tuyg'u topar. [225 b.]

Bor suvkim, suvni haydaydir mudom,
Bor ruhkim, ruhni chorlaydir mudom. [282 b.]

Jon aql ilkin ochib, darmon qilar,
Necha bir mushkulni ul oson qilar. [298 b.]

Bo'yladir kim, qadri tan ham jon ila,
Qadri jon ul partavi jonon ila. [318 b.]

Jon ko'zi kimlarda ravshan bo'lsa gar,
Mardumingni boshqalarni, ul ko'rar. [347 b.]

Jazbi suvdir, gar yonarkan jonimiz,
Ul bizimdir, biz uning hayronimiz. [373 b.]

Joni hayvoniya bo'lmas ittihad,
Izlama el ruhidin sabru sabot. [400 b.]

Ruhi mahjubga baqo ermish azob,
Ruhi asliy ersa boqiy, behijob. [401 b.]

O'zni soliklarga hamroh aylagil,
Ruhi qudsiy larga ruhni boylagil. [401 b.]

Tib kitobidin o'qi bobul-ilal
Ki, nechuk tan lashkari aylar amal.
Chunki jonlar joni udirkim, ayon,
Jonga jon bo'lganga dushmanlik qayon? [411 b.]

Odamiy avval harisi non erur,
Non suyanchiqdir taningga, qon erur. [423 b.]

Odamiyga nur emish asli yemish,
Jon faqat nur birla topgay parvarish. [445 b.]

Bahri ruh ichra najoting hammasi
Birgina shu kemadir, Nuh kemasi. [487 b.]

Non emas, hikmat yeyishni qil niyat,
Tangamas, ko'ngilga bergil tarbiyat.
Ul taoming bul taomingni to'sar,
Jon – bozurgon, tan – qaroqchi, yo'lto'sar. [495 b.]

O'zgarishlar mulki-tan ermish magar,
Ruhi boqiy oftobdir, jilvagar. [500 b.]

Shoh – jon ersa, tomomiy o'rdu tan,
Ruh – suv ersa, tamom tanlar o'zan.
Podsho ruhi esa nahri zilol,
Bor ariqlarning suvi ham ayni hol. [507 b.]

Ruh tabibi ulki, borgay jongacha,
Jon yo'li birlan magar iymongacha. [512 b.]

Ruh istarsen, to'ningni yirt jadal,
So'ngra soflik birla sen ham bosh ko'tar. [516 b.]

Ul ariq ermishki, suv javloni bor,
Odamiy uldirki, tanda joni bor. [595 b.]

Bul badanning umri to vaqti ajal,
Ul badan boqiy qolur, do'sti azal. [617 b.]

Tandamas boqiy tiriklik ruhdadir,
Ruhni bergil, boshqasi behudadir. [747 b.]

Bag'ri kenglik borasida

Bag'ri keng bo'lsa kishi ham ko'ngli sof,
Har shahardin unga boqqay oftob. [51 b.]

Qo'rqish borasida

“Qo'rqmagil” so'zi ajib siylov kalom,
Kimki qo'rqmishdir, bu so'z – avval taom.
Kimki qo'rqmishdir, anga emin kerak,
Ko'ngliga bir daldai sokin kerak.
Qo'rqmaganga “qo'rqmagil” deb aytma, bas,
Dars ne hojat, bo'lmasa muhtoji dars. [52 b.]

Hurmat borasida

Hurmat etgan er bo'lur hurmatli er,
Kimki qand bergay, o'shal lafzini yer. [53 b.]

Halollik borasida

Kim halol ersa, haloldin rizq anga,
Yorni sev, ranjitma, ranj etgay senga. [54 b.]

Xulqimizni xulqiga o'xshatdi Haq,
Vasfimizni ham vasfidin olgay sabaq. [423 b.]

Gar esang pok luqmaga qobil o'zing,
Nur yemakka bo'lgasen qodir o'zing. [445 b.]

Ro'za der: kechdi haloldin ul magar,
Bas, haromga endi solgaymu nazar? [510 b.]

Der zakot: o'z molin ehson etdi qul,
O'zgalar moliga ko'z solgaymu ul? [510 b.]

O'zni chun parvona yanglig' o'tga ur,
O'ynasang, g'irromlik etmay o'ynagil. [519 b.]

Losh halol bo'lgay zarurat pallada,
Chunki Ka'ba izlamaslar Ka'bada. [780 b.]

Juftlik-birlik borasida

Yaxshidir juft ersa juftga hamsifat,
Barcha ishlar hal bo'lur bomaslahat.
Juftlar monand esa, bo'lgay samar,
Juft-juft kavshu etikka sol nazar. [78 b.]

Bu jahonda neki bor, Haq buyrug'i;
Juft-juftdir, bir-birining oshig'i.
Har ne borkim, juftini izlar mudom,
Qahraboga talpinur bargi somon. [373 b.]

Tun kerak insonga sog'lom tab' uchun,
Tab'i solim yo'q esa, kunduz nechun? [373 b.]

Ayollar borasida

Dedi payg'ambarki: xotin begumon,
Oqil erkaklarga g'olib har qachon.
Lek ayol johilga mag'lub har mahal,
Chunki ermas, turfa hayvondir ular.
Kam ularda shafqatu lutfu karam,
Shul sabab hayvonligi kelgay baland.
Mehru shafqat – vasfi insoniy erur,
Qahru shahvat – vasfi hayvoniy erur.
Partavi Haqdir ayol, ma'shuq emas,
Go'yo xoliqdir ul, maxluq emas. [82 b.]

Er kishi xotinga bo'lsin ehtiyot,
Aylama noqis aqlga e'timod. [194 b.]

Haq necha ming san'atu fan ayladi,
Onani munisu mushfiq sayladi...
Onai zorni yaratdi, sutni ham,
Otani esh etdi, qildi muhtaram. [255 b.]

Ey baso, bordir xotinlar hamki chun,
El aro sharmandadirlar nafs uchun. [294 b.]

Ey birodar, ur o'zingni iksirga sen,
Kam ermas er sidqi xotin sidqidin.
Sidqi xotin sidqidin kam ersa gar,
Ul ko'ngil ermas, qorindir, ey jigar... [336 b.]

Osmon erdir, zamin chun xotini,
Har ne eksa, yer etishtirgay uni. [373 b.]

Er-ayol ishqiga Haq bermish sabot,
To jahonni asragay ul ittihad. [373 b.]

Oqibatni ko'rmagan erdan biroq
Oqibatbin ersa, xotin yaxshiroq...[436 b.]

Ona nafs ermishki, ota – aqli rod,
Boshda mushkul, oxiri bergay najod. [682 b.]

Har birida uslubi rang o'zgacha,
Har birida fe'lu farhang o'zgacha.
Er-xotinni bunda keltirdik dalil,
Sen ayolni hech qachon kamsitmagil. [758 b.]

Ehtiyotkorlik borasida

Ehtiyot ne, ul magar etmoq gumon,
Kelmagay deb bir baloyi nogahon... [309 b.]

Ehtiyot ne? Ishni salmoqlash demak,
Ikki tadbirdin birin tanlash demak. [327 b.]

Inson tanasidagi unsurlar

Deydi tuproq tandagi tuproqqa: hay,
Tarki jon qil, qo'y badanni bizga qayt.
Bizga hamdam bo'lganing avlo erur,
Tanni qo'y, ul suvli bir ma'vo erur.
To'g'ri, der tuproq, valekin bastamen,
Men-da hijroning chekarmen, xastamen.
Tandagi suvlarga suvlar arz etar:
Bo'ldi, bas, g'urbatda yotgoning, yetar.

Tandagi otashni chorlaydir quyosh:
Uyga qayt, begonalarga egma bosh...
To'rtta unurning bu yanglig' bahsidan,
Etmish ikki dardga maskandir badan.
Dard kelib, butkul badanni boylagay,
To anosir bir-birin tark aylagay.
To'rt anosir to'rtta tutqun qush erur,
Dard, ajal ersa, tugun echguvchidir.
Chun tugunlarni echar ul, boz etar,
To'rt tarafga to'rtta qush parvoz etar...
Tortishuvlardin bo'lingay jismimiz,
Xastaliklarga chalingay jismimiz. [373 b.]

**Insonning tani mehmonxona undagi fikrlar mehmonga
o'xshar**

Shu taning mehmon uyidir, ey o'g'il,
Har safar bir yangi mehmoning kelur.
Demakim, ul senga tashvish etgusi,
Barchasi mulki adamga ketgusi.
Har ne kelgay g'ayb diyoridin senga,
Dilga mehmondir, takalluf et anga.
Sen fikrni shaxs bil, ey jonajon,
Chunki shaxs topgay fikrdin qadru jon. [618 b.]

IZOHLI LUG'AT

A

- Abdol – tasavvuf ta'limotiga ko'ra, valiylarning eng yuqori ma'naviy martabasi.
- Abo – xirqaga o'xshash bir kiyim, darveshlikda tavoze va faqirlik maqomiga ishoradir.
- Avlo – afzal, yaxshi, mutanosib.
- Avon – soqchi, posbon, devon xizmatchisi.
- Avliyo – yaxshi insonlar, ulug' insonlar (ko'plikda), valiylar.
- Adab – saboq beruvchi shayx, pir va saboq oluvchi shogirdning amal qilishi zarur bo'lgan qoidalar.
- Aduv – yov, dushman.
- Ayoz – Sulton Mahmud G'aznaviyning sevikli quli, naql qilinishiga ko'ra xushsurat va donishmand shaxs.
- Azon – toat-ibodatga chaqiruv, muazzinning machit minorasidan namoz boshlanishini hammaga oshkor qilish.
- Azroil – o'lim farishtasi.
- Alil – kasal.
- Alif – arab alifbosidagi birinchi harf, vertikal chiziq ko'rinishida tasvirlanadi;
- Aloyiq – toliblarni murod va maqsadlardan yiroqlashtiruvchi sabab va munosabatlar.
- Amid - Xurosonda moliya ishlari noziri;
- Amir – hukmdor, hokim.
- Amin – halol, ishonchli.
- Amo – ko'r.
- Amroz – kasalliklar.
- Ams – zavol.
- Ansob – nasab.
- Arkon – ruknlar, ustunlar, tayanchlar.
- Aso – hasa, tasavvufda shayxlik nishoni. Ramziy ma'noda solikning valiy va eranlar nafasiga muhtojligini ifodalaydigan bir timsol.
- Ashob – do'st, suhbatdosh, ulfat.
- Atqiyo – yomon ishlardan saqlanuvchi pok kishilar.
- Aflok – osmonlar.
- Afrod – shaxslar, kimsalar.

Axval – g’ilay.
Axtar – yulduz.
Axiylik – javonmardlikning eng yuqori maqomi. Hojatbarorlik ta’limoti.
A’robiy – sahroyi.
Aqli rod – yuksak aql.
Aqida – biror bir narsaga ishonmoq, nimanidir tasdiq etmoq va uni qabul aylab, unga sodiq qolmoq.
Aqron – yaqinlar, do’stu birodarlar.
Ahli kibor – amaldorlar, mansabdorlar.
Ahli kirom – karamli, saxovatli.
Ahli sabt – yahudiylar.
Ahli dil – dil ahli.
Ahli qol – hol ahlining teskarisi, ya’ni so’zlarning ma’no va haqiqatini bilmasdan, o’z hayoti, qismati va tajribasi bilai bog’lanmaydigan gaplarni takrorlashdan nari o’tolmaydigan kimsalar guruhi.
Ahror – arab tilida hur, ozod ma’nosini anglatadi.

B

Badguhar – asli yomon, zoti past.
Badaviy – sahroyi, ko’chmanchi.
Badaxlo – axloqsiz.
Baqo – boqiylik.
Bayon – so’z ma’nolarini o’rgatuvchi fan.
Bayt – aruz vaznida yozilgan g’azal, qasida, masnaviy kabi asarlarning ikki misrasi, bandi.
Bayti xobnok – zerikarli bayt.
Bandi dalq – hirqa kiygan, darvesh.
Banno – quruvchi binokor.
Baraka – biror narsa yoki harakatdan keluvchi foyda, naf; samara unum.
Basirat – ruhi ko’zi ochiq kishilar.
Baqo – abadiylik, mangulik; davomlilik.
Baqtriya – Markaziy Osiyodagi hudud bo’lib, kurashlarda foydalanilgan “Baqtrion” nomli ikki o’rkachli qo’lga o’rgatilgan tuyaning nomidan kelib chiqqan.
Bebok – 1. Qo’rqmas. 2. Hayosiz, parvosiz.
Biyno – ko’zi ravshan.

Bim – qo'rquv, vahm.
Bozurgon – savdogar.
Botin ilmi – avliyolik ilmi.
Botinbin – ko'ngilni ko'ruvchi.
Botinnishin – o'zining ichki dunyosini kuzatuvchi.
Bofiro'z – nurli.
Boyazid Bistomiy – Eronning Bistom shahrida 804 yilda tug'ilgan mashhur so'fiy. Tasavvufda sukro – behudlik konseptiyasi undan boshlanadi.
Buxl – baxillik, xasislik.

V

Vadud – do'st
Vazir – shoh, sulton saroyidagi katta amaldor shaxs.
Vazifa – amal, lavozim; xizmat, topshiriq.
Valad – o'g'il farzand.
Valiy – avliyo, aziz.
Vasit – o'rta, o'rtacha.
Vasl – yetishish, erishish, vosil bo'lish. Haq visoliga yetishmoq.
Vatar – orzu, bashariy sifatlar va nafsoniy lazzatlardan yiroqdagi xush bir tuyg'u.
Vahdat – birlik.
Vahm – xayol, tasavvur.
Vahhob – saxiy.
Va'z – xitobat. Islomda, asosan, yaxshilik va ezgulikka chaqiruvchi da'vat. V. ibrat mazmunida ham ishlatiladi.
Vidod – mehru muhabbat.
Vijdon – insof, diyonat; kishining jamoachilik oldidagi mas'uliyat hissi.
Voiz – va'z aytuvchilar, bu borada mutaxassis bo'lgan shaxslar.
Vomdor – qarzdor
Vosif – tavsiflovchi.
Vujud – borliq.
Vujudi ma'naviy – ma'naviy borliq.
Vuquf – ogoh bo'lish.

G

Garavgon – omonat.

Gizli – yashirin, ichki.
Giyloniy – Giylonlik.
Gurg – bo'ri.
Gurkin – tetik, bardam.

D

Dayr – otashparastlar ibodatxonasi.
Dalq – darveshlar kiyimi
Dallok – hammomda kishilarni uqalab, tanini ishqab yuvib qo'yuvchi kishi.
Daraj – daraja.
Darziynoma – tikuvchi qissasi.
Darrok – ziyrak.
Darvesh – 1. Kambag'al, faqir, xudojo'y; 2. Tasavvuf tariqatiga mansub kishi.
Darg'a – kema boshqaruvchisi.
Dastagul – Mavlaviya tariqatining uzun engli kamzuli.
Da'vo – nafsning o'ziga mansub bo'lmagan biror-bir narsani o'ziga nisbat berishi.
Daq – ta'na-malomat.
Dag'o – firibgar, makkor.
Dev – xalq og'zaki ijodida yovuzlik timsoli.
Devon – davlat idorasi; she'rlar to'plami.
Dovud – Qur'onda nomi zikr etilgan payg'ambarlardan biri.
Domu fax – tuzoq.
Dorulg'urur – aldoqchi dunyo.
Dubur – g'arb eli.
Dudu nor – tutun va olov.
Duo – iltijo, chaqirish, da'vat.

J

Javod – saxovatli.
Javshan – sovut.
Jazba – tortishish.
Jandapo'sh – juldur kiyim.
Jalol – ulug'lik, azamat.
Jamod – jonsiz jism.
Jamol – go'zallik, suluvlik, jozibadorlik.

Jahr – ovoz chiqarib zikr qilish.
Jin – afsonaviy maxluq; yovuz ruh.
Jinni – aqldan ozgan, telba.
Joh – mansab, martaba.
Jolinus – Rim faylasufi, dorishunos va mashhur tabibi Galenning Sharqdagi ismi.
Juvonmard – forscha - olijanob, mard kishi.
Jud – jo'mardlik.
Junayd Abul Qosim – Abul Qosim al Junayd ibn Muhammad al-Qavoririy al-Hazzoz al-Bag'dodiy – tasavvufdagi 2 asosiy oqimdan biri - junaydiya asoschisi.
Junun – jinni, devona.
Juxa – Yaqin va Markaziy Osiyoda folkloridagi jinni obrazi.
Juhud – 1. Yahudiy. 2. Ayyor, firibgar.

Z

Zabungir – zolim.
Zavoyid – qalbdagi nurlarning ko'payishi.
Zavvor – ziyoratchi.
Zakot – muhtojlarga beriladigan ilohiy soliq, xayr-ehson.
Zalol – pastkashlik, tubanlik.
Zann – gumon, shubha.
Zangin – moddiy boylikka ega bo'lgan; boy-badavlat.
Zardusht – zardushtiylik asoschisining noma.
Zikr – yod etish.
Zilli pir – pirning soyasi.
Zisht – xunuk.
Zihiq – yer aylanishi.
Zikr – 1. so'zlash, bayon qilish, xotirlash, yod aylash, xotirdagini unutmaslik. 2. Tasavvufda musulmonlarning xudoni yodga olish marosimi.
Zok – bir turli qora bo'yoq.
Zokir – ollohni yod etuvchi inson.
Zohid – dunyo lazzatidan yuz o'girgan inson.
Zunnor – zardushtlar diniy marosimda foydalanadigan belbog'.
Zurna – Yaqin va Markaziy Osiyoda keng tarqalgan ruhiy, ma'naviy musiqa
Zuhd – parhez qilish; haromdan saqlanishdir.

I

- Iblis – shayton.
Ibodot qilmoq – amal qilish.
Iyodat – kasal ahvolini so'rashga borish.
Ijmom – osoyishtalik.
Iztiror – erksizlik.
Iymon – ishonch.
Ikki jahon – dunyo va oxirat.
Ilmul yaqiyn – har narsaning mohiyati va kayfiyatini ochish.
Ilmul laduniy – ilohiy ilm.
Ilmi hol – Ollohni ichki sezgi bilan anglash ilmi.
Ilhom – ko'ngilga biror ilohiy fikrni solish.
Imom – boshliq, rahbar; peshvo.
Intiboh – qalbdagi g'aflatning barham topishi, bedorlik, ruhiy uyg'onish.
Intixor – saylash, tanlash.
Ittisol – bir-biriga bog'liq.
Inshaqqal qamar – oy so'nadi.
Inqiyod – sadoqat vafodorlik.
Iroda – maqsadni yuzaga chiqarish uchun kishiga bo'lgan matonat va qat'iyat.
Irtiqo – yuksalish.
Irshod – to'g'ri yo'l ko'rsatish.
Islom – Ollohga sig'inish.
Istisqo – ma'naviy tomoni ochko'zlik, nafsga berilish.
Istikbor – kibru havo.
Istiqomat – to'g'rilik, to'g'ri harakat etish, rost yo'lga etishish.
Istig'for – tavba qilish.
Istoyish – maqtov.
Ittisol – bir-biriga bog'liq.
Ishonch – e'tiqod tamali.
Ishrok – sherik.
Ishq – muhabbat, ilohiy muhabbat.
I'mon – chuqur mushohada etmoq

K

- Karomat – ilohiy mo'jiza.

Kalima – duo, ilohiy iboralar.

Kalila va Dimna – Hind eposi “Panchatantra”.

Ka’ba – eng muqaddas, aziz narsaga nisbatan qo’llanadi.

Kibriyo – ulug’lik.

Kirchi – bo’yoqchi.

L

Lam amut – men o’lmadim, tirikman.

Layli – Majnunning sevikli yori.

Latifa – sezish, his etish mumkin bo’lgan, ammo so’zda ifodalab bo’lmaydigan yashirin, sirli va nozik ma’no, ishorat.

Lahab – o’t, olov.

Lohut – Ollohning o’zini namoyon qiluvchi tabiati.

Lijom – jilov.

Luqmon –donishmand. L. (as)ning payg’ambar ekani haqida rivoyat mavjud.

Lutf – muloyimlik, marhamat; odoblilik, yoqimlilik.

Lutfi far – shukuh.

Lolo – xizmatkor.

Loyazol – bezavol.

Log’ – hazil, ermak, nayrang.

Lo’ngi – hammomga kirganda beldan pastni berkitish uchun bog’lanadigan mato.

M

Mavlaviylar, mavlaviya- sufiylik tariqati.

Mavlo – Xoja, ega.

Mavoiz – pandlar, nasihatlar, va’zlar.

Mavlono – arab. bizning janob.

Mavt – o’lim, nafsning tub ildizi ila havoyu havas zaminidan ajratib tashlamoq.

Madrasa – maktab, o’quv yurti.

Maddoh – maqtovchi, madh etuvchi, xushomadgo’y.

Man – Yaqin va Markaziy Osiyoda o’lchov birligi taxminan 3 kg ga teng.

Makka – musulmonlarning muqaddas shahri.

Makr – hiyla-nayrang, ayyorlik, aldov.

Maktub – yozilgan, xat, noma.

Makshuf – kashf etilgan.
 Malomat – tana qilish, ayb taqash.
 Manoqib – fazilatlar.
 Masal – kishilarga o'git bo'ladigan, xulosali, kichik majoziy hikoya.
 Masnaviy – har bir baytning misralari o'zaro qofiyadosh bo'lgan va baytdan-baytga qofiyalar yangilanib boradigan she'r shakli.
 Ma'rifat – aqlu donish, amaliy bilim, tanish, fahm, tasavvufga xos ilm.
 Ma'sud – baxtiyor.
 Maqom – manzil, ma'naviy mavqe, martaba, to'xtam.
 Mahv – yo'q qilmoq, bitirmoq.
 Mahram – sirdosh.
 Ma'iyat – hamrohlik.
 Machit – namoz o'qiydigan joy.
 Maqom – joy, o'rin; tartib, o'lchov.
 Ma'naviy – ma'naviy, aqliy, mavhum, axloqiy.
 Majnun – jinni, devona.
 Mashk – qo'y terisidan tikilgan suv xalta.
 Mehtar – ulug', katta, baland.
 Minora – biror binoga qo'shib yoki alohida qo'rilgan, mezana shaklidagi baland inshoot.
 Muazzin – azon aytib, namozga chorlovchi shaxs; xalq tilida "so'fi" deb ham ataladi.
 Mujarrad – toqlik, bo'yoqlik.
 Mujohid – jihod qiluvchi kishi.
 Mujohida – nafsni jilovlashga harakat qilish.
 Muin – madadkor.
 Mukavvin – takvin sifatiga sohib bo'lgan zot.
 Mukoshifa – shogirda ilohiy pardalarning ochilishi.
 Mukallim – so'zlovchi.
 Mulla – ma'lumotli, o'qimishli kishi.
 Munodiy – jarchi.
 Munshi – munshiy - asoschi, yaratuvchi, tuzuvchi, yozuvchi, aql va mehnat.
 Mumayyiz – parokanda.
 Murid – shogird.
 Muroqaba – Qalb poklanishi, mushohada, biror narsaga diqqat ila nigoh tashlamoq.
 Murshid – Pir, murabbiy.

Muhabbat– sevgi, mehr, yaqinlik va sadoqat hissi.
Muhtasib – tekshiruvchi, tosh-tarozuni nazorat qiluvchi.
Mustame’ – tinglovchi.
Mutrib – cholg’uchi.
Muflis – kambag’al, bechora.
Muxannas – xunasa.
Mushohida – Ruhiiy ko’rish qudrati.
Muqarrib – yaqin kishi.
Muhib – haqiqat, ma’no, ya’ni botin ahliga mansub shaxs.
Mo’min – musulmon.

N

Nabil – ulug’, dono.
Nay – oltita teshigini barmoqlar bilan bekitib-ochib, puflab chalinadigan musiqa asbobi.
Navol – ehson .
Nadim – shoh ayonlari.
Namoz – ibodat.
Nang – uyat, or-nomus.
Nasih – nasihatgo’y.
Nasux – 1. Inson tabiati, mohiyat. 2. Ism.
Nafas – tasavvufda g’aybdan tug’ilgan latif hollar va qalbning ishq o’tidan farahlanishi.
Naqib – biror jamoaning e’tiborli kishisi.
Naqqodi nuqud – bilimdon.
Nahv – grammatika.
Nahviy – grammatika muallimi.
Noib – o’rinbosar, yordamchi.
Nafs – o’zlik, ego, xudbin “Men”, instinktiv-hayvoniy qalb:
«nafsi ammora» – amr qiluvchi nafs.
«nafsi al-lavvoma» – malomat qiluvchi nafs.
«nafsi mulhoma» – ruhlantiruvchi nafs.
«nafsi mutmayinna» – xotirjam nafs.
Nur – haqiqat, baxt-saodat, erkinlik ramzi.

O

Obid–ibodat qiluvchi.
Ogoh – voqif, orif, oshno, xabardor, uyg’oqlik.

Odam – Qur'on va Injilga muvofiq, birinchi odam, Odam ato, Odam alayhissalom.

Orif – irfon sohibi, anglagan va tanigan.

Ofoq – ufqlar; insonga nisbatan tashqi borliq olami, zohiriy olam, jismoniy olam.

P

Pari – afsonaviy obraz, go'zal ramz.

Pahlav – pahlavon - qahramon, botir, kuch, jasorat va tetiklik.

Pir – ustoz (keksa, qari).

Poymard – jo'mard, madadkor.

Poluda – halvoning bir turi.

Porso – saqlanuvchi, xudojo'y.

R

Rayosat – rahbarlik.

Ramz – ma'nosi yashirin, sir tutilgan biror so'z, ibora yoki tushuncha; belgi, ishorat.

Reshxand – kulgu, masxara.

Rizo – rozilik, xushnudlik, mamnunlik.

Rijo – umid.

Robita – aloqa; bog'lanish, zanjir, tartib va qoida.

Rod – saxiy, saxovatli.

Rofiziy – islom yo'lidan chetga chiqqan.

Royu fan – qat'iyat va hunar.

Rohi rashod – to'g'ri yo'l.

Rohi rost – to'g'ri yo'l.

Rutba – daraja.

Ruh – jon, hayot, ko'ngil, arvoq.

Ruhi mahjub – pardalangan, yashirin ruh.

Ruhi asliy – asl ruh.

Ruhi qudsiy – omonatga xiyonat qilmaslik.

Ruhi najot – najod ruhi.

Ruhi nur – nur ruhi.

Ruhul habis – yomon ruh.

Ro'shunos – ruhshunos.

S

Sabr – toqat, chidamlilik.

Savma' – ibodatxona.

Sakr– hushyorlik.

Sahv – e'tiborsizlik, parishonxotirlik.

Samo' – eshitish, tinglash; qo'shiq, musiqa, raqs. Mavlaviya tariqatiga tegishli marosim. Darveshlarning zikr majlislarida davra aylanib, jo'shib raqs tushishi.

Sarih – ochiq, ravshan, aniq.

Safvat – poklik, tozalik.

Safo – pok, beg'ash, bekudurat bo'lmoq. Haqiqiy sodiqlar sifati.

Saqqo – suv tashuvchi, meshkob.

Sikke – Mavlaviy qalpog'i.

Sila – in'om, mukofot.

Simiyo – tilsim, sehr ilmi.

Solik – shogird.

Solim – butun.

Solih – salohiyatli kishi.

Sulaymon – payg'ambar.

Sulton – musulmon davlatlarida amir, xon, shohlar unvoni.

Suluk – tariqat.

Suf – surp, so'fiylar kiyadigan kiyim.

Sufliy – past.

So'fiy – tasavvuf vakili.

T

Tabar – oybolta.

Tabdil – o'zgarish, evrilish.

Tab'iyat – tobelik.

Tavba – qaytish.

Tavhin – tushuntirish. cheksiz muhabbat.

Tavakkul – umid bog'lash.

Tavajjuh– yuzlanish, zehnni diqqat ila bir narsaga qaratish.

Tavhid – biror bir narsani vohid aylash.

Talbis – biror bir narsani uning haqiqatiga teskari o'laroq tarzda xalqqa ko'rsatish demak.

Talvin – bir rangdan boshqa rangga o'tish, bir holdan boshqa holga o'zgarishdir.

Tamiz – iymon.

Tariqat – yo'l. «SHariat» va «tariqat» so'zlari boshqa-boshqa o'zakdan yasalganiga qaramasdai, lug'aviy ma'nosi bir, ya'ni yo'l demakdir.

Tanoqiz – ziddiyat.

Tarzi – tikuvchi.

Tasavvuf – Islomda insonning ruhiy dunyosi to'g'risidagi, uni ruhiy va axloqiy komillik sari yo'llovchi ta'limot.

Tasfiya – qalbni sof holga keltirmoq, haqiqatni idrok etmoq, mujohada va riyozat pokizaligi.

Tarso – nasroniy.

Tahammul – chuqur va teran mulohazalarga berilish, diqqat ila mushohada yuritish. Ilohiy haqiqatlarni idrok qilishga erishish holati

Taqvo – harom-harishdan hazar qilish, o'zini saqlash.

Taqdis – muqaddas.

Tafakkur – o'ylash, fikr yuritish, muhokama.

Taxti dod – adolat taxti.

Tafriqa – parishonlik.

Teva – tuya.

Tovushqon – quyon.

Tojir – savdogar.

Tolib – shogird.

Tohur – nihoyatda pok.

Ta'viz – tumor.

Ta'vil – so'zni o'z ma'nosidan boshqa ma'noga burish.

U

Ulviy – yuksak, baland.

Uluhiyat – ilohiylik.

Uns – Mehribonlik, qadrdonlik munosabati.

Usul – aqida ilmi.

Ushr – hosilning o'ndan bir qismi.

Uhda – javobgarlik kafillik.

F

Fayz – suvning to'lib, qirg'oqdan toshishi.

Fakih – shariat huquqshnosi, qonunshunos.

Fano – yo'qlik, yo'qotish.
Fard – yagona.
Fariq – guruh.
Farsah – eskicha hisobda sakkiz chaqirim, yangich hisobda taxminan
olti killometrga teng bo'lgan masofa o'lchovi
Faqir – ma'naviy faqirlik.
Faqir – bechora.
Fexrist – mundarija.
Fir'avn – axloqiy buzqlik, fahsh.
Foil – ijrochi, omil.
Fuzul – behuda gapiruvchi, gap sotuvchi.

X

Xalil – do'st.
Xalifa – o'rinbosar.
Xazz – ilohiy sezish.
Xarvor – pul birligi.
Xilvat – xoli joy; tasavvufda tanholik, hech nimaga bog'lanmaslik,
dunyoning xilma-xil g'avg'olaridan forig'lik demak.
Xirad – aql, donish.
Xirqa – shayx, murid va darveshlar kiyadigan maxsus kiyim.
Xoja – tasavvuf ahliga beriladigan unvon.
Xubi – yaxshilik.
Xunus – o'z-o'ziga o'rالمoq.
Xush tavoze – kamtar, xushmuomala.
Xo'ja humom – ulug' xo'ja.
Xo'jatosh – eshik og'a.

Ch

Chalabiy – Jaloliddin Rumiyning muridi, do'sti va kotibi.
Chandu chun – sanoq, hisob - kitob.
Cholok – tetik, ildam, chaqqan.

Sh

Shavq – Muhabbat kuchayishi natijasida insonda vujudga keladigan
hissiy holat.
Shayton – iblis, jin, razolatga boshlovchi yovuz ruh.
Shajar – daraxt.

Shajara – silsila ma'nosida.
Shams – quyosh.
Shams – SHamsiddin Tabriziy, deyilmoqchi.
Shariat – to'g'ri yo'l.
Shath, shathiya – harakat, tebranish, to'lib-toshish.
Shayx – keksa, oqsoqol; qabila, urug', oila oqsoqoli.
Shirk – kofirlik, ko'pxudolik.
Shag'ol – sirtlon.
Shuho – yulduz.

E

Ehson – xayr, hadya. Murshidning muridiga ma'naviy lutfu karami.
Ehtishom – shukuh.
E'dod – adad, miqdor.
E'lom – xabar.
Eh'yo – hayot, tiriklik.

Q

Qavl – so'z.
Qavuk (tur.) – darveshlarning konus shaklidagi kigizli bosh kiyimi.
Qadr – jamiyatda kishilar o'rtasida tutgan o'rin, ehtibor.
Qazvin – Eronning shimoliy g'arbiy qismidagi shahar.
Qazo – o'lish, vafot etish.
Qays –Majnunning asl ismi .
Qalb – kishining ruhiy yoki ma'naviy dunyosi, ichki his-tuyg'ulari markazi ramzi.
Qohir – kuchli, qudratli.

H

Havo va havas – orzu, mayl, istak.
Havos – hislar.
Hadis – biror kimsaning aytgan so'zlari yoki gaplari; rivoyat, hikoya.
Hayot – tiriklik, sog'liq, jon, yashash, umr.
Haj – maqaddas joylarni ziyorat qilish.
Hayrat – taajjublanish, hayron qolish.
Hasab – nasl-nasab yo'li bilan emas, shaxsiy o'zi qozongan obro'.
Haqiqat– chindan mavjud bo'lgan-narsa, asl mohiyat.

Hizr – kimsa, narsa va u bilan bog'liq voqea-hodisalarning og'zaki tafsiliy bayoni.

Hirqa – shayx, murid va darveshlar kiyadigan maxsus kiyim.

Hodi – yo'l boshchi, murshid.

Hol – ahvol, holat, vaziyat, ichida yashayotganingiz vaqt, zamon, muayyan damda tug'ilib, so'ng o'tib ketadigan his-tuyg'u, hayajon, ehtiros, shavq, zuhur, vujud, g'aybat, huzur kabi hollardir.

Hojib – darvozabon, eshik oldidagi qorovul.

Huquq – hollar, maqomlar, maqsadlar, irodalar; muomalalar va ibodatlar.

MUNDARIJA

So'z boshi.....	3
Masnaviyi ma'naviy.....	4
Birinchi kitob	4
Ikkinchi kitob	15
Uchinchi kitob	32
To'rtinchi kitob	46
Beshinchi kitob.....	55
Oltinchi kitob	69
Hikmatlar.....	83
Izohli lug'at	133

“MASNAVIYI MA'NAVIY” DAN HIKOYALAR, MASALLAR, HIKMATLAR

Мухаррир: Н. Рустамова
Мусаххих: М. Расулов
Техник мухаррир: А.Қаландаров

Босишга рухсат этилди: 17.08.2015 йил. Times New Roman гарнитураси. Офсет усули.
Бичими 60x84 1/16. Шартли босма табағи 9.2. Нашриёт ҳисоб табағи 9.0. Адади: 100 нусха.
Буюртма№83.

“Наврўз” нашриёти. Лицензия №АІ 170. 23.12.2009 йил.
Тошкент шаҳри. 100000 А. Темур кўчаси 19 уй.

МЧЖ “Шарқ-Бухоро” босмаҳонасида чоп этилди.
Бухоро шаҳри, М.Иқбол кўчаси, 11-уй. Тел.: (95) 604-39-00.